O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
TILLAR KAFEDRASI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor S.U.Aliyev
_____________
"____" _________2017-yil

# MAGISTRATURA TALABALARI UCHUN

# "NUTQ MADANIYATI"

# FANIDAN O'QUV USLUBIY MAJMUA

**Ta'lim yo'nalishlari:**

5A510501 - Farmatsevtik kimyo va Farmakognoziya
5A510602 - Immunobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi
5A510603 - Dorilarning sanoat texnologiyasi
5A320406 - Dori vositalari va preparatlari texnologiyasi
5A510502 - Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish

TOSHKENT-2017 YIL

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
# TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
## TILLAR KAFEDRASI

## MAGISTRATURA TALABALARI UCHUN

# “NUTQ MADANIYATI”

## FANIDAN MA’RUZALAR TO’PLAMI

**Ta’lim yo’nalishlari:**
**5A510501 - Farmatsevtik kimyo va Farmakognoziya**
**5A510602 - Immunobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi**
**5A510603 - Dorilarning sanoat texnologiyasi**
**5A320406 - Dori vositalari va preparatlari texnologiyasi**
**5A510502 - Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish**



**TOSHKENT-2017 YIL**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

TILLAR KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor S.U.Aliyev
________________
“____”_________2017-yil

# MAGISTRATURA TALABALARI UCHUN

# “NUTQ MADANIYATI”

# FANIDAN O’QUV USLUBIY MAJMUA

Ta’lim yo’nalishlari:
5A510501 - Farmatsevtik kimyo va Farmakognoziya
5A510602 - Immunobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi
5A510603 - Dorilarning sanoat texnologiyasi
5A320406 - Dori vositalari va preparatlari texnologiyasi
5A510502 - Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish

TOSHKENT-2017 YIL

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi ishchi, o‘quv reja va o‘quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta/lim vazirligining 2017 yil 1 martdagi 107-sonli buyrug’iga muvofiq ishlab chiqildi va.

**Tuzuvchi:**
**S. Tuychieva - Tillar kafedrasi mudiri**

**Taqrizchilar:**
**H.Mamedov** – Toshkentfarmatsevtika instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi, professor i.f.n.
**R.Gumaniyozov-** f.f.n., dotsent, TVPKQTMOI dotsenti

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi Toshkent farmatsevtika instituti MUKning 2017 - yil 29 iyun 11 – son yig‘ilishida tasdiqlandi.

## MUNDARIJA


1. **Nazariy mashg'ulotlar mazmuni …..........................**

2. **Amaliy mashg'ulotlar mazmuni ……………………**

3. **Mustaqil ta'lim mavzulari va materiallar…………**

4. **Glossariy ………………………………………………**

5. **Ilovalar…………………………………………………**

# I. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

**1- mavzu**: **"Nutq madaniyati" fanining mazmuni, maqsad va vazifalari**.
Leksik mavzu: So'z sehri  Matn. Shoiru she'ru shuur
Reja:

1. Predmetning maqsadi va vazifalari.
2. So'z sehri.
3. Bo'lajak mutaxassislarda nutg madaniyatini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar:
Til, nutg, madaniyat, pedagogika, nutq san'ati.

**Nutq madaniyati**, nutq odobi — 1) og`zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg`u, so`z qo`llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maksad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o`rganuvchi bo`limi. G`arb tilshu-nosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo`llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o`zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to`g`riligi va boshqa nutqiy mahorat. N u -tqning to`g`riligi muayyan tilda so`zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o`zaro mavjud bo`lgan variantlardan mazmunan eng to`g`ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifo-dalisini tanlab olish mahoratidir (Mas, aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining adabiy me'yor sifatida tanla-nishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madani-yatini, tilga nisbatan ongli mexr-muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til me'ye'ridir. 2-ma'nodagi Nutq madaniyatining asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol ta'sir ko`rsatish maqsa-dida (tilning barcha sathlarida) ob'yektiv til me'yorlarini ularning barqarorlashgan shakllarida, ziddiyatlarida, vujudga keluvchi tamoyillarida va boshqalarda o`rganishdir.

Zamonaviy Nutq madaniyati nazariy va amaliy fan bo`lib, u til amaliyotiga ta'sir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va boshqa til-shunoslik bulimlarining yutuklari va xulosalarini umumlashtiradi. Nutq madaniyati na-zariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb e'tirof etiladi; ba-diiy

adabiyot tili o`zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuklari va an’analarini mustahkamlaydi va boyitadi.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo`lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas boglik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a’zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, Nutq madaniyati qoidalari va me’yorlariga muvo-fiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san’at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o`rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me’yorlashtirish va Nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izox^li, imlo, talaffuz, o`quv va boshqa maxsus lug`atlar muhim ahamiyatga ega.

15-asrdayoq o`zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o`ziga xos me’yorlari bo`lgan — Alisher Navoiy o`zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o`z davri Nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo`shgan bo`lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o`sha davr tili va Nutq madaniyati ma’lum darajada aks etgan. "Yaxshi so`z — jon ozig`i", "Bug`doy noning bo`lmasa ham, bug`doy so`zing bo`lsin", "O`ynab gapirsang ham o`ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — no-donning ishi" kabi maqol va hikmatli so`zlarning paydo bo`lishi ham o`zbek xalqida Nutq madaniyati ga avvaldan e’tibor kuchli bo`lganidan darak beradi.

O`tgan asrning 20-yillaridan so`ng o`zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me’yorlariga asoslanadi. Bu me’yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adibu shoirlar (Qodiriy, Cho`lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar.) Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javob berar ekan, jamiyatimizning mohiyati xususida shunday deydi: **“Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarimizga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e’tibor beradi”**. Ana shu ma’naviy va axloqiy qadriyatlar inson tafakkuri, nutqiy madaniyati bilan chambarchas bog`liqdir. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo`lmaydi. “O`z fikrini mutlaqo mustaqil. Ona tilida ravon, go`zal va lo`nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o`tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”. (I.A.Karimov. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori).

Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq ya’ni talaffuz urg`u, so`z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tolning tasviriy

vositalardan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o`qish va so`zlay olish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko`rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Mana shunga ko`ra nutq madaniyati:

1) tildagi mavjud til hodisasi nomi;
2) nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko`rinishning nomi;
3) madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo`lgan aniq normatik tasavvurlarning nomi;
4) tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot ob'yekti bo`lgan nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;
5) nutq madaniyati muammosini tadqi qilish bilan shug`ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan bo`lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo`lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko`rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq madaniyati asoslari ham fan sifatida o`z tekshirish ob`yekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti til qurilishi, adabiy til normativlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir.

Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi elementlarning eskirishi, yangilarining paydo bo`lishini kuzatib qayd etib boradi.

Odam nutq yordamida o`zining fikrlari, his-tuyg`ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg`ulari, istaklarini anglab oladi.

Nutq ichki va tashqi ko`rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o`z ichida gapiradigan passiv nutqi bo`lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o`z-o`ziga qaratilgan nutq sanaladi. Ichki nutq og`zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo`lgan faol nutq bo`lib, u og`zaki va yozma ko`rinishlarga ega. Og`zaki nutq odatdagi tovushli so`zlashuv nutqi bo`lib, bu nutq ko`proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab Grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali

maqsadida to`liqsiz gaplar keng qo`llaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalgam oshiriladi. (monologik, diologik nutq).

Yozma nutq esa harf va so`zlarning ma'lum qonuniyatlari asosida o`zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro`yobga chiqadi.

Ma'lum bir til tarixida amal qilgan, hozir mavjud bo`lgan va paydo bo`lishi ko`zda tutilgan hodisalarning jami o`sha til tizimini tashkil etadi. Har bir til sistemasi o`zigagina xos bo`lgan tomonlari bilan boshqa tillardan farqlanib turadi. Masalan, o`zbek tili turkey tillar oilasiga kiradi.

Sistema o`zaro ichki ziddiyatga ega bo`lgan hodisalarning guruhlanishiga aytiladi. Til sistemalar sistemasi sanaladi.

Biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo`lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi **uzus** deyiladi.

Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham, tilning ichki normalarini ham o`z ichiga oladi. Uzusli so`zlar yig`iq so`zlar yig`indisiga quyidagilarni kiritish mumkin:

**1- dialektal leksika;**

**2- so`zlashuv leksikasi;**

**3- an'anaviy leksika;**

**4- kitobiy leksika;**

**5- ilmiy-terminologik leksika;**

**6- kasb-hunar leksikasi**

**7- arxoizmlar;**

**8-tarixiy leksika**

Til jamoasi afzal deb bilgan ko`nikmalar yig`indisi tilning umumiy me'yorni tashkil etadi. Umumiy me'yor **usual** me'yordir. Umumiy me'yor qardosh tillarga nisbatan belgilanadi. O`zbeklar nutqini qardoshlar tilidan ajralib turadigan me'yorlar o`zbek tilining umumiy me'yoridir. Bu me'yor juda qattiq amal qiladi. Ma'lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o`sh hududida yashaydigan aholi uchun beistisno tushunarli bo`ladi.

Adabiy til – hamma birdek foydalanadigan til. Uning umumxalqiyligi shunda ko`rinadi. Me'yor ma'lum bir til jamoasi uchun mustahkam qo`llanib kelayotgan lisoniy hodisalar yig`indisidir.

1. Fonetik me'yori.
2. Talaffuz me'yori.
3. So`z yasash me'yori.
4. Morfologik me'yor.
5. Sintaktik me'yor.
6. Uslubiy me'yor.
7. Lug`viy me'yor.

Til me'yorining fonetika, grammatika va boshqalarda bir variantni tanlash qandaydir darajada qat'iy bo`lsa ham, lug`aviy me'yorlar haqida gap ketganda voz kechish kerak deb bo`lmaydi.

Tilning lug`aviy boyligidan foydalanganda me'yorning imkoniyati muallifga takrorni, bir xillikni yengishda chiroyli nutq tuzishda qo`l keladi. Nutqning to`g`riligi uning adabiy me'yorlariga mosligidir. Nutq o`zida adabiy tilning fonetik talaffuz, lug`aviy so`z yasalishi Grammatik uslubiy me'yorlarini mujassamlashtirgan bo`ladi. Nutqning to`g`riligi uning eng aloqaviy fazilatidir.

**Talaffuz me'yorlari**. Nutq shaxsiy hodisa. Agar so`zlovchi adabiy me'yorlarini kishi egallamagan bo`lsa yoki o`z shevasi bergan shaxsiy variantni afzal deb qarasa, uning puxta adabiy me'yordan cheklanishi mumkin.

O`zbek tili xususiyat jihatidan uch lahzadan iborat.

Kelishik me'yorlari. Adabiy tilimizda "kuchli" va "kuchsiz" me'yorlari bor.

Kuchli me'yorlar adabiy tilda so`zlovchi shaxslar tomonidan hamma vaqt amalgam oshiriladi.

Kuchsiz me'yorlar og`zaki nutqida ham e'tibor berilishi oqibatida yuzaga keladi.

O`zbek tilining qorluq lahjasidagi maxsus shahar shevalarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko`rsatkichga ega, ya'ni 2 kelishik uchun ham –ni xizmat qiladi.

Qaratqich-qaralmish aloqasida xoslik ma'nosi ifodalanishida ba'zi bir o`zgacha sharoitlarda qaratqich ko`rsatkichi ishlatilmaydi. Masalan: O`zbek tili, shahar kengashi, bahor fasli.

Turli sabablarga ko`ra kelishik joylarini almashtirib ishlatish, ya’ni hamma hollarda ham hozirgi zamon o`zbek tili normalarini buzish hisoblanadi.

*Birlarni bee’tiqod.*

*Birlarni riyo ko`rdim.*

Tushum kelishigi affiksini vazn talabi bilan tushirib qoldirsa, she’rda g`alizlikni hosil qiladi:

*Quloq soling alvon-alvon so`zlarga,*

*Karvon yurar olsiz to`la tuzlarga,*

*Uyga keeling, ikki birday miyani*

*Urush janjal kim qo`yibdi sizlarga.*

Turkiy xalqlarning ba’zilari tilida jo`nalish kelishigi o`rnida ayrim hollarda o`rin-payt kelishigidan foydalanish uchraydi.

*Suratda ra’nosan o`zing, men mubtalo qayda boray?*

1. Matnlarni o‘qish, mashg‘ulotda tavsiya qilingan mashqlarni yozish, savollarga javob bera olish, matndagi mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish, mavzuga oid vazifalarni bajara olish;
2. Nutq madaniyati tushunchasiga berilgan ta’riflarni o‘rganish, uning kasbiy nutqni rivojlantirishga ta’sirini Sharq mutafakkirlarining asarlari asosida tushuntira olish ;
3. Matn mazmuniga yaqin tarzda gapirib berish;
4. Mashg‘ulotda tavsiya qilingan leksikani og‘zaki va yozma shaklda qo‘llay olish;
5. “O‘z ona tilim haqida nimalarni bilaman?” mavzusida og‘zaki ma’lumot berish.
6. Salomlashish, ma’qullash formulalarini qo‘llagan holda dialogni olib borish. Mazkur mavzuni o‘rgatishda tibbiyotchi-pedagogning nutq madaniyati fanining mazmunini chuqur o‘rganishiga e’tiborni qaratish zarur. Rezidentlarning fanning asosiy tushunchalarini o‘rganishlarida tibbiyot tili va terminologiyasini, tibbiy nutqiy madaniyatlarini oshirishni hisobga olish lozim.

Nutq madaniyati nutqning adabiy til qoidalariga asoslangan, muayyan talab va usullarga bo‘ysungan, asosiy talabi nutqni ilmiy, sermazmun, aniq, ravshan, tiniq, to‘g‘ri, ta’sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor bayon qilishdan iborat.

Masalan: Voiz avval elning yuragiga quloq tutib, tomirini tinglab, dardini qaerda ekanini obdon o‘rganadi, so‘ng unga dori quyish uchun minbarga chiqadi.

**Matn asosida so‘zning sehri haqida nimalar deysiz?**

**Matndagi birinchi va ikkinchi gaplarda muallif nimalar demoqchi bo‘lganini ayting.**

Har qanday odamni o‘zingizga qaratishda, turmu-shingizni qayta yaratishda, atrofga ma’ni va go‘zallik nurlarini taratishda so‘zga teng keladigan boshqa qurol yo’q! Siz o‘zingizdan avval so‘zingizni asrang: u- gavhar, tejab ayting, har bir so‘zingiz bir uzukka ko‘z bo‘lsin!

So‘zni chaynamang, ming‘irlamang, har bir harfni o‘z ohangi, rangi bilan tiniq talaffuz qiling! Quvonchli so‘zni quvonch bilan ayting! Xafa so‘zni hasrat bilan ayting! “Urg‘u” degan oltin tayoqcha bor, kerak so‘zni topib tegizsangiz, jumla jaranglab ketadi! Bu degani gapingiz albatta tinglovchining yuragiga yetadi!

**Mustaqil ishlari uchun material.**

**Matnni notiqlik mahorati va san’atini oshirishga ta’siri jihatidan tahlil qiling.**

Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She’riyat yurak sadosi bo‘lganidan ana shu murakkab tuyg‘ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she’rni o‘qib quvonsak, ko‘ksimiz surur va iftixor tuyg‘ulariga to‘lsa, ikkinchi bir she’rni o‘qib hayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo‘lamiz. Shoirlik o‘sha tuyg‘ularning tabiiyligi va haqiqiyligiga she’rxonni ishontira olishdir.( Erkin Vohidov. Shoiru she’ru shuur. Adabiy o‘ylar).

**Nazorat uchun savollar:**

1. Nutq madaniyati kursining maqsad va vazifalari, o‘rganish obekti haqida nimalarni bilasiz, kursning dolzarbligi nimada?
2. Nutq madaniyatiga dunyo miqyosida qanday e’tibor berilmoqda?
3. Nutq madaniyatining asosiy mezonlari haqida gapirib bering.
4. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Nutq madaniyatiga bog‘liq qanday yirik asarlarni bilasiz?
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida til va nutq madaniyatiga qanday e’tibor qaratilmoqda?
7. Nutq madaniyatiga oid qanday asosiy adabiyotlarni bilasiz?

## Asosiy darsliklar va qo'shimcha oʻquv qoʻllanmalar

***Adabiyotlar:***


1. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-47b
3. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-485b
4. O'zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y.,6-son,70-modda.
5. Barkamol avlod orzusi. T., "Sharq", 1999.
6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O`zbekiston", 2000.
7. N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., "O`qituvchi", 1992.
9. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., "O`qituvchi", 1995.

## 2-mavzu. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi

**Reja:**

1. Qadimgi mutafakkirlarning nutq madaniyati haqida qarashlari.
2. Alisher Navoiyning til va nutq odobi haqida.
3. Hozirgi davrda nutq madaniyati haqida qarashlar.

***Tayanch iboralar:***

Kaykovusning "Qobusnoma" asari, til madaniyati, nutq madaniyati, til odobi, odob va adab, so’zlash san’ati.

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o’rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko’zgusidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go’zalligi uning tilidadir" deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o’z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og’ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O’zbekiston Prezidenti I.Karimovning quyidagi so’zlarida ulkan ma'no bor: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili – bu millatning ruhidir. O’z tilini yo’qotgan har qanday millat o’zligidan judo bo’lishi muqarrar." Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo’lmish milliy g’oyamizning kurashchanligini ta'minlashda mukammal ma'naviyat va ma'rifat hal qiluvchi omil bo’lib, ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko’lam baxsh etadi. Shuning uchun ham milliy g’oya targ’ibida "millatning o’lmas ruhi bo’lgan ona tiliga muhabbat" tarbiyasi muhim o’rin tutadi

Mamlakatimizda ma'naviyat jabhasida olib borilayotgan benihoya keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, ona tiliga, davlat tiliga e'tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to’g’risda"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dastur" va boshqa juda ko’plab hujjatlarda bu yo’nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko’rsatib berilgan. Davlatimiz rahbari 1997- yilning iyunida Toshkentda bo’lib o’tgan "Kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dasturni tuzish" komissiyasining yig’ilishida har bir fuqaro uchun "o’z davlat tilini bilish,

uni o’rganish yuksak ma'naviyat, Vatani va xalqiga sadoqat belgisi" ekanligini asosli ravishda ta'kidlaganlar.

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o’z ona tilining sadoqatli sohibi bo’lmog’i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo’lmoqning bosh sharti esa uning tugaimas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go’zal va lo’nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o’ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko’nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Davlatimiz rahbarining "O’z fikrini mutlaqo mustqil, ona tilida ravon, go’zal va lo’nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o’tirishini bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin" degan so’zlarini hamisha yodda tutmoq kerak.

XI asr Sharqining ulkan pandnomachisi Kaykovus "Qobusnoma"da shunday bir ibratli hikoyatpi keltiradi: Bir kecha xalifa Xorun ar-Rashid tush ko’radi, tushida uning barcha tishlari to’kilib ketgan emish. Xalifa tongda muabbir (tushni ta'bir qiluvchi)dan tushining ma'nosini so’radi. Muabbir shunday deydi: "Ey amiralmo’'minin, Sendan olding barcha yaqinlaring, qarindosh-urug’laring o’ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi". Bu so’zni eshitgan Xorun ar-Rashid "Mening yuzimga bunday qayg’uli so’zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o’lsa, so’ngra men qanday ishga yaraymanu qanday yashayman?" — deydi darg’azab bo’lib va uni yuz tayoq bilan jazolashni buyuradi. Keyin boshqa muabbirni chaqirib, undan tushining ta'birini so’raydi. Muabbir bunday deydi: "Ey amiralmo’'minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo’ladi". Shunda Xorun ar-Rashid deydi: "Barcha aqlning yo’li birdir va ikkovining ta'birining negizi bir erga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag’oyat ko’pdir". So’ng muabbirga yuz tillo berishni buyuradi. Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg’un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma'rifatu ma'naviyatiga bog’liq. Muloqot vaziyatini etarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha to’g’ri va go’zal bo’lmasin, maqsad nishoniga etib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin.

Go’zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu e'tiqod an'anasining ibtidosi, ayniqsa, ko’hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Donishmand Sharq bag’rida (Frot va Dajla daryolari oralig’ida yashagan qadimgi shumerlarda) bundan besh ming yillar burun barpo bo’lgan eng "keksa" muassasalardan bo’lmish ilk maktablarning bosh vazifalaridan biri ham bolani

to'g'ri, aniq gapirish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lganligi, ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o'sha mohiyatini yo'qotmay kelayotganligi har qanday jamiyat hayotida til va nutq nufuzining nechog'li muhtasham o'rin tutishining shahodatidir.

Shuni ham ta'kidlamoq lozimki, "sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o'rnashgan.

Tsivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupoda moddiy-texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq shaklida vujudga kelgan... Qadimiy Turonda axloqqa katta e'tibor bilan qarashgan. Yuksak insoniy fazilat, insonni millatidan qat'i nazar, barcha mavjudotlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va etuklik, adolat, insof, diyonat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan".

Bizning yurtimizda axloq serqamrov, mag'zi to'q va qiyosi yo'q tushuncha sifatida azaldan jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalikning asosiy omili bo'lib kelgan. Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutq zanjiridagi maqbul va nomaqbul halqalarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, o'z munosib o'rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, nozik nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan. Hatto aytish mumkinki, chin so'z sezgisi inson komilligini tayin etuvchi fazilatlarning boshida turgan. Aziziddin Nasafiy "Komil inson" nomli kitobida yozadi: "Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi — yaxshi so'z, ikkinchisi — ezgu faoliyat, uchinchisi — go'zal axloq, to'rtinchisi – ilm".

"Qobusnoma"da Kaykovus farzandiga shunday o'git beradi: "Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang, yuzi bila degil, to suxango'i bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas. Suxango'y shul kishi bo'lg'ayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lg'ay va xalq ham har so'z desa, unga ma'qul bo'lg'ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg'ay, yo'q ersa, ul inson suratida mavjud bo'lg'on bir hayvondur".

Olam ahlini hayrat barmog'ini tishlashga majbur qilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimiz nutqning inson hayotidagi o'rni haqida ko'plab fikrlarni bayon qilganlar. Masalan, "Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida inson fozilligining muhim belgilaridan biri sifatida quvvai notiqa (nutq quvvati)ni ajratadi. Uning fikricha, inson dunyoga kelishi bilan o'zini boqadigan quvvatga ega bo'ladi. Bu g'izolantiruvchi quvvat sanaladi. Undan so'ng inson o'z takomili yo'lida turli

quvvatlarni qo’lga kiritadi. Masalan, mutoxayyila quvvati (xayol qilish, umumlashgan obrazlar yaratish), aql quvvati va boshqalar. Insonning olamni bilish jarayonida notiqa quvvatining xizmati katta ekanligini ta'kidlaydi".

Nafaqat Sharq, balki butun dunyo tib ilmida o’ziga munosib taxt yaratgan ulug’ bobomiz Ibn Sino inson hayvondan aqli va tili bilan farq qilishini, shuning uchun insonning eng barkamoli — oqil va so’zga chechani ekanligini aytadi.

Turkiy so’z xazinasiga tillo sandiq yasagan bobomiz Mahmud Koshg’ariyning "Devonu lug’otit turk" asarida "Odobning boshi tildir" degan maqol bor. Ulug’ alloma Yusuf Xos Hojibning "Qutadg’u bilig" dostonida "til ardami"(til odobi) haqida bir qancha go’zal hikmatlar mavjud:

*"So’zingga ehtiyot bo’l, boshing ketmasin,*
*Tilingga ehtiyosh bo’l, tishing sinmasin."*
*"Bilib so’zlasa, so’z donolik sanaladi,*
*Nodonning so’zi o’z boshini eydi."*
*"Akl ko’rki so’zdir va til ko’rki so’z,*
*Kishi ko’rki yuzdir, bu yuz ko’rki ko’z."*
*"Tug’ilgan o’ladi, ko’r, nom-nishonsiz qoladi,*
*So’zingni ezgu so’zla, o’zing abad o’lmaysan.*

Ulug’ bobokalonimiz Amir Temur nutqiy ifodaning aniqligi va rostligini yuksak qadrlagan, boshqalardan ham shuni talab qilgan. "Tarixchi Nizomiddin Shomiyning guvohlik berishicha, Amir Temur uni milodiy 1401 yilning 11 avgustida huzuriga chaqirtiradi. O’z hayoti va faoliyati haqida yozilgan narsalarni saralab, bobma-bob tartib berib, kitob qilishni buyuradi. "Lekin shu shart bilanki, - deydi Amir Temur, - takallufu bezak berish, lof urish, mubolag’a qilish bo’lmasin, maqsad nimaligini o’qigan odam yaxshi tushunsin". Banda (Nizomiddin) er o’pib, arz qildim: "...Olimlar maqbul so’z haqida shunday deganlar: "Yaxshi so’z uldirkim, avom xalq uning ma'nosini anglagay, xos kishilar esa unga ayb qo’imagay... Bayt:

*Gar iste'dod bo’lmasa, hech kim aytolmas*
*Xosga maqbulu omma tushushudek so’zni.*

Amir Sohibqiron "Men ana o’shandoq so’zni xohlayman" dedilar.

Amir Temur arab olimi Ibn Xaldunga O’rta Er dengizi-ning janubiy qirg’og’idagi erlar haqida yozib berishni top-shirganda ham "Shunday yozginki, men o’qiganda o’sha joylar-ni o’z ko’zim bilan ko’rganday bo’lay" deb tayinlagan..." Chinakam ma'nodagi so’z mulkining sultoni Alisher Na-voiyning so’z va o’tkir nutq, til va jamiyat borasidagi fikrlari alohida diqqatga molikdir. So’z dahosiga daho so’zchi sifatida adoqsiz ehtirom va inja sezgi bilan munosabatda bo’lgan adib o’z asarlarining aksariyatida, xususan, muhtasham "Xamsa"sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar)da, "Mahbub ul-qulub",

"Muhokamat ul-lug’atayn", "Nazm ul-javohir" va boshqa ko’plab asarlarida so’znipg buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan.

"Muhokamat ul-lug’atayn"da aytilishicha, so’z go’yoki bir durdir, durning doimiy makoni dengiz tubi bo’lsa, so’znipg muntazam makoni ko’ngildir. Dur g’avvos tarafidan dengiz tubidan chiqarilib, jilvalantirilsa va uning qiymati javhariga ko’ra baholansa, so’z sohibi ixtisos tomonidan ko’ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so’z qo’llash mahoratiga, uni jilvalantirish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Boshqacha aytganda, dengiz tubida harakatsiz imkoniyat tarzida turgan qimmatbaho durlar g’avvos tomonidan harakatga keltiriladi, ko’ngil tubida imkoniyat tarzida turgan sehrli so’zlar esa so’zlovchi tomonidan nutqiy jarayonga olib kiriladi va o’z jilvasini namoyon etadi. Alisher Navoiy bu fikrlarini davom ettirib yozadi: "So’z durrining tafovuti mundin dog’i beg’oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatrokdur. Andoqki, sharafidin o’lgan badang’a ruhi pok etar, kasifidin hayotliq tang’a zahri halok xosiyati zuhur etar.

Q i t ' a:

*So’z gavharedurki, rutbasining*

*Sharhidadur ahli nutq ojiz.*

*Andinki erur xasis muhlik,*

*Ko’rguzgucha durur Masih mo’'jiz.*

(Mazmuni: "So’z pgunday gavhardirki, martabasini aniq-lashdan nutq egalari ojizdir: martabasi — yomon so’zning halok qiluvchiligidan tortib, yaxshi so’z bilan Isoning mo’'jiza ko’rsatishiga (odam tirilitirishiga) qadar boradi")"

"Insonni so’z ayladi judo hayvondin" degan g’oyasining dalolati sifatida Alisher Navoiy nutq odobi, so’zga sohiblik, so’zning orqa-o’ngini va uning nutqdagi hamda muloqotdagi o’z o’rnini bilish kabi fazilatlarni inson axloqining tamallaridan biri deb hisoblagan, buni jamiyatga anglatish borasida ham amaliy, ham nazariy fikrlarni ilgari surgan. Ma'lumki, til tilsimining qudratini teran tasavvur etish va bu qudratni tugal ishga solish uchun muntazam mahorat va malaka talab qiladigan narsa tilning o’z mohiyatida mavjud. Til mohiyatan bitmas-tuganmas, cheksiz-chegarasiz ifoda imkoniyatlarining jamidir. Alisher Navoiy betakror iste'dodi quvvati bilan bu qudratni zanjirband qila olgan alloma sifatida ayni imkoniyatlarni ichdan ko’ra va ko’rsata bilgan. Shuning uchun ham u tildagi mavjud ifoda imkoniyatlaridan nutq vaziyati va maqsadiga eng muvofig’ini tanlash oson emasligini, so’zlovchi bu boradagi mahoratini oshirishga har vaqt e'tibor bilan qaramog’i shartligini ta'kidlagan.

Arablarda payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) zamonidan boshlaboq tilga e'tibor, nutq mahoratini egallashga da'vat kuchaygan. Xalifa Abdumalik notiqlik

san'atini etarli darajada bilmagan, arab tili go’zalligini namoyish eta olmagan kishi hokimiyatni boshqarishi mumkin emasligini ta'kidlagan. Shuning uchun o’g’li Validni ham bir necha marta klassik arab tilida to’g’ri gapira olmaganligi tufayli koyigan. Shunday qilib, jamiyatda va fanda katta nufuzga ega bo’lish uchun har bir shaxs o’z tilining boy imkoniyatlarini to’la egallashi va uni amaliy qo’llay olishi shart qilib qo’yilgan.

Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqning sodda, ravon va aniq bo’lishiga, nutqiy malakaning yuqori bo’lishi lozimligiga alohida e'tibor bergan. Uning xoh nazmiy bo’lsin, xoh nasriy bo’lsin, barcha asarlarida nafis nutqning nodir namunalarini ko’rib, huzurlanish mumkin. So’z va sarkardalik ilmining benazir bilimdoni bo’lgan Bobur o’z farzandlarining ham adib va arbob sifatidagi kamolini ko’zlab, ularning nutq san'atini egallashini, o’ta savodli inshoga ega bo’lishini eng jiddiy vazifa deb hisoblagan. Bobur o’g’li Humoyunga yozgan maktubida ayni shu vazifani yana bir bor eslatadi: "Xatingni xud tashvish bila o’qusa bo’ladur, vale asru mug’laqtur (juda chalkashdir). Nasri muammo hech kishi ko’rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotpi "to" (harfi) bila bitibsen, qulunjni "yo" (harfi) bila bitibsen, xatingni xud har tavr qilib o’qusa bo’ladur, vale bu mug’laq alfozingdin (chalkash so’zlaringdan) maqsud tamom mafhum bo’lmaydur (tushunilmaydi). G’olibo xat bitirda kohillig’ing (bo’shlig’ing) ham ushbu jihattindir. Takalluf (hashamat, bezak) qilay deysen, ul jihattin mug’laq bo’ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham senga tashvish ozroq bo’lur va ham o’qug’uvchig’a."

Ma'lumki, o’zbek tilidagi "nutq" va "notiq" so’zlarining asosi kelib chiqishi nuqtai nazaridan birdir. Nutq ustasining, nutqiy madaniyatni mukammal egallagan shaxsning nomi "notiq" bo’lib, Sharqda nutqqa ustalik an'anasi san'at darajasiga ko’tarilgan, "notiqlik san'ati" deb yuritilgan.

Albatta, notiqlik san'ati eng qadimgi san'at turlaridan biri sifatida dunyoning turli o’lkalarida turli darajada rivoj topdi. "Ko’plab ilmlarning beshigi bo’lgan qadimgi Yunoniston (Gretsiya) notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi. Shuni aytish kifoyaki, jahon ijtimoiy taraqqiyotining hech bir davrida, hech bir bosqichida notiqlik san'ati qadimgi Yunonistondagi kabi katta mavqe va professional barkamollikka erishganicha yo’q." Qadimgi yunon va Rim notiqlik san'ati maktabi Perikl (e.o. 500 - 429 yillar), Demosfen (taxminan e.o. 384 - 322 yillar), Sitseron (e.o. 106 -43 yillar) (uning "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo’lish kerak" degan gapi mashhur) kabi notikdik san'atining ko’plab nazariyotchi va amaliyotchilarini etkazib bergan. Shuni ham ta'kidlash joizki, Yunonistonda sivilizatsiya Turondagidan farkdi o’laroq, yuqorida aytib o’tilganiday, nafosat shaklida yuzaga kelganligi, ayni paytda o’sha davr yunon demokratik tartibotida nutqqa ayricha

e'tibor berilganligi bois yunon va Rim notiqlik san'ati Turon notiqlik san'ati (axloqqa asoslangan)dan muayyan jihatlari bilan farq qilishi tabiiy. Masalan, sharq notiqlik san'atida komil nutq sifatlarining boshida jamiyatdagi mavjud odobga uyg'unlik bosh o'rinni egallaydi.

"...Professional notiqlik san'ati Afinada va Rimda, O'rta Osiyoda va Hindistonda ham o'zining uzoq tarixiga ega. Bu san'atni maxsus o'qitish an'analari notiklik san'atining sarchashmalari bilan tutash bo'lmasa-da, har holda juda qadimiydir. Shunisi aniqki, Yunon, O'rta Osiyo va Hind tuprog'ida notiqlik san'ati asoslarini o'rgatuvchi mustaqil maktablar, professional ustodlar mavjud bo'lgan."

O'zbek — so'zning bebaho va muqaddasligiga hamma zamonlarda imon keltirgan, hech qachon o'z so'zidan tonmagan, lafziga munkir kelmagan, so'zni o'z farzandi kabi oq yuvib, oq taragan xalq. Shuning uchun ham o'zbek ajdodlar hikmatiga amal qilib, o'ynab gapirsa ham, o'ylab gapiradi. Hamisha qopib emas, topib gapirishning payidan bo'ladi. So'zga oshuftalik, nutqning latifligidan, undagi so'zlarning favqulodda uyg'unligidan zavqlanish, go'zal va ta'sirli nutq tuzishga ayricha havas, bunday san'at sohibiga hayrat bilan qarash o'zbeklarning azaliy urflaridandir. Aytilmoqchi bo'lgan fikrga mutlaqo mos libos kiydira bilish, so'z bilan tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt eta olish Sharqda, xususan, o'zbeklarda tarbiyalanganlikning, ma'rifatlilikning, ziyolilikning qabariq belgilaridan biri hisoblangan. Shuning uchun ham bizning ming yillik madaniyatimiz va ma'naviyatimiz tarixida notiqlik san'ati, voizlik san'ati, nutq odobi o'zining teran ildizlariga ega. Ayniqsa, notiqlik san'atining eng ommaviy turlari-dan biri bo'lmish voizlik, ya'ni va'z aytish san'ati islom madaniyatida juda katta ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy nufuzga ega bo'lgan. Va'z, asosan, diniy, pand-nasihat, hayotiy mazmundagi nutq bo'lib, ma'rifiy-targ'ibiy maqsadlarni ko'zda tutgan. Sharqning juda ko'p atoqli allomalari va'z va voiz tushunchalarini izohlab berganlar, voizning botiniy va zohiriy dunyosi qanday bo'lishi kerakligiga alohida to'xtalganlar. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asariping "Nasihat ahli va voizlar zikrida" degan faslida mana bunday fikrlarni bildirgan: "Voiz haq so'zni targ'ib qilishi, payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uping o'zi Haq va payg'ambar yo'liga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq - musofirni yo'ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi — uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir."

XII asrda Bahovuddin Valad, XIII asrda Jaloliddin Rumiy, XV asrda Husayn Voiz Koshifiy, Mu'iniddin Voiz, Voiz Xoraviy, Zayniddin Vosifiy, keyinroq Voiz Muhammad Rafi', Voiz Qazviniy, Mullo Kalon Voiz Samarqandiy, Qozi O'shiy kabi voizlik san'atini puxta egallagan so'z ustalari etishib chiqdilar.

Mahoratli voiz va voizlik san'atining ulkan bilimdoni Husayn Voiz Koshifiy turli fan sohalariga oid asarlar bilan bir qatorda "Futuvvatnomayi Sultoniy", "Axloqi Muhsiniy" kabi bir qancha kitoblar ham yaratganki, ularda axloq, nutq odobi va voizlik san'atining o’ziga xos siru sinoatlari batafsil bayon qilingan. Uning bu asarlari o’z davridayoq madrasalarda darslik sifatida qo’llanilgan. Voizlikning bir qancha ko’rinishlari ham mavjud bo’lgan: dabirlik, xotiblik, muzakkirlik kabi. Davlat ahamiyatiga molik yozishmalarni o’qib beradigan voizning faoliyati "dabirlik", juma namozlari, bayram va tantana kunlarida odob-axloq, islom qoidalariga oid masalalarni sharhlaydigan voizning faoliyati "xatiblik", tarixiy voqea-hodisalarni ommaga so’zlab berish bilan mashg’ul voizning amali esa "muzakkirlik" deb nomlangan.

Koshifiy nutqda so’zning o’rni, uni tanlashda voizning didi, nazokati, tinglovchining umumiy saviyasini hisobga olish zaruriyati, rost nutqning xosiyati, voizning surati va siyrati kabi masalalarga alohida e'tibor berish lozim-ligini ta'kidlagan. Juda katta ist'dodi va qamrovli bilimi bilan shoh Husayn Boyqaroning e'tibori, Alisher Navoiyning e'tirofiga sazovor bo’lib, davlat voizi sifatida nom qozongan Koshifiy va'z, uni tayyorlash va aytishda zarur bo’ladigan sifatlarning hech birini, kattasini ham, kichigini ham nazardan soqit qilmagan. U nutqni ta'sirchan va jozibador, aniq va ravon, maqsadli va jo’yali bo’lishida ovozning baland-pastligi, tovlanishlarining ahamiyati haqida gapirgan. Va'zxonning o’zini tutishi, tashqi qiyofasi, so’zlash tarzi, mimikasi, bosh, yuz, qo’l, umuman, tana harakatlarining nechog’lik muhimligiga diqqat qilgan.

Sharqda voizlik san'ati ko’zlangan maqsadga ko’ra xilma-xil ko’rinishlarda rivoj topgan, va'zlar mavzusiga ko’ra ham, tinglovchi ommaning maqomi va saviyasiga ko’ra ham o’ziga xosliklarga ega bo’lgan. Aytaylik, amaldor va zodagonlarga aytilgan va'z bilan askarlarga yoki avomga qaratilgan va'zlar, tabiiyki, bir-biridan farq qilgan. Albatta, Sharq allomalari voizning shaxsiyatiga ham favqulodda jiddiy munosabatda bo’lganlarki, bu holat ham bizda sivilizatsiyaning, aytib o’tilganiday, axloq shaklida yuzaga kelganligi bilan bog’likdir. Voizlik san'ati katta notiqlik iste'dodini va mahoratini talab etgan. Har kimga ham voizlik martabasi ishonilmagan, har kim ham xalq minbarida voizlik ma-qomiga muyassar bo’lolmagan. Voizlar bo’lganki, va'zxonlikni kasb darajasiga ko’targanlar, umrbod shug’ullanib, bu san'at sohasida kitoblar yozganlar, o’z nutklari bilan xalqqa ruhiy madadkor bo’lganlar, yo’lboshchilik qilganlar, podsholar huzurida ma'naviy homiylik maqomini tutganlar, ularni to’g’ri yo’lga boshqarganlar. Bunday voizlar piri komil bo’lganlar. Voizlar bo’lganki, ma'naviy komil bo’lmaganliklaridan, xalqning dilidagi gapni topib gapirolmaganlar, minbarni tepib, mushtlab, pirlik va nutq odobiga noloyiq harakatlar qilib, ommaning nazaridan qolganlar, minbarni tez tark etganlar. Bu o’rinda Alisher

Navoiyniig soxta, odobsiz, bilimsiz, hiylagar, o’zini o’zgacha ko’rsatishga intilgan voizlarga nisbatan qahru g’azabi ifodalangap "Ey voiz" g’azalini eslash o’rinlidir. Navoiy g’azalda soxta voizning basharasini shunday ko’rsatadi:

"Kecha ichmak mayu kunduz demak: "Ichmang ani",
Ko’z tut o’z holinga tafzihini bot, ey voiz.
O’zgacha bo’lmoqu o’zgacha o’zin ko’rsatmoq,
Ko’z tut o’z holinga tafzihini bot, ey voiz."

Allomalarimiz voizlik san'ati, nutq odobi, nutq zarofati haqida yozarkanlar, voizning, notiqning shaxsiyati va ma'naviyati, el-ulus o’rtasidagi obro’-e'tibori borasida ham, albatta, fikr aytadilar. Chunki Sharqda va'zning vazni va nufuzi faqat nutqning rasoligi bilangina emas, balki va'zxonning ma'naviy qiyofasi, shaxs sifatidagi komilligiga ko’ra ham baholangan.

Har qanday va'zning, nutqning bosh maqsadi muayyan bir fikrni boshqalarga etkazish, shu fikrni "yuqtirish", unga ishontirishdan iboratligi tabiiy. Shunday ekan, o’zi ishon-magan narsaga o’zgalarni ishontirishga urinish, eng kami, o’zining ham, o’zgalarning ham vaqtini isrof qilish yoki masxarabozlikdan, o’zini sharmanda qilishdan boshqa bir ish emas. Masalan, necha ming yillardirki, o’qituvchining oliy vazifasi yosh avlod shuuriga ikki yo’nalishdagi bilimlarni, ya'ni o’zi o’qitadigan fandagi ilmiy haqiqatlarni va ayni paytda jamiyatda qaror topgan ma'naviy qadriyatlarni olib kirishdyr. Tabiiyki, o’qituvchi uchun madaniy va raso nutq malakasiga monand tuzilgan nutq eng birlamchi qurol, bu qurolni hech narsa bilan almashtirib bo’lmaydi. Ammo pguni ham unutmaslik lozimki, o’qituvchi nechog’lik so’zga chechan, nutqiy mahorati yuksak bo’lmasin, agar o’quvchiga anglatishi lozim bo’lgan muayyan fikrni, aytaylik, Amir Temurning jahon tarixidagi muhtasham o’rni yoki Otabek xarakteridagi go’zal fazilatlarni teran idrok etib, unga ishonmasa va bu ishonch ham so’zida, ham butun qiyofatida namoyon bo’lmasa, o’qituvchining gapiga bola, o’laqolsa, ishonmaydi. Qaysi fan bo’lishidan qat'i nazar, fizika, matematika yoki ximiya bo’ladimi, tarix, ona tili yoki adabiyot bo’ladimi, baribir, bu fanlardagi ilmiy haqiqatlarni o’qituvchi nafaqat chuqur bilishi, balki ularga tamoman ishonishi lozim, aks holda bu haqiqatlar o’quvchi ongidan muqim joy ololmaydi. Bu masalaning, albatta, bir tomoni. Jamiyatdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o’quvchilar ongiga singdirish masalasiga kelganda esa o’qituvchining ma'naviy dunyosi, bu qadriyatlarga sadoqati va ishonchi mutlaqo hal qiluvchi rol o’ynadi. Agar o’qituvchi qalbida ana shu ishonch tirik va sobit bo’lmasa, dili bilan tili tamoman bir bo’lmasa, uning o’quvchi bilan muloqoti bir pullik qimmatga ega emas. Ishonmasdan hech qachon ishontirib bo’lmasligi eski haqiqat. O’qituvchi o’zi qadrlamagan qadriyatni, o’zi e'zozlamagan e'tiqodni, o’zi qilmagan ezgu amallar istagini o’quvchi shuurida barqaror qila olmaydi. Aksincha, bunday o’qituvchi

soxtakorligi tufayli ana shunday go’zal tushunchalardan o’quvchining ixlosini qaytarishi aniq.

Qariyb uch ming yildan beri yashab kelayottan muhtasham yozma yodgorligimiz "Avesto"da qobiliyatsiz, yomon o’qituvchi haqida mana bunday deyilgan: "Rostini aytsam, yomon ustod hayotni g’amgin qiladi, johillarni ulug’ sanab, buyuk ayolu erkaklarni Yazdon ne'matlariga etishishdan mahrum etadi. Ular o’z nodurust ta'limi bilan xalqni eng yaxshi yumush-lardan bezdiradilar, noto’g’ri pandlar bilan xalqni tirik-chilik yo’lidan urib, yomon yo’lga boshlaydilar... Hayot chirog’ini so’ndiradilar. Johillarni buyuk bilib, eng mo’'tabar ayolu erkaklarni Tangri yo’lidan qaytaradilar. O’z nodonliklari bilan xalqni eng yaxshi xislatlardan yuz o’girtira-dilar, jahon xalqlari hayotini yolg’on so’zlar bilan parishon qiladilar". Kitobning boshqa bir o’rnida Zardushtning mana bu tarzdagi iltijosi ham bor: "Noshud, yomon muallim o’quvchi qalbida xiradmandlikni yo’qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustoddan o’z panohingda asra!"

Shuning uchun ham qadimdan Sharqda notiqlik, voizlikning bevosita asosi til, nutq bo’lsa, yana bir asosi nutq egasining axloqi, ma'naviy-ma'rifiy kamoloti deb qaralgan.

Tariximizda go’zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo’lib kelgan. XX asr boshlariga kelib, Mahmudxo’ja Behbudiy (1815-1919), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Ashurali Zohiriy (1885-1937) kabi bir qator ma'rifat darg’alari ona tilimiz muhofazasi va rivoji, sofligi va nafosati, nafis nutq sezgisi haqida jiddiy qarashlarni ilgari surganlar.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi deb e'tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, o’qituvchilarning nutqiy madaniyat mahorati, farzandlarimizning madaniy nutq ko’nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini etarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarb.

Milliy hamiyat, umuminsoniy qadriyat va milliy o’zlik idrokining barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy g’urur va iftixor, Vatanga teran muhabbat va istiqlolga adoqsiz sadoqat kabi ma'naviy kamolotning o’zagini tayin etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur ham etib bo’lmaydi. Shuning uchun ham alloma ajdodlarimiz tilni ana shu mo’'tabar tushunchalarni inson shuuriga muhrlamoqning eng ta'sirchan vositasi deb bilganlar. Bu vositadan unumli va o’rinli foydalanmoq uchun, avvalo, insonda til tuyg’usi tarbiyasi tugal bo’lishi, ya'ni ona tilining mohiyatini faqat aql bilangina emas, balki ichki hissiy

sezgi bilan ham idrok etish ustuvorlashishi lozim. Ayni paytda tilday sehrli dunyoning cheksiz-chegarasiz ifoda imkoniyatlarini tasavvur etish va nutqda ulardan maqsadga eng muvofiqlarini saralab foydalana bilish malakalarini tarkib toptirish va muntazamlashtirish benihoya muhim masaladir. Ona tilini bilish, ona tilida sobitlikning o’ziyoq ta'kidlangan mo’'tabar tushunchalar uchun poydor poydevor ekanligi tabiiy. Ona tilida go’zal va ravon nutq tuza bilish, bejirim va betakror, rangin va zangin nugkdan huzurlanish va shunday madaniy nutq bilan boshqalarga ta'sir etish, yosh avlod qalbining qulfini ochib, mazkur tushunchalarni ular-ning o’ziniki qildirish, ayniqsa, o’qituvchi uchun birinchi darajali talablardandir.

***Savollar:***

1. Kaykovus nutq madaniyati haqida fikrlarini ayting.
2. Qadimgi Yunonistonda notiqlik san’ati haqida qanday qarashlar bo’lgan.
3. Siseronning notiqlik haqida qanday asari mavjud.
4. Alisher Navoiy chiroyli so’zlash, so’zning sehrli kuchi haqida yozgan she’rlaridan keltiring.

**Asosiy darsliklar va qo’shimcha o‘quv qo‘llanmalar**

***Adabiyotlar:***


10. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
11. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b
12. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b
13. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.
14. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
15. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.
16. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

## 3-mavzu. Antik davr notiqlari.

**Reja:**

**Nazariy mavzu asosidagi amaliy mashg‘ulot**: **“Antik davr notiqlari”**

Leksik mavzu: Aristotelning notiqlik san’atiga bag‘ishlab yozilgan asarlari tahlili. Matn.

**Maqsadlar:**

1. Rezidentlarga nutq madaniyatini oshirish va uni rivojlantirish masalalari to‘g‘risida chuqur ma’lumot berish, Antik davr notiqlarining til va nutqqa bo‘lgan qarashlari, nazariy fikrlari, notiqlik san’ati turlarining o‘rni va ahamiyatiga oid namunalar bilan ishlash;
2. Notiqlik mahoratining turlari va ko‘rinishlari tavsifini o‘rganish, ularni tahlil qilish, ular yuzasidan ijodiy topshiriqlarni bajarish;
3. Og‘zaki ma’ulomot yozishga tavsiya qilingan mavzuga oid matnini gapirib berish, nutq madaniyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan mashqlarni bajarish, nutq turlarini tavsifi yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, tavsiya etilgan mavzuga oid dialogni dialogni o‘tkazish uchun etiketning kerakli formulalarini keltirish.
4. O‘zlari uchun ifodali va ta’sirchan nutq yarata olish texnikasini ishlab chiqish, professional leksikaning o‘ziga xosliklari haqida fikrlarini bildirish;
5. Oxirgi paytlarda o‘qigan badiiy asarlarining voqealari, qahramonlarning nutqiy tavsifi (nutqidan parchalar keltirish) haqida ma’lumot berish.

**Vazifalari:**

1. Nutq madaniyatini o‘stirishga oid Yevropa mutafakkirlarining qarashlarini o‘rganish, savollariga mustaqil javob bera olish, matndagi asosiy fikrni gapirib berish, tibbiyot xodimining nutqini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berish;
2. Notiqona so‘zlashning oddiy kundalik-maishiy nutqdan farqli tomonlari, diplomatik nutq bilan akademik nutqning va boshqa nutq ko‘rinishlarining o‘ziga xosliklari ustida ishlash;
3. Nutq ko‘rinishlarining nutq vaziyati bilan bog‘liqligini misollar orqali tushuntirish malakasini hosil qilish;
4. Berilgan topshiriqlarni o‘z fikrlari asosida to‘ldirish va amaliy faoliyatida ishlatish;
5. “Notiqlik san’atining rivojlanish bosqichlari” mavzusida og‘zaki ma’lumot berish.

Rezidentlarga mavzuni o‘rgatishda nutq madaniyatini o‘stirish usullari va metodlarini o‘rgatish, ularning nutq ko‘rinishlari asosida kasbiy leksikalarini oshirib, yangilab borishga diqqatni qaratish lozim. Antik davr notiqlik madaniyatida nutq turlari va ko‘rinishlarining o‘rni va ahamiyatini atroflicha tushuntirishni hisobga olish shart.

Masalan: Ertangi mutaxassis nafaqat hayotdan, balki o‘zining atrofidagi yaqinlari, ustozlari, rahbarlari, jami faoliyatlar jarayoni, jami borliq, turfa xil voqeliklardan tinmay ilm olib, fazilat o‘rganib mukammallashib boradi.

**Antik davr notiqlarining til va nutq hamda so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash mahorati xususida bildirgan fikrlari va qarashlari asosida ma’lumotlar berish. Shu asosda fikringizni bildiring.**

**Quyidagi vaziyatli masallarni mustaqil fikrlaringizdan foydalanib hal qilishda qatnashing:**

**1. Suhbatdoshning so‘zini bo‘lish texnikasi**

Agar suhbatdoshingiz doimiy ravishda so‘zingizni bo‘lsa. Sizning xulqingiz harakatlari: pauza (to‘xtam) qiling-da, siz o‘z fikrlaringizni davom ettirish yoki ettirmasligingizni so‘rang.

**2. Ilmiy texnika**

Suhbatdoshingiz ulug‘larning fikrlarini ishlatib, ularni keltiryapti. Yana yomonrog‘i u maqsadli ravishda noto‘g‘ri qo‘llab, sizdan nimanidir boshqachaligini so‘rayapti. Lekin alohida shaxslar-ning hamma fikrlarining aniqligini kim ham bilardi? Sizning xulqingiz harakatlari: siz ham o‘zingizga tanish sitatalarni keltiring. Bu maqsadda iloji bo‘lsa, oldindan suhbatning har qanday mavzusiga to‘g‘ri keladigan bir nechta sitatalarni tayyorlab qo‘ying. Bunda siz suxbatdo-shingizdan aynan shu sitatalarni eshitishni xohla-ganingizni aytishingiz mumkin.

**Dialogni o‘qing va uni qaysi vaziyatda qo‘llanilishini aniqlang:**

- Assalomu alaykum!

- Vaalaykum assalom!

- Sizning ko‘rinishingiz juda ajoyib!

-Unday demang! Siz menga xushomad qilyapsiz!

- Hecham-da! Bu ko‘ylak esa yuzingizni ochibdi!

- Rahmat! Siz har doim samimiysiz!

**Nazorat uchun savollar:**

1. Nutq madaniyatini oshirish yo‘llari va uni rivojlantirish muammolari haqida gapirib bering.

2. Yevropada notiqlik san’atining paydo bo‘lishi, tarixiy – madaniy shart-sharoitlari xususida ma’lumot bering.

3. Yevropada notiqlik san’atiga hissa qo‘shgan mutafakkirlar va ularning faoliyatiga oid ma’lumotlar bering.

3. Antik davr notiqlarining qarashlari va so‘zni qo‘llash mahorati xususida to‘xtalib o‘ting.

4. Notiqona so‘zlash mahoratini shakllantirish omillari xususida ma’lumot bering?

5.Aristotel, Demosfen, Lisiy, Sitseronlarning notiqlik mahoratlari va o‘ziga xos uslublari xususida to‘xtaling?

6. Sud notiqligining rivojlanish bosqichlari xususida ma’lumotlar bering.

***Adabiyotlar:***


1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b
3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b
4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.
5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.
7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.
9. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., “O`qituvchi”, 1995.

## 4 –mavzu. “Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari”

**Reja:**

1. Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari ”
2. Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidagi «Hirot» sahnasi. Matn.

Tayanch tushunchalar: ritorika, nutq, madaniyat, kommunikatsiya, xalq og’zaki ijodi.

**Xalq og‘zaki ijodi – so‘z san’ati -** Xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati ekanligini tushunishdan avval san’atning o‘zi nimaligini bilish lozim. 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (3-jild. 442-b): “San’at” [صنعت] - ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko‘rsatilgan. Agar izohdagi so‘zlarga e’tibor bersak, san’at deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni tushunish anglashiladi. San’atni mahoratsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ustozlarimiz “San’at – inson aqlu zakovatining buyuk kashfiyotidir” deyishdan toliqmasdilar. Ayni paytda, “San’at mahoratning eng oliy darajasida vujudga keladi” degan gapni ham ko‘p takrorlar edilar. Haqiqatan ham, san’atni tushunish san’atni yaratishdek murakkab ekanini bilishimiz kerak. Ayniqsa, filologiya, jurnalistika, tarix, falsafa kabi soha egalari san’atni tushunish, to‘g‘rirog‘i, his qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari alohida fazilatdir. Odatda maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan odamlar oddiy tasvirlarni san’at asari deb tushunadilar. Masalan, magazinlarning old qismidagi reklama maqsadida namoyish qilinadigan rasmlar: kostyum kiygan yigitlar, ko‘ylakli qizlar, nonlarning turli xillari, kiyim-kechaklar tasvirlari va hokazolar. Aslida bularning birontasi san’at asari hisoblanmaydi. Hatto buyuk rassomlar ishlagan tasviriy san’at asarlaridan olingan nusxalar – kopiyalar ham san’at asari bo‘lmaydi. Haddan tashqari chiroyli bezaklangan choynak, piyola, laganlar minglab nusxalarda sotiladi, ular san’at asari hisoblanmaydi. Chunki san’at asarlari san’atkor tomonidan mahorat bilan yaratilishi shart. Shuning uchun san’at asarlari faqat san’atkor yaratgan yagona nushadabo‘ladi.

Ma’lumki, san’atning naqsh, musiqa, haykaltaroshlik, ganchkorlik, o‘ymakorlik, raqs, badiiy adabiyot kabi o‘nlab turlari bor. Ularning har biri o‘z quroliga ega. Ammo ayrim imoratlar oldidagi savlat to‘kib o‘tirgan sherlar, raqs guruhlarida chetda turgan rahbariga qarab harakat qilayotgan raqqosalar, ma’nosiz qofiyalangan she’rlarning san’atga hech qanday aloqasi yo‘q. Chunki qayd etilgan vaziyatlardagi “san’at” asarlari bizda hech qanday hayrat tuyg‘usini uyg‘otmaydi. Haqiqiy san’at asari bilan muomalada bo‘lganimizda esa ruhiyatimizda muayyan

hissiy o‘zgarishlarni sezamiz. San’at asari odamda inson iqtidori, mahorati, aqli, zakovati, o‘ziga xos kashfiyoti bilan mazkur asarga nisbatan hayrat, qoyil qolish tuyg‘usini uyg‘otishi kerak. Aynan shu fazilati bilan san’at namunasi ruhiyatimizni boshqaradi.

San’at asarining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning qadri, bahosi hech qachon hajm, son, miqdor bilan o‘lchanmaydi. O‘nlab tasviriy san’at namunasini yaratish, qo‘shiq aytish, badiiy asarlar yozish mumkin. Ammo ularning mualliflarini tanimasligimiz, yodimizda saqlamasligimiz ham mumkin. Biroq ba’zan bor yo‘g‘i bitta san’at asarini ijod qilish bilan xalq madaniyati xazinasidan munosib o‘ringa ega bo‘lingan, tarixda iz qoldirilgan. Chunki san’at o‘lchovi mahorat darajasining yuksakligi, badiiylikning mukammalligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, san’at haqidagi asosiy ma’lumotga ega bo‘ldik. Endi bevosita xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati namunasi ekanini bilishga urinamiz.

Rezidentlarga mavzuni o‘rgatishda nutq madaniyatini o‘stirish usullari va metodlarini o‘rgatish, ularning nutq ko‘rinishlari asosida kasbiy leksikalarini oshirib, yangilab borishga diqqatni qaratish lozim. Voizlik madaniyatida nutq turlari va ko‘rinishlarining o‘rni va ahamiyatini atroflicha tushuntirishni hisobga olish shart.

Masalan: Ertangi mutaxassis nafaqat hayotdan, balki o‘zining atrofidagi yaqinlari, ustozlari, rahbarlari, jami faoliyatlar jarayoni, jami borliq, turfa xil voqeliklardan tinmay ilm olib, fazilat o‘rganib mukammallashib boradi.

**Maqsadlar:**

1. Rezidentlarga nutq madaniyatini oshirish va uni rivojlantirish masalalari to‘g‘risida chuqur ma’lumot berish, voizlik madaniyatida notiqlik san’ati turlarining o‘rni va ahamiyatiga oid namunalar bilan ishlash;
2. Notiqlik mahoratining turlari va ko‘rinishlari tavsifini o‘rganish, ularni tahlil qilish, ular yuzasidan ijodiy topshiriqlarni bajarish;
3. Og‘zaki ma’ulomot yozishga tavsiya qilingan mavzuga oid matnini gapirib berish, nutq madaniyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan mashqlarni bajarish, nutq turlarini tavsifi yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, tavsiya etilgan mavzuga oid dialogni  dialogni o‘tkazish uchun etiketning kerakli formulalarini keltirish.
4. O‘zlari uchun ifodali va ta’sirchan nutq yarata olish texnikasini ishlab chiqish, professional leksikaning o‘ziga xosliklari haqida fikrlarini bildirish;
5. Oxirgi paytlarda o‘qigan badiiy asarlarining voqealari, qahramonlarning nutqiy tavsifi (nutqidan parchalar keltirish) haqida ma’lumot berish.

**Vazifalari:**

1. Nutq madaniyatini o‘stirishga oid SHarq mutafakkirlarining qarashlarini o‘rganish, savollariga mustaqil javob bera olish, matndagi asosiy fikrni gapirib berish, tibbiyot xodimining nutqini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berish;

2. Notiqona so‘zlashning oddiy kundalik-maishiy nutqdan farqli tomonlari, diplomatik nutq bilan akademik nutqning va boshqa nutq ko‘rinishlarining o‘ziga xosliklari ustida ishlash;

3. Nutq ko‘rinishlarining nutq vaziyati bilan bog‘-liqligini misollar orqali tushuntirish malakasini hosil qilish;

4. Berilgan topshiriqlarni o‘z fikrlari asosida to‘ldirish va amaliy faoliyatida ishlatish.

**Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidan olingan matn asosida «iste’dodlar» haqidagi fikringizni bildiring.**

**Xondamir:**

**-** Biz safardan qaytsak yoki Hazratga 1-2 kun ko‘rinmasak, «Qani, xo‘sh qanday ajoyib iste’dod uchratdingiz?» – deb so‘rar edilar. Nodir iste’dodlarning ba’zilari 15-16 yoshli o‘spirinlar bo‘lardilar. Alisherbek «bo‘ladigan bola 15 yoshidan ham bosh bo‘lur, deb topilgan iste’dodni huzurlariga chorlar edilar. Sohib Doro iste’dodli shoir Zayniddin Vosifiiyni 15 yoshlarida Hazrat Mirning huzuriga keltirgandilar. Sahovatlaridan bahramand bo‘lgan bu shoir Hirotda mashhur bo‘ldi. Ulug‘ musavvir Kamoliddin Behzod, shoir Hiloliy, hattot Sulton Ali Mashhadiy ham Hazrat Alisher kashf etgan noyob iste’dodlardir. Hozirgi Hirot keyingi 30-40 yil ichida oldingidan 10 barobar go‘zalroq, ulug‘vorroq bo‘lib ketganini barcha fozil kishilar ham ayturlar.

**Bobur**:

-So‘zingiz chin, Mavlono. Men ko‘rgan Rub’i makunda Hirotdek shahar yo‘qdur!

**Sohib Doro:**

**-**Amirzodam, bugungi Hirotni shunchalik go‘zal, shunchalik mashhur qilgan – el-ulus orasidan chiqqan iste’dodlar emasmi?

**Bobur**:

-Rost! Ko‘z oldimizda turgan barcha nodir obidalar - ulug‘ iste’dodlar xazinasidan chiqqan gavharlardir.

**Quyidagi vaziyatli masallarni mustaqil fikrlaringizdan foydalanib hal qilishda qatnashing:**

**1. Suhbatdoshning so‘zini bo‘lish texnikasi**

Agar suhbatdoshingiz doimiy ravishda so‘zing-izni bo‘lsa. Sizning xulqingiz harakatlari: pauza (to‘xtam) qiling-da, siz o‘z fikrlaringizni davom ettirish yoki ettirmasligingizni so‘rang.

**2. Ilmiy texnika**

Suhbatdoshingiz ulug‘larning fikrlarini ishla-tib, ularni keltiryapti. Yana yomonrog‘i u maqsadli ravishda noto‘g‘ri qo‘llab, sizdan nimanidir boshqachaligini so‘rayapti. Lekin alohida shaxslar-ning hamma fikrlarining aniqligini kim ham bilardi? Sizning xulqingiz harakatlari: siz ham o‘zingizga tanish sitatalarni keltiring. Bu maqsadda iloji bo‘lsa, oldindan suhbatning har qanday mavzusiga to‘g‘ri keladigan bir nechta sitatalarni tayyorlab qo‘ying. Bunda siz suxbatdo-shingizdan aynan shu sitatalarni eshitishni xohla-ganingizni aytishingiz mumkin.

**Dialogni o‘qing va uni qaysi vaziyatda qo‘llanilishini aniqlang:**

- Assalomu alaykum!
- Vaalaykum assalom!
- Sizning ko‘rinishingiz juda ajoyib!

-Unday demang! Siz menga xushomad qilyapsiz!

- Hecham-da! Bu ko‘ylak esa yuzingizni ochibdi!
- Rahmat! Siz har doim samimiysiz!

**Nazorat uchun savollar:**

1.Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari  haqida gapirib bering.

2. Voizlik san’atiga hissa qo‘shgan sharq mutafakkirlarining faoliyati va ilmiy merosi xususida ma’lumot bering. Xusayn voiz Koshifiy adabiy merosi va uning notiq mahorati haqida gapirib bering.

3. Voizlik madaniyatida  notiqlik san’ati turlarining o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.

3. Notiqlik mahoratining turlari va ko‘rinish-larini tavsiflab bering.

4. Voiz va va’z tushunchalari nimalari bilan farqlanadi?

5. Sharq mutafakkirlarining notiqlik san’atiga va tilga, so‘zlashish madaniyatiga oid qarashlari va hikmatli so‘zlari haqida ma’lumot bering?

## Asosiy darsliklar va qo’shimcha o‘quv qo‘llanmalar

***Adabiyotlar:***


1. Sh.M.Mirziyoyev  “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b

3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b
4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.

5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.
7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.
9. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., “O`qituvchi”, 1995.

## 6-mavzu. Nutqning ifoda-tasviriy vositalari va o‘zbek adabiy tili me’yori (normasi).

**Reja:**

1. Nutqning to`g`riligi
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyligi.
4. Nutqning sofligi.
5. Nutqning ta’sirchanligi.

**Tayanch iboralar:**

Adabiy til me’yorlari, talaffuz me’yorlari, morfologik me’yorlar, lug`aviy me’yorlar, nutqning mantiqiyligi, nutqning sofligi, nutqning ta’sirchanligi.

Nutq so`zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko`rinishi bo`lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo`lgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga to`liq yetib borishi, ularga ma’lum ta’sir o`tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko`ra nutq oldiga ma’lum

talablar qo`yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to`g`ri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq bo`lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb qaraladi.

## 1. Nutqning to`g`riligi.

Nutqning to`g`riligi uning adabiy tili me'yorlariga muvofiq kelishidir. Bunda quyidagi me'yorlar hisobga olinadi.:

a) talaffuz me'yorlari:

Unli va undosh talaffuzi, so`z tarkibidagi qo`sh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgili so`zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo`shma fe'llar, so`z birikmalari, morfologik ko`rsatkichlar, so`z yasovchi forma yasovchi qo`shimchalar talaffuzlari.

b) morfologik me'yorlar:

Adabiy til dialect va shevalardan o`z morfologik me'yorlariga ko`ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda sozlarning kelishiklarda turlanishi, fe'llarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so`z va so`z shakllarining yasalish xususiyatlarida ko`ramiz.

v) sintaktik me'yorlar:

Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo`laklarning ularga bog`lanish qonuniyatlari.

g) imloviy me'yorlar:

Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me'yorlariga tayanadi. Bu me'yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida o`z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me'yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

d) lug`aviy me'yorlar:

Har bir xalq tili o`sha millat a'zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo`lgan so`z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo`lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so`zlashuv tili esa adabiy tilda qo`llanuvchi so`zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko`ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so`zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha sozlar adabiy tilda qo`llanilavermaydi.

## 2. Nutqning aniqligi.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo`lgan materiali o`rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

a) sinonimlardan o`rinli foydalanish;
b) antonimlardan to`g`ri foydalanish;
c) ko`chma ma'noli so`zlarni o`rinli qo`llash;
d) so`z birikmalarini to`g`ri qo`llash;
e) iboralarni to`g`ri qo`llash;

O`qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o`rinni egallaydi. Ular o`quvchi bilimining dunyoqarashining bilishi hisoblanadi.

Fan sifatida o`zbek tilshunosligi ham boy atamalarga ega. Ularning bir qismi tilshunos olimlarimiz tomonidan ijod qilingan bu bir qismi boshqa tillardan to`g`ri yoki kalkalash (nusxa olish) orqali qabul qilingandir.

XX asrda xalqaro ilmiy aloqalar nihoyatda ravnaq topdi. Ayni til hodisasi bir necha atama bilan izohlanadigan holatlar nihoyatda ko`paydi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G`arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel "Agar nutq noaniq bo`lsa, u maqsadga erishmaydi" degan bo`lsa, Kaykovus: "Ey, farzand, so`zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so`zlaganda ma'noli gapir, notiqlikning alomatidir". Agar gapirgan vaqtingda so`zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e'tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar.

O`zbek adabiy tili og`zaki nutq texnikasini rivojiga o`zbek madaniyatining atoqli namoyondalari – shoirlar, yozuvchilar. Can'atkorlar, aktyorlar katta hissa qo`shadilar..

Yozma nutq texnikasi o`z mohiyatiga ko`ra ikki turga bo`linadi.

1. Har qanday yozma nutq uchun zarur bo`lgan texnik xususiyatlar.

"Nutqning aniqligi so`zning narsa va hodisalardan aks etgan borliq belgilari bilan qat'iy mos kelinishidir". Deydi rus tilshunosi V.N.Golovin.

Aniqlik ikki xil bo`ladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nusxa mazmunining munosabatida ko`riladi. Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan bo`lsa, bunday nutq aniq hisoblanadi.

Nutqning har tomonlama to`g`rib o`lishi uchun narsa aniqligining o`zi yetarli emas. Tushunchaviy aniqlik ham bo`lishi zarur. A.Qahhor “Men yozilgan sahifani hatto jumlani ham ustidan tuzata olmayman. Jumla hatto butun bir sahifaning bir so`zini o`chirib, o`rniga, boshqasini yozish uchun boshqa qog`ozga o`sha jumla, hatto sahifani ko`chirib yozaman. Nutq bilan qilingan mehnat dard va quvonchni yuzaga chiqara oladi” – degan edi.

Aniq nutq yaratish so`zlovchidan quyidagilarni o`rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo`llash.
b) Nutqda ishlatiladigan so`zning otlashgan ma’nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo`llashlardan qochish; chunki batayn soz qo`llash nutqni beburd qiladi;
c) So`zning ko`p ma’noliligiga jiddiy e’tibor berish, ko`p ma’noni soz nutqda qo`llanganda o`zining qaysi ma’noda ishlatilayotganligini aniq tasavvur qilish, fikr yuzaga chiqishida bu so`zning boshqa ma’no qirralari mon’elik qilish-qilmasligini ko`z oldiga keltirish; omonimlarning xususiyatlarini adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazishidir. O`qituvchining tili hamma vaqt o`zbek adabiy tili normalarga sodiq qoladi, adabiy tilning go`zal va ta’sirchanligini o`zida saqlaydi. Adabiy til ma’lum qo`shimchalar, Grammatik kategoriyalarni qo`llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo`zbek harakatlarida bo`ladi. Shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi.

### 3. Nutqning mantiqiyligi.

Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo`lgan, har bir so`z, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to`g`rilik va aniqlik bilan chambarchas bog`liqdir. Grammatik jihatdan to`g`ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto`g`ri tanlangan lug`aviy birlik ham mantiqiylikni buzadi. Mantiqiy izchillkining buzilishi tinglovchi va o`quvchiga ifodalanayotgan fikrning to`liq borib yetmasligiga, ba’zan, umuman, anglashmasligiga olib kelishi mumkin.

Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so`zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog`liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo`yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir.

So`zlarning o`zi ifodalanayotgan narsa-hodisalarga mos ravishda fikrning aniq ifodalanishi narsa mantiqiyligi bo`lsa, soz birikmalari, gaplar, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo`ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir.

*Mantiqiylik shartlari:*

a) tushunchalar mantiqiyligiga rioya qilish;
b) uslubiy me'yorga amal qilish;
c) leksik-semantik va sintaktik me'yorga rioya qilish.

Mantiqiyligiga putur yetgan gaplarga misollar:

- Olti oylik davlatga sut sotish rejasi bajarildi.
- U bir kitobga 5 so`mdan qo`yib sotmoqda.
- Akulalar tirik bola tug`adi.
- Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi.

O`qituvchi nutqining mantiqiyligi. Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrning o`zaro mutanosibligi mantiqiyligi deb yuritiladi.

Mantiqli nutqda gaplardan fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi. Ular orasida ziddiyat bo`lmaydi.

Mantiqiylik aniqlikka suyanadi. Noaniq nutq mantiqiy bo`la olmaydi. Nutqda mantiqlikka erishish uchun unda qo`llangan so`zlar bilan ularning predmetlik ma'nolari mos bo`lishi lozim.

So`zlar qat'iy aniqlikda qo`llanganda ham mantiqlik buzilishi mumkin, chunki aniqlik leksik nutq bilan mantiqiylik sintaktik qurilishi bilan bog`langandir. Mantiqiylikning predmet mantiqiyligi va tushuncha mantiqiyligi deb ikkiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyligi nutqda til birliklarining o`zaro ichki munosabatlari mosligidan iborat.

Tushuncha mantiqiyligi mantiqiy fikr tuzilishi hamda bu tuzilishning nutqdagi til belgilari ma'no aloqalaridan iborat.

Mantiqiylikni ta'minlash 2 shartga asoslanadi. Birinchisi, ekstrolingvistik shart. Bu shart to`g`ri mulohaza qilishning normalari va printsiplarini egallashni taqozo etadi. To`g`ri nutq uchun kurashuvchi eng avvalo, mantiqiy fikrlashni o`rganishi lozim.

Ikkinchi shart sof lingvistik bo`lib, nutqiy tuzilish belgining bir-biriga zid bo`lmasligini, mazmuniy bog`liqligini uyushtiruvchi til vositalarini bilishni talab qiladi.

**4. Nutqning sofligi.**

G`ayri adabiy til unsurlaridan holi bo`lgan nutq sof nutq deyiladi.

Nutqning sofligiga quyidagilar putur yetkazadi:

a) dialektalizmlar;
b) g`ayri tildan olingan so`zlar;
c) jargon va argolar;
d) vulgarizmlar;
e) parazit so`zlar.

**5. Nutqning ta'sirchanligi.**

Tinglovchi va o`quvchi ruhida o`zgarish, hayajon yasovchi nutq ta'sirchan nutq deyiladi. Bunday nutq oldiga quyidagi talablar qo`yiladi:

a) tinglovchi e'tiborini tortish;
b) tinglovchi qiziqishini oshirish;
c) nutq dalil, isbot misollarning yetarli bo`lishini ta'minlash;
d) fikrni bayon etishda qiziqarli shakllardan foydalanish;
e) so`zlashda tabiiylikka erishish.

*Nazorat savollari.*

1. Nutqning asosiy xususiyatlari qaysilar?
2. Adabiy til me'yorlari haqida gapiring.
3. Nutqning aniqligi deb nimaga aytamiz?
4. Nutqning mantiqiyligi nima?
5. Nutqning sofligiga nimalar putur yetkazadi?
6. Fikrni bayon etishda qanday qiziqarli shakllardan foydalanish mumkin?

*Adabiyotlar:*

1. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-47b
3. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-485b

***4.*** R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyoti asoslari. T., "O`qituvchi", 1992.

5.. E.A.Begmatov. Notiqning nodir boyligi. T., "O`zbekiston", 1980.

6.. H.Abdurahmonov, N,Mahmudov. So`z etikasi. T., "Fan", 1981 y.

7.. N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

## 7-mavzu. Tibbiyot xodimining nutqiy madaniyati va uslubshunoslik

**R e j a:**

1. So`zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub.
4. Publisistik uslub.
5. Badiiy uslub.

*Tayanch iboralar.*

Funktsional uslublar, adabiy so`zlashuv uslubi, oddiy so`zlashuv uslubi, rasmiy uslub xususiyatlari, ilmiy uslub xususiyatlari, publitsistik uslub, badiiy uslub.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, Grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqda xilma xil ko`rinishlarning paydo bo`lishiga olib keladi. Bunday xilma-xil nutq ko`rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi.

Nutq uslublari ifoda vositalari tizimining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko`rinishlaridir.

Nutq uslublari tilning vazifasi – funktsiyasi bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Shuning uchun ham ular funktsional uslublar deb yuritiladi.

### 4. Og`zaki nutq uslubi

Og`zaki nutq, ma’lum bir modal munosabatlarni ifodalash uchun asos bo`lsa, uslub fanining ob’yekti bo`ladi. Bu holat – gap bo’laklari tartibining “buzilishi” bilan, soda gap, to`liqsiz gaplarning bo`lishi, dialog nutqning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Shunisi xarakterliki, og`zaki nutqning ba’zi shakllari yozma nutqda o`z o`rnini topadi: (keluvdi, kelardi). Og`zaki nutq uslubida qisqa hajmli bog`lovchisiz qo`shma gaplar ko`p ishlatiladi, badiiy vositalar kam qo`llaniladi. Ayniqsa, ko`p ma’noli so`zlar ko`proq ishtirok etadi. Og`zaki nutqda qochirma, piching, hazil-mutoiba, askiya uchun keng imkoniyat mavjud bo`ladi. Og`zaki nutq rasmiy – ish yuritish va ilmiy uslubda qo`llanilmaydi.

Og`zaki so`zlashuv uslubi ikkiga ajratiladi:

1. Adabiy so`zlashuv uslubi
2. Oddiy so`zlashuv uslubi.

Adabiy so`zlashuv uslubi tilning adabiy me’yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo`lishi bilan xarakterlanadi.

Oddiy so`zlashuv uslubida esa betakalluflik bilan erkin muomala – aloqa qilish xarakterli xususiyatdir.

So`zlashuv uslubning quyidagi xususiyatlari bor:

1. Fonetik xususiyatlar.
2. Leksik-frazeologik xususiyatlar
3. Grammatik xususiyatlar

### 2. Rasmiy uslub.

Rasmiy (ish yuritish) uslubga hisob-statik organlar, sud, adliya, fuqarolik holatlarini qayd etuvchi va notarial idoralar, prokuratura, ichki ishlar va boshqa vazirliklarning, idora, muassasa, tashkilotlarning, ayrim shaxslarning rasmiy hujjatlari nota, qaror, farmon, ko`rsatma, qo`llanma, konstitutsiya, hukm, ajrim, shartnoma, tavsiya, izohnomalar va ariza, shikoyat, axborot, majlis bayoni, tilxat,

tarjimai hol, ishonchnoma, guvohnoma, e'lon, dalolatnoma, ma'lumotnoma, hisobot kabilarning til xususiyatlari kiradi.

Rasmiy ish yuritish uslubining asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1) badiiy tasvir vositalar bo`lmaydi;
2) uslub leksikasi kitobiy va xolis so`zlardan iborat bo`ladi: uslubda professional terminologiya mavjud bo`ladi;
3) eskirgan so`z va iboralar o`rni bilan ishlatiladi;
4) quyidagi Grammatik xususiyatlar mavjud bo`ladi;
a) tilga olinayotgan kishilar o`z nomi bilan atalmasdan, buning o`rniga ularning belgisi yoki biror harakati, bir narsaga munosabatini ifodalovchi otlar ishlatiladi; ijrochi, guvoh, da'vogar, jabrlanuvchi, ijaraga oluvchi va h.
b) noaniqlikka yo`l qo`ymaslik maqsadida, odatda, otlar olmosh bilan almashtirilmaydi;
c) fe'lning ishlatilishi boshqa stillardagiga qaraganda, ayniqsa, farqlanib turadi; oldini olish, chora ko`rish, aybni ochish, ko`riladi, beriladi, bo`shatilsin;
d) bu uslubda uyushiq bo`lakli gaplar keng qo`llanilib, ayrim o`rinlarda bo`laklar soni 8-10 taga yetishi mumkin;
e) qo`shma gaplardan, xususan, shart ergash gapli qo`shma gaplardan keng foydalaniladi;
f) so`roq va undov gaplar deyarli qo`llanilmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi.
5) Hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Yakka rahbar nomidan yoziladigan farmoyish hujjatlari birinchi shaxs tilidan bo`ladi. Shuningdek, ayrim shaxs tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati) ham birinchi shaxs, birlik sonida shakllantiriladi. Boshqa hujjatlar esa yo birinchi shaxs ko`plik sonda, yoki uchinchi shaxs birlik sonda rasmiylashtiriladi.
6) Hujjatlar matnida turg`unlashgan, qoliplashgan so`z birikmalaridan ko`proq foydalaniladi.
7) Hujjatning axborot tizimi aniq, mukammal, fikr mantiqan teran bo`lishi shart.
8) Hujjat matnida abzatslar tizimiga qat'iy rioya etiladi.
9) Hujjatda imlo, ishoraviy xatoga yo`l qo`yilmaydi.

## 3. Ilmiy uslub.

Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog`liq vazifaviy uslubdir. U o`z ichida yana ilmiy texnikaviy, ilmiy-hujjat, ilmiy-ommabop, o`quv-ilmiy kabi bir necha sof ilmiy turlarga bo`linadi.

Ilmiy uslubning hozirgi zamon taraqqiyoti bilan bog`liq ravishda quyidagi umumiy xususiyatlari bor:

1) axborotning ob'yektivligi, aniqligi;
2) nutqning ma'lumotlarga boyligi;
3) fikrning lo`nda, qisqa ifodalanishi;
4) muallif individualligining sezilmasligi;
5) emotsionallik, obrazlilikning bo`lmasligi;
6) atama, chizma, ramz va jadvallarning bo`lishi;
7) matnning siqiq sintaktik qurilmalardan tuzilishi;
8) adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinishi;
9) fikrlarning mantiqiyligi va qat'iy tartibda bo`lishi;
10) ellipsis hodisasining bo`lmasligi (nazarda tutilgan birorta so`zning tushib qolishi);
11) turli xil tushunchalarni ifodalovchi otlarning ko`p ishlatilishi;
12) otlarni, asosan, birlikda ishlatish;
13) matnda fe'lning majhul nisbatidan foydalanish;
14) maxsus bog`lash uchun xizmat qiladigan so`z, so`z birikmalarining qo`llanishi.

## 4. Publitsistik uslub.

Publitsistika keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o`z ichiga oladi. Bu uslub ham o`zining yozma va og`zaki ko`rinishlariga ega. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag`ishlangan bosh maqolalar, felyeton, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar uslubning yozma turidagi asarlaridir.

Publitsistik uslubning yozma va og`zaki ko`rinishlari o`ziga xos xususiyatlariga ega bo`lsada, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo`ysunadi. Chunonchi, bu uslubning ikkala turida ham siyosiy faollik, hozirjavoblik, o`tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ`ibot kabi xususiyatlar mavjud bo`ladi.

## 5. Badiiy uslub.

Badiiy nutq uslubi inson amaliy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi: umumga taalluqligi, barcha barobarligi bilan xarakterlanadi.

Badiiy nutq uslubi juda xilma-xil ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Bu uslub muallifga asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va Grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi, ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy nutq uslubida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo`lib xizmat qiladi. Bu uslub o`zining obrazliligi bilan adabiy boshqa funktsional uslublaridan ajralib turadi.

**Quyidagi vaziyatli masalani mustaqil fikrlaringiz asosida hal qilishda qatnashing:**

**1. Keng qiyofa texnikasi**

Agar siz suhbatga yaxshigina tayyorlanib kelgan bo'lsangiz va o'z fikringizni miqdoriy ma'lumotlar yordamida asoslayotgan bo'lsangiz-u, suhbatdoshingiz sizni maydalikda hamda vaziyatni butun yaxlitligini ko'rmayotgan-ligingizda ayblayotgan bo'lsin.

Sizni xulqingiz harakatlari: undan aniq ma'lumotlarga qarshi nimanidir qo'ya olishini so'rang. O'zingiz faqat ayni shu sonlar asosida aniq qilib umumiy chiziq aniqlanayotganini ta'kidlang.

**Dialogni o'qing va unda ilgari surilgan fikrlarga o'z mulohazalaringizni bildi-ring:**

**Ijodkor orzusi**

Bu voqea Samarqandda Registon ansambli yonida bo'lgan edi. Oldinda G'afur aka Hamid G'ulom bilan, orqada S.Ahmad quloq solib borardi. G'afur aka Samarqand tarixi, ayniqsa Alisher Navoiy hayoti bilan bog'liq tomonlarini gaprib berardi, ba'zan to'xtab ko'zoynagini qo'liga olib peshtoqla-ridagi arab va fors tillarida yozilgan xatlarni titkilab qolardi. Registon maydoniga kirganda G'afur aka go'yo ulug' bobolar bosgan tuproqni oyoq osti qilishni istamagandek avaylab yurayotganga o'xshardi, u endi shivirlab gapirardi:

- Mana shu erdan necha marta Navoiy yurgan. Mana shu peshtoqlarga tikilib ne-ne hayollarga borgan ekan. Manavu to'g'ridagi eshikdan Ulug'bek necha bor kirib chiqqan. Ajab!

G'afur akaning bola tabiati bo'lib, sal narsaga quvonib, sal narsaga mo'lt-mo'lt ko'z yoshi to'kardi. O'ylaganimiz to'g'ri chiqdi, G'afur akaning ikki ko'zi jiqqa yosh edi. SHunday paytlarda uni chalg'itish kerak.

- G'afur aka, bunaqa qiladigan bo'lsangiz, ertaga saylovchilar bilan bo'ladigan uchrashuvda yig'loqi deputat olib keldik, deb aytamiz.

G'afur aka darrov hushini yig'di.

- Ha, shayton sezib  qolding-a. Shu topda hayol o‘lgur olib qochgan ekan. Navoiy bilan gaplashayotgan edim. Suhbat juda shirin joyiga kelganda xayolni bo‘lib qo‘yding. She’r tug‘ilayotgan edi-ya!

Daraxshon yulduzlar sari o‘kirgan.
Bo‘ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.
Insoniy muhabbat mehri-la vafo,
Erku baxt timsoli ulug‘ Alisher.

Albatta bita zo‘r she’r yozaman. Yozib qo‘y, keyin esimdan chiqib qolmasin.

Oradan bir yil o‘tib Navoiyning besh yuz yillik yubileyi kunlarida G‘afur aka Navoiyga bag‘ish-langan she’rini yozdi.  (Said Ahmad).

**Nazorat savollari**

1. Nutqning uslubiy turlarining shakllanishiga qanday asoslar sabab bo`lgan?

2. So`zlashuv uslubining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Rasmiy uslubning qanday xususiyatlari bor?

4. Ilmiy-uslubning qanday xususiyatlari bor&

5. Publitsistik va badiiy uslubning qanday jihatlarini bilasiz?

## Asosiy darsliklar va qo’shimcha o‘quv qo‘llanmalar

***Adabiyotlar:***

1. Sh.M.Mirziyoyev  “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b
3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b
4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar

strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.

6. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
7. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.
8. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
9. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.
10. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., “O`qituvchi”, 1995.

## **8-mavzu**. **Nutqning kommunikativ va boshqa sifatlari.**

**R e j a:**

1. Kirish.
2. Suhbat va uning oldiga qo`yilgan talablar
3. Muhokama va uning oldiga qo`yilgan talablar
4. Munozara va uning oldiga qo`yilgan takabkar
5. Notiqlik va uning oldiga qo`yilgan talablar.

*Tayanch iboralar*

Suhbat, muhokama, munozara, tashviqiy nutq, tanqidiy nutq, tabrik nutqi.

Fikr suhbat, muhokama, munozara shaklidagi nutqiy faoliyatlar davomida og`zaki bayon qilinadi.

Suhbat – ma’lum bir mavzu yuzasidan dialog (yoki polilog) tarzida bo`lib o`tadigan nutqiy muloqot.

Suhbat oldiga qo`yilgan talablar:

1. Mavzudan chetga chiqmaslik
2. Savollarga aniq, qisqa, to`la javob berish.
3. Javob berish jarayonida savolning ahamiyatiga e’tibor berish, dalil va misollarning ishonarli bo`lishini ta’minlash.

4. Suhbat jarayonida tinglovchilar holati, vaqti qiziqishlari, mavzuning dolzarbligini hisobga olish.
5. Suhbatda kamtarlik, xushmuomalalik talablariga javob berish.
6. Suhbat davomida nutqning ifodalilik, ta’sirchanlik, mantiqiylik, to`g`rilik, soflik kabi xususiyatlari talablariga rioya qilish.

**Muhokama**

Muhokama – biror masala yuzasidan ko`pchilikning fikrini to`plash, ma’lum to`xtamlarga kelishini anglatadi.

Muhokama nutqi oldiga qo`yilgan t a l a b l a r:

1. Muhokama mavzuidan chetga chiqmaslik.
2. Fikrni ixcham, soda, ta’sirli qilib ifodalash.
3. Ortiqcha lirik chekinishlarga berilmaslik.
4. Fikrga mos dalil va isbotlarni aniq, lo`nda qilib keltirish.
5. Boshqalar bildirgan fikrlarni takrorlamaslik.
6. Fikrni ifodalash davomida o`zgalar fikriga hurmat bilan qarash, o`rinsiz bildirilgan fikrlarni kishi shaxsiga tegmasdan inkor etish.
7. Fikrni bayon qilish davomida hayajonlanmaslik. O`zini og`ir tutish.

**Munozara**

Munozara – biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortishuvini anglatadi. Bahs jarayonida har bir ishtirokchi o`zining haq ekanligini isbotlashga intiladi.

Munozarada nutqqa qo`yilgan talablar:

1. Mavzudan chetga chiqmaslik.
2. Mazmunni ochuvchi, fikrni isbotlovchi dalillarning yetarli bo`lishi.
3. Dalillardan mantiqan xulosa chiqarish.
4. Nutqning ifodali tizimli, hayajonli bo`lishi.
5. Nutq shaklining ixcham, qiziqarli bo`lishi.
6. Nutq egasining vazmin, og`ir bo`lishi.
7. Suhbatdosh hurmatning ifodasi bo`lishi, uning shaxsiga tegadigan so`z va gaplarning bo`lmasligi.

**Notiqlik**

Aytilayotgan fikrning tinglovchiga yetib borishi va uning ruhi hamda xulqiga ta’sir etish notiqlik san’atiga bog`liq.

Notiqona nutq maqsadi va xususiyatlariga ko`ra quyidagi turlarga ajratiladi:

a) tashviqiy nutq
b) tanqidiy nutq
c) tabrik nutqi.

1. **Tashviqiy nutq** deb muallif ko`zda tutgan biron voqea-hodisani bajarishga tinglovchilarni da'vat etuvchi, undovchi nutqqa aytiladi.

Tashviqiy nutq oldiga qo`yilgan talablar:

a) mavzudan chetga chiqmaslik
b) mavzu mohiyatini to`la ochib berish
c) mavzu dolzarbligini uqtira olish.
d) Nutqning ta'sirchanligini oshira olish.
e) Ko`chirma va misollarni o`rinli keltira olish.

**2. Tanqidiy nutq.**

Yuz bergan hodisalar, shaxslar hatti-harakatlariga e'tirozli munosabatda bo`luvchi nutq tanqidiy nutq hisoblanadi.

Tanqidiy nutq oldiga qo`yilgan talablar:

a) yuz bergan voqea-hodisalarning mohiyatini ochib berish;
b) tanqid uchun dalillarning yetarli bo`lishi;
c) notiqning o`ta hayajonlanib ketmasligi;
d) haqiqatdan chetlanmaslik;
e) kishi shaxsiga tegmaslik;
f) nutq shaklining jozibadorligi, ohangdorligi.

To`ylarda, tantanalarda, yubileylarda, tug`ilgan kunlarda so`zlanadigan nutq tabrik nutqidir. Bu nutq oldiga qo`yilgan talablar.

a) tabriklanuvchi shaxsning ijodi, hayoti, fazilatlaridan asosiy ma'lumotlarni berish;
b) nutqning ixcham, jozibador, ohangdor bo`lishi;
c) nutqning til vositalariga boy, shaklan qiziqarli bo`lishi.

Til – ma'lum kishilar jamoasi a'zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o`ziga xos belgilar sistemalaridan biri bo`lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Nutq – ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir.

Matn – u yoki bu holda tugallangan mazmun va nutqning birligini o`zida shakllantirgan hamda ifodalangan og`zaki yoki yozma asarga aytiladi.

Fikrni og`zaki bayon etganda o`qituvchi suhbat, muhokama, munozara usullaridan foydalanadi.

Fikrni yozma bayon qilish bayon, saylanma bayon, konspekt, referat, sharh biologiyasi, avtibiografiya, tavsifnoma, intervyu, ma’ruza, lektsiya, hisobot, maktub, kundalik kabi shakllardan iborat.

***Nazorat savollari.***

1. Suhbat oldiga qanday talablar qo`yiladi?
2. Muhokama nutqi oldiga qanday talablar qo`yiladi?
3. Munozara nutqi oldiga qanday talablar qo`yiladi?
4. Notiqlik va uning oldiga qo`yilgan talablar haqida ma’lumot bering.

**Asosiy darsliklar va qo’shimcha o‘quv qo‘llanmalar**

***Adabiyotlar:***


1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b
3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b
4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.
5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.
7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.
9. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., “O`qituvchi”, 1995.

## 9-mavzu. Til va nutq. Nutq odobi muammolari

**R e j a:**

1. Nutq odobi – ahloqni belgilovchi mezon.
2. Nutq texnikasi va ovozdan foydalanish.
3. O`qituvchi odobi – nutq odobi.

### Tayanch so`z va iboralar

Fikr ifodalash shakllari, og`zaki nutq, matn, yozma nutq shakllari.

Nutq odobi insonning ahloqini belgilovchi mezondir. Ahloq fan sifatida o`rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko`rinadi. Nutq odobi – aytilishi zarur bo`lgan xabarlarni tinglovchiga hurmat qilgan holda, bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi:

Paronimlarni bilish, ulardan tovush yaqinliklariga e’tibor berish; tor muhitda ishlatiladigan dialektalizm so`zlarning ma’nolari yaxshi anglatgan holda nutqqa kiritish.

O`qituvchi o`z nutqidan keng foydalanadi. O`quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma’lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O`qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog`liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo`lgan o`qituvchi o`z o`quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta’sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o`qituvchi o`z ovozini kuchini, yoqimliligini bilishi zarur.

O`qituvchining ovozidan quyidagi xususiyatlar bo`lishi lozim.

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma’lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o`quvchiga yetkazishda qo`llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko`rinishda bo`lganda uni texnikasini ham ikki xil ko`rsatish mumkin:

1. Og`zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

Og`zaki nutq texnikasi tovush, bo`g`in, so`zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan

nutq faoliyatining ma’nosi bilan, nutq ishlatilayotgan so`z ma’nolarini bilish bilan bog`liq bo`ladi. Agar notiq o`zi fikr yuritmoqchi bo`lgan nutq predmetining yaxshi bilsa, unga mos so`zlar tanlasa va o`zi tanlagan so`zlarning ma’nolariga vazifalar yuksala, nutqning aniq bo`lishi muqarrardir.

Nutqning sifati ma’nosidan aniqligining o`zi nimalardan iborat? Aniqlikni “nutq borlik”, nutq – tafakkur munosabatlari asosida aniqlasa bo`ladi.

Ish qog`ozlarga xos bo`lgan xususiyatlar.

Yozma nutq ham huddi og`zaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o`quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham, o`quvchiga ham minnatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

a) har qanday yozma nutq xat boshidan, bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo`lishi, yorqin fikr anglatishi kerak;

- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo`lgan darajasi);

- havodorlik (erkin so`zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo`lish);

- ixchamlik va harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo`lish);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikani eshitilish sharoitida moslasha olish);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik;
- suggestivlik (ovozni hayajon ifodalash va bu orqali tinglovchining hulqiga ta’sir qilish xususiyati.

c) ma’lum bir fikr bayon etilgandan so`ng, nutqni tarkibiy qismi bo`lgan boshqa fikr xat boshidan boshlanishi zarur.

Xat boshilar (abzatslar) bir-biri bilan mantiqiy bog`langan bo`lishi lozim.

d) Dialoglardan tashkil topgan yozma nutqda har bir shaxsni gapi teri orqali yoziladi;

e) ko`chirma gaplar, ko`chirmalar, o`z ma’nosida ishlatilmagan so`zlar, birikmalar qo`shtirnoq ichiga olinadi;

f) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar teri yoki qavs bilan ajratiladi;

g) ot kesim, izohlovchi, undalma, ajratiladigan bo`laklar tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

h) nutqning xat boshidan yirik qismlarga boblarga bo`lib ko`rsatiladi.

Ish qog`ozlarga ham yozma nutq hisoblanadi.

Ularning yozilishi ham nutqqa xos umumiy talablardan chetga chiqmaydi.

**T a s v i r.** Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko`rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi.

**Hikoya qilish.** Bo`lib o`tgan va yuz beradigan voqea hodisalarning batafsil so`zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma’lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

**Savollar:**

1. O’qituvchi odobi deganda nimani tushunasiz?

2. Fikrni qanday ifodalash usullari mavjud?

3. O’qituvchining nutq odobi bilan o’zining odobi haqida qanday bog’liqlik bor?

**Adabiyotlar:**


1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b
3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b
4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.
5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.
7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

## 10-ma'ruza. Nutq madaniyatini oshirishning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati.

**Reja**:

1. Yangi o'zlashtirilgan til vositalarini ko'zda tutgan holda o'quvchilarni nutqini takomillashtirish.
2. Og'zaki va yozma nutq texnikasi.
3. Ovoz, talaffuz, diktsiya.

***Tayanch tushunchalar:***

Og'zaki nutq texnikasi, yozma nutq texnikasi, o'qituvchining ovozi, o'qituvchining talaffuzi, o'qituvchining diktsiyasi.

To'liq, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzvi, ta'bir joiz bo'lsa, tamallaridandir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

XIII asr Sharqining ulkan adibi Shayx Sa'diy Sheroziyning mashhur "Guliston" asarida pgunday bir hikoyat bor: "Sanjariyya masjidida bir kishi rag'bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulqlik. Xohlamas erdiki, aning ko'nglini mukaddar aylasa, aydi: "Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga o'n tillo berurmen, tokim bo'lak mahallaga ketarsen". Bu so'zg'a ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin so'ngra amirning huzuriga qaytib keldi va aydi: "Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, o'n tillo bilan meni bu mahalladin jo'natding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bo'lak mahallaga ketsam qabul etayurmen". Amir kuldi va aydi: "Aslo olmag'aysen, zeroki ellik tillog'a ham rozi bo'lurlar". Yoqimsiz ovoz kishilarni o'ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan bar-cha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo'ladi.

Mashhur rus olimi M.V.Lomonosov o'zining "Notiqlik bo'yicha qisqacha qo'llanma"sida notiq bo'lish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo'linishini aytadi. Olim jismoniy

qobiliyat deganda baland va yoqimli ovoz, uzun nafas va baquvvat ko’krak, shuningdek, sog’lom tana va kelishtan qomatni nazarda tutadi.'

Bugungi kunda siyosatchilarning imiji ("qiyofasi")ni yaratishda bir qancha tashqi omillar qatorida ularning ovoz tembri ham muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi. Umuman, siyosatchimi, o’qituvchimi, aktyormi, jo’rnalistmi, kim bo’lishidan qat'i nazar, uning og’zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlar mavjud bo’lsa-yu ovozida u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta'sir kuchini kamida yarmiga yo’qo-tadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yuz kishigami, boringki, ming kishigami, buning farqi yo’q, o’zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovozning, ovoz sifatining o’rni favqulodda muhimdir.

"Tabiiy jismoniy qobiliyat" sifatidagi, aytaylik, xirqiroq, chiyildoq, shang’iroq kabi ovozlarning yoqimli bo’lolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog’ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan "libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o’ta sezgir va nozik darvozasi bo’lmish quloqdan o’tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko’zlagan maqsad — muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda etkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Tabiatan ana shunday "quloqni qiynaydigan" ovozga ega bo’lgan odam o’z ishining samarasidan chinakam huzur tuyushi, Shayx Sa'diyning "Guliston"idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy quroli nutq bo’lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani ma'qul.

Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo’lgan kasblar orasida o’qituvchilik birinchi o’rinda turadi, buning ustiga, o’qituvchilar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg’ul bo’lganlar sonidan sezilarli darajada ortiqdir.

O’qituvchining ovozi, talaffuzi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o’quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o’quichilar uchun o’ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O’qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nuqson o’quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson o’qituvchi nutqida muptazam kuzatilsa, o’quvchi o’qituvchidan nohaq bo’lsa-da, ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o’quvchilar o’zaro ana shunday o’qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Kasbiga sadoqatli o’qituvchi o’z o’quvchisi ko’zi o’ngida qusursiz va qadrli ustoz imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg’urishi zarur. To’g’ri, tug’ma xirqirokdik, chiyildokdik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman qutulishning iloji yo’q. Ammo nutq texnikasini etarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan fonetik

bilimlardan xabardorlik, ovozni yo'lga qo'yish (ruschada "postanovka golosa"), aniq talaffuz qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo'lish mumkin.

Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S.Inomxo'jaev ta'kidlaganidek,1 keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir erto'la qazib, shu erto'lada ovozini rivojlantirish, diktsiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytolmaslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chi-niqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir elkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun erto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, elkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashkdarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notikdikning cho'ng cho'qqisini zabt etgan.

O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning etmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bo'linib ketishi, mantiqiy mazmunni buzadigan noo'rin pauzaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rtaga chiqadi. Masalan, Qadimiy va boy tilimizping sofligini saqlash har birimizning burchimizdir jumlasi aytilarkan, masalan, har so'zidan keyin nafas tugab qolsa, ilojsiz, nafas olish uchun to'xtalish majburiyati paydo bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bo'linishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas jumlaning oxiriga borib etmay qolsa, jumladagi so'nggi so'z "yamlanib" talaffuz qilinadi, so'zlovchi xuddi bo'g'ilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilardi darajada qiynoq tug'diradi.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo’lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balanddigi, kuchi, tembri (bo’yoqdorligi), cho’zikdigi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og’zaki nutqning yashashini ta'minlay-digan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo’lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, "nutkda ovozning (tonning) baland-past tarzda to’lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko’ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so’z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutkda boshqa akustik vositalar (urg’u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi". O’qituvchi o’z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni to’g’ri va o’rinli namoyon eta bilishi lozim.

Ayrim o’qituvchilar ko’pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo’l bilan go’yoki sinfdagi shovqinni "bosib" qo’yganday bo’ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo’lmaydi, faqat o’qituvchining ovoz apparati keraksiz zo’riqadi, o’zi tez charchaydi. Yana ba'zi o’qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so’zlaydilar. Bunda ham o’qituvchining o’zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo’g’iq, tussiz eshitiladi va o’quvchining diqqatini ushlab turmaydi.

Tajribali o’qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars o’tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho’zikdigidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon qilinayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi o’quvchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan mahrum nutq shaklidan qutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi.

O’qituvchining nutq texnikasi bilan bog’liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to’g’ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko’ra mo’'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiga uyg’un bo’lishi maqsadga muvofiq, aks holda, ya'ni o’qituvchi materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, o’quvchi axborotni o’ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o’z vaqtida ilg’ashga, to’la idrok etishga qiynaladi. Boshqacha qilib aytganda, o’quvchining idrok sur'ati o’qituvchining nugqi tezligidan orqada

qoladi, unga "etib yurolmaydi". Zotan, o’qituvchi nutqidagi me'yoridan ortiq jadal temp dars berish metodikasi qoidalari uchun ham begonadir. O’qituvchi o’quvchilarning o’zlashtirish qobiliyatlari, ayni dars paytidagi ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni o’rni bilan o’zgartirib tursa, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan to’g’ri bo’ladi.

Nutq texnikasida diktsiya masalasi ham alohida o’rin tutadi. Har bir tovush, so’zning to’g’ri va aniq talaffuz qilinishi, nutq oqimida so’z shakllari va gaplarning "chaynalmasligi", ayniqsa, o’qituvchi nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zan o’qituvchilar nutqida ham diktsiya noaniqligi bilan bog’liq nuqsonlar kuzatiladi. Masalan, ba'zan "z" tovushini jarangsiz "s" tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz — sis, eshitdingiz — eshitdingis kabi. Bu va bu singari nuqsonlar nutq tovushlarining hosil bo’lish o’rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolari)ning etarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo’ladi. Noto’g’ri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil bo’lishida ishtirok etadigan nutq a'zolarining faolligini oshirish yo’li bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashkdar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqol va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chiqarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko’rinishidir.

Umuman, o’qituvchi o’zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg’urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo’lsa-da, xabardor bo’lishi, kerak bo’lganda, o’z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o’qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og’zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo’lmaydi.

***Savollar:***

1. Nutq texnikasi deganda nimani tushunasiz?
2. O’qituvchining talaffuzi qanday bo’lishi kerak?
3. Nutq texnikasi necha xil bo’ladi?
4. Kognitiv ta’lim tizimi afzalliklari nimada?

**Adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b

2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b

3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b

4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.

5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.

6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.

7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.

9. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., “O`qituvchi”, 1995.

# II. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni

**1. Amaliy mavzu**: **"Nutq madaniyati"**

**Matndan foydalanib nuqtalar o'rniga mos fe'llarni qo'ying.**

1. Siz o'zingizdan avval so'zingizni ........ : u- gavhar, tejab........ , har bir so'zingiz bir uzukka ko'z ......... !

2. "Urg'u" degan oltin tayoqcha bor, kerak so'zni .......... ............, jumla ..........!

3. Quvonchli so'zni quvonch bilan ............!

4. Har bir harfni o'z ohangi, rangi bilan tiniq ..............!

Gaplardagi hozirgi zamon fe'llarini kelasi zamonga almashtiring, qanday o'zgarish sezdingiz?

1. Voiz tinglovchining xatolarini taftish etyapti.

2. Razm solyapman. Turfa qarashlar yuzimga san-chilyapti.

Mana o'zingiz eshityapsiz, endi ko'p narsa ensasini qotiryapti.

**O'tgan zamon fe'llarini kelasi zamon fe'llari bilan almashtiring**

1. Latif jumlalar barcha davralarda qadrlandi.

2. Oqilona so'zlashni bola dastlab ko'chada, maktabda emas, dastlab uyda o'rgandi.

3. Operatsiya muvaffaqiyatli tugadi.

4. Insonlar bilan uzluksiz muloqot meni ruhshunosga aylantirdi.

**Mavzuga oid testlar yordamida o'qiganlaringizni mustahkamlang.**

**Testlar:**

1.«Nutq madaniyati» tushunchasi qanday ma'nolarni o'zida ifodalaydi?

A. Kishilar faoliyatini so'z orqali ifodalash qobiliyati.

V. Insonlarning tilidagi nuqson, kamchiliklarni bartaraf etish qobiliyati.

S. Ularni ma'naviy yuksaklikka intilishlari va fikrlarini tushuntirishlari.

2. «Nutq madaniyati» fanining maqsadi to'liq ifo-dalangan qatorni aniqlang.

A. Rezidentlarda mantiqiy asoslangan og'zaki va yozma nutqni o'stirish.

V. Fanning tili va uslubiga, uning terminologik tizimiga xos xususiyat va qonuniyatlar haqida keng ma'lumot berish.

S.Tibbiyotchi-pedagog nutqiga xos xususiyat va qonuniyatlar haqida keng ma'lumot berish.

3. «Nutq san'ati» SHarqda qaysi atama bilan yuritilgan?

A. So'z xazinasi.

V. Nutq odobi.

S. Til madaniyati.

D.Nutq madaniyati.

4. Tibbiyotchi-pedagog chin ma’nodagi notiq bo‘lishi uchun nimalar zarur:

A. Nutqni tuzish, so‘zlash mahoratini egallash.

V. So‘z tanlash, qo‘llash mahoratini egallash puxta egallashi kerak.

S. Notiqlik san’ati va mahoratidan unumli foydalanish, nutqni tuzish, so‘zlash mahoratini egallash, so‘p tanlash.

5. Har bir fan o‘qituvchisiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar:

A. O‘zbek adabiy tili, adabiy so‘zlashuv nutqi me’yorlari (normalari)ga amal qilish.

V. Barcha uchun qiziqarli, ta’sirli bo‘lishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalana olish.

S. Ma’naviy yuksak g‘oyalarni ilgari surish, mavzu dolzarb va auditoriya saviyasiga mos kelishi, adabiy tili, adabiy so‘zlashuv nutqi me’yorlari (normalari)ga amal qilish, texnik va ko‘rgazmali qurollardan foydalana olish, aniq ma’lumot va dalillarga asoslanishi, mavzu qiziqarli, ta’sirli bo‘lishi kerak.

## 2-amaliy mashg’ulot

**Matndan foydalanib nuqtalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘ying.**

1. Ustoz bu jumboqni echishni ularning o‘zlariga ............. ............ .

2. Bu holatni kuzatib turgan shogirdlar ustozdan imo-ishoraning ma’nosini ............... .

Z. Imo-ishorada murakkab ma’no ............. .

4. Navoiy hazratlari ham ko‘rsatkich barmoqlari bilan tillarini ko‘rsatdilar............. .

**Gaplardagi hozirgi zamon fe’llarini kelasi zamonga almashtiring, jumlalarda qanday harakatlar ifodalanyapti?**

1. Yurakdan chiqayotgan so‘z- yuraklarga boryapti.

2. Odamning kimligi tilidan bilinyapti.

3. So‘zamollik bilimliga yarashyapti.

**O‘tgan zamon fe’llarini kelasi zamon fe’llari bilan almashtiring**

1. Shifokor bemorni davolash choralarini ko‘rdi.

2. Muallim tolibi ilmda odobsizlikni ko‘rib, ishora va lutf ila to‘g‘riladi.

3. Ilm talab qiluvchi shaxs har bir narsadan eng yaxshisini oldi.

4. Bemorga o‘z farzandingizday qaradingiz, himma-tingizga balli!

**Mavzuga oid testlar yordamida o‘qiganla-ringizni mustahkamlang.**

**Testlar:**

1. “Juvonmardlik” so‘zining ma’nosi to‘g‘ri ko‘rsa-tilgan qatorni belgilang.

A. Betarbiya va zolim kishini ifodalaydi.

V. To‘g‘ri so‘zli, insonparvarlik xususiyatlariga ega bo‘lgan kishilarni bildiradi.

S. Mehr –oqibatli yaxshi insonni ifodalaydi.

2. “Suxandonlik” so‘zining izohini bering.

A. Jurnalistlik, har qanday vaziyatda nutqni to‘g‘ri qo‘llay olish mahorati.

V. Madaniyatli, ma’naviyati boy odam ma’nosini bildiradi.

S. Haq so‘zlik, xalqparvarlik.

3. Dastavval “Nutq madaniyati” qaysi mamlakatlarda vujudga keldi va notiqli ksan’at darajasiga ko‘tarildi?

A.Hindiston, Yaponiya.

V.Qadimgi Yunoniston, Rim.

S.Rossiya, Movarounnahrda.

D. AQSH, Angliyada.

4. Buyuk alloma Beruniy fikricha grammatika ilmi qanday ta’rifga ega?

A. Jismlarga qo‘yilgan nomlarning qanday qanday tartibga solinishini o‘rganadi.

V. Narsalar va hodisalarning joylashishini o‘rganadi.

S. Jismlarga berilgan nomlarni tartibga solish, narsa va hodisalarning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlar va nutqni tuzishni o‘rgatadi.

**Mustaqil ishlari uchun material.**

**Matnni o‘z fikrlaringiz bilan boyitgan holda gapirib bering.**

Ibn Abdulbarr, al-Marhabiy va al-Xatib keltirgan rivoyatda Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anhu tolibi ilmga quyidagi nasihatni qiladilar: «Olimning senda bo‘lgan haqqi:

1. Unga ko‘p savol bermaslik.
2. Javobni qattiq talab qilib uni charchatmaslik.
3. U xohlamasa, mahkam yopishib olmasligingdir.
4. Agar tanballik qilsa, kiyimidan tutmasligingdir.
5. Ustozga qo‘l bilan ishora qilmaslik.
6. Unga ko‘z qisib ham ishora qilmaslik.
7. Odamlar bilan majlis qurib o‘tirganda so‘ramas-ligingdir.
8. Uning adashishining payidan bo‘lmaslik.
9. Uning ro‘baro‘sida o‘tirmoq.
10. Olim suhbatining uzunligidan malol olmaslik.
11. U bir xurmoga o‘xshaydi. Sen undan o‘zingga qachon manfaat tushishiga intizor bo‘lib turmog‘ing kerak.

3.3. O‘quv mashg‘uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

3.4. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish uchun topshiriq beradi

## 3- Amaliy mashg’lot

**Matnni notiqlik mahorati va san’atini oshirishga ta’siri jihatidan tahlil qiling.**

Ey farzand bilgilki, kishi to‘rt nav bo‘lur: Biri ulkim, bilur va bilg‘onin ham bilur. Ul olimdir, unga tobe bo‘lmoq kerakdir. Biri uldurkim, bilmas va bilmog‘onin bilur, ul qobildir, unga o‘rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg‘onin bilmas, ul uyqudadir. Uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag‘onin ham bilmas, u johildir, undan qochmoq kerakdur. So‘z ham to‘rt navdur: biri bilmayturg‘on va aytilmayturg‘on; ikkilanchi, aytiladturg‘on va bilinaturg‘on; uchlonchi ham bilinaturg‘on va ham bilishga zaruriyatsiz ammo aytsa bilinaturg‘on; to‘rtlonchi, bilinmayturg‘on va aytilmaturg‘on. Ammo aytilmayturg‘on va bilin-mayturg‘on undoq so‘zdurki … dunyoning saloxi unga bog‘liqdur. Ul so‘zdin aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko‘p naf etar. Ammo bilinaturg‘on, biroq aytilmayturg‘on undoq so‘zdurlarki, bir muhtashim odamning aybi senga ma’lum bo‘lur. Lekin aql tariqidin, uni aytmoq besharmlikdur. Chunki aytsang ul muhtashimning qahri, yo ul do‘stning ozori senda hosil bo‘lur yoxud o‘z boshingga ulug‘ sho‘rish va g‘avg‘o paydo qilursan.

Bu so‘zlarningyaxshirog‘i ham bilinaturg‘on va aytilaturg‘on so‘zdur.

3.3. O‘quv mashg‘uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

3.4. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish uchun top-shiriq beradi

**Testlar:**

1. Antik davr notiqlaridan biri mashhur notiq Lisiy qancha nutq yozgan va bizgacha yetib kelgan nutqi qanchani tashkil etadi?

A. Lisiy butun ijodi davomida 300 ga yaqin nutq yozgan. Shundan 34 ta sud nutqi bizgacha saqlangan.

V. Lisiy butun ijodi davomida 200 ga yaqin nutq yozgan. Shundan 30 ta sud nutqi bizgacha saqlangan.

S. Lisiy butun ijodi davomida 100 ga yaqin nutq yozgan. Shundan 24 ta sud nutqi bizgacha saqlangan.

2. O‘zbek adabiy tilini uning me’yorlariga asoslanib egallaydigan yuksak madaniyatli mutaxassis asosan nimalarga amal qilishi lozim:

A. Ko‘proq o‘zgalarning nutqini tinglash, ularga taqlid qilish.

V. Ilmiy, badiiy va bosha adabiyotlarni, mashhur allomalar, san’atkorlarning nutqini o‘rganish, ovoz chiqarib ohangdor qilib matnlarni o‘qish, imlo ustida ishlash.

S. “Nutq madaniyati”ni egallash haqidagi adabiyotlarni egallash.

3. Rim notiqligi maktabining buyuk vakili Mark Kvintalian fikricha notiqlikda birinchi o‘rinda nima turadi?

A. Bilimdonlik, aql-zakovat, tushunarli so‘zlash.

V. Va’zxonlik, chechanlik.

S. Sabr-toqat qila bilish.

4. Kaykovuzning Sharq pedagogikasining nodir na-munasi hisoblangan “Qobusnoma” asarida nutq odobiga oid qanday muhim masalalar yoritilgan?

A. Nutqning ikki tomoni (go‘zal va xunuk, ichki va tashqi tomoni) haqida ma’lumot beruvchi asar.

V. Tilning barcha imkoniyatlaridan o‘rinli foyda-lanish to‘g‘risidagi asar.

S. Xalq orasida obro‘ qozonishga (nutq asosida) xizmat qiluvchi asar

## 4- Amaliy mashg’lot

**Mustaqil ishlari uchun material.**

**Matnni notiqlik mahorati va san’atini oshirishga ta’siri jihatidan tahlil qiling.**

Ey farzand bilgilki, kishi to‘rt nav bo‘lur: Biri ulkim, bilur va bilg‘onin ham bilur. Ul olimdir, unga tobe bo‘lmoq kerakdir. Biri uldurkim, bilmas va bilmog‘onin bilur, ul qobildir, unga o‘rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg‘onin bilmas, ul uyqudadir. Uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag‘onin ham bilmas, u johildir, undan qochmoq kerakdur. So‘z ham to‘rt navdur: biri bilmayturg‘on va aytilmayturg‘on; ikkilanchi, aytiladturg‘on va bilinaturg‘on; uchlonchi ham bilinaturg‘on va ham bilishga zaruriyatsiz ammo aytsa bilinaturg‘on; to‘rtlonchi, bilinmayturg‘on va aytilmaturg‘on. Ammo aytilmayturg‘on va bilin-mayturg‘on undoq so‘zdurki … dunyoning saloxi unga bog‘liqdur. Ul so‘zdin aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko‘p naf etar. Ammo bilinaturg‘on, biroq aytilmayturg‘on undoq so‘zdurlarki, bir muhtashim odamning aybi senga ma’lum bo‘lur. Lekin aql tariqidin, uni aytmoq besharmlikdur. Chunki

aytsang ul muhtashimning qahri, yo ul do‘stning ozori senda hosil bo‘lur yoxud o‘z boshingga ulug‘ sho‘rish va g‘avg‘o  paydo qilursan.

Bu so‘zlarningyaxshirog‘i ham bilinaturg‘on va aytilaturg‘on so‘zdur.

**Testlar:**

1. “Bilib so‘zlasa, so‘z bilig sanalur” ushbu satrlar qaysi ulug‘ tilshunosning asaridan olingan?

A. M.Qoshg‘ariy. V.Ahmad Yugnakiy. S. Yusuf Xos Hojib.

2.O‘zbek adabiy tilini uning me’yorlariga asoslanib egallaydigan yuksak madaniyatli mutaxassis asosan nimalarga amal qilishi lozim:

A. Ko‘proq o‘zgalarning nutqini tinglash, ularga taqlid qilish.

V. Ilmiy, badiiy va bosha adabiyotlarni, mashhur allomalar, san’atkorlarning nutqini o‘rganish, ovoz chiqarib ohangdor qilib matnlarni o‘qish, imlo ustida ishlash.

S. “Nutq madaniyati” ni egallash haqidagi adabiyotlarni egallash.

3. Rim notiqligi maktabining buyuk vakili Mark Kvintalian fikricha notiqlikda birinchi o‘rinda nima turadi?

A. Bilimdonlik, aql-zakovat, tushunarli so‘zlash.

V. Va’zxonlik, chechanlik.

S. Sabr-toqat qila bilish.

4. Kaykovuzning SHarq pedagogikasining nodir na-munasi hisoblangan “Qobusnoma” asarida nutq odobiga oid qanday muhim masalalar yoritilgan?

A. Nutqning ikki tomoni (go‘zal va xunuk, ichki va tashqi  tomoni) haqida ma’lumot beruvchi asar.

V. Tilning barcha imkoniyatlaridan o‘rinli foyda-lanish to‘g‘risidagi asar.

S. Xalq orasida obro‘ qozonishga (nutq asosida) xizmat qiluvchi asar

## 5- Amaliy mashg’lot

**Mustaqil ishlari uchun material.**

**Matnni o‘qing, shu kasallik bo‘yicha fikrlaringizni ayting.**

**Botulizm qo‘zg‘atuvchisi**

**Clostridium botulinum** lotincha **botus –** kolbasa degan ma’noni bildirib, 1896 yili Ermengen tomonidan aniqlangan. Tayoqchasimon, 4 – 9 x 0,6 – 1mkm kattalikda, uchlari yumaloq. Tayoqchasimon, polimorf bo‘lib, qisqa va ipsimon shakllari uchrab turadi. Spora hosil qiladi, subterminal holda joylashadi. Spora tayoqchadan katta bo‘lganligi sababli ularga tennis raketka shaklini berib turadi. Botulizm qo‘zg‘atuvchilari  tashqi muhitda keng tarqalgan: hayvon yoki baliq chiqindilari bilan tuproqqa, suvga va boshqa erlarga tushadi. Tuproqda ular hatto

bo‘linib ko‘payadi. Odam botulizm qo‘zg‘atuvchisini saqlovchi mahsulotlarni iste’mol qilishi natijasida zararlanadi...

**Mavzuga oid testlar yordamida o‘qiganla-ringizni mustahkamlang.**

**Testlar:**

1. Nutqni muxim sifatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

A. Muntazamlilik, xususiylik, individuallik.

V. Murakkablik, tartiblilik.

S. Mantiqiylik, aniqlik, tozalik, maqsadga muvo-fiqlik, boylik, ifodalilik..

2. Perifraza – bu…

A. Predmet yoki hodisaning nomini uning tabiiy xarakterli belgisi asosida almashtirish . Masalan: hayvonlar shohi (arslon o‘rniga).

V. Shaxsning atrofdagilarga muomalasi, madaniyati, og‘zaki va yozma nutqining hamma ko‘rnishlari.

S. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik xusu-siyatlariga asoslanadi.

3. Takror bu –

A. Ko‘plik ma’nosini ifodalaydi, harflar takror-lanadi.

V.Tovushlar, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni ma’lum maqsad bilan qaytarilishi, ta’sirchan-

likni, obrazlilikni, ekspressivlikni oshirish, mazmunini boyitish.

S. Tovushlar, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni o‘xshatish, tartibga solish.

## 6- Amaliy mashg’lot

**Quyidagi vaziyatli masalani mustaqil fikrlaringizdan foydalanib hal qilishda qatnashing:**

**1. Xorijiy so‘zlar texnikasi**

Raqibingiz o‘zining professional bilimlari darajasini ko‘rsatish uchun yoki ustingizga xorijiy so‘zlar konini to‘kib sizga tushunarsiz bo‘lgan terminlarni ishlatyapti. Sizning xul-qingiz harakatlari: suhbatdoshingizdan xush-muomalalik bilan, lekin qat’iy aytib o‘tilgan xorijiy so‘zlar yoki terminlarga izoh berishni so‘rashga uyalmang. Bu qatnashuvchilarda sizga nis-batan simpatiyani chaqiradi.

2. Shaxsiy kuzatishlaringiz asosida qishki tongni sifatlar orqali tavsirlang: tongni rangin bo‘yoqlari, ovozli obrazlar, o‘zingizni hissiyotlaringiz va hayajonlaringizni ifodalang. Kuzatish jarayonida quyidagilarga e’tibor bering: osmon, havo, daraxtlar, ovozlar xarak-teriga (uyg‘onayotgan shahar shovqini,

qorning g‘ichirlashi, daraxtlarning qarsillashi), qishki tongning ajoyibotlari, tongni asta-sekin kunga o‘tishi.

**Dialogni o‘qing va unda ilgari surilgan fikrlarga o‘z mulohazalaringizni bildi-ring:**

- Ha, mahallada qiz qidirib yurishgan ekan. Bexos biznikiga kirishsa, Olmosni ko‘rib qolishipti. Kimni uyiga kirishganini ham bilishmas ekan.

- Aytdingizmi?

- Qizingizni yoshligini aytdim. Kimni qizi ekanini o‘zlari surishtirib bilib olishar, deb indamadim. Lekin qizimiz uyimizga kelib turadigan mehmonlardan deb, rosa xizmat qildi.

- Hali bola-da, tushunmagan.

- Qizingizga ularni maqtovlari, «aylanay, o‘rgilaylari» biram yoqdiki….. Men nima qilarimni bilmay qoldim.

- Muxarramxon, shuning uchun ham unga ko‘proq shirin, ekalaydigan gaplarni gapiraylik, a?

- Siz, ayam juda erka qilasizlar. Hech bo‘lmasa men sal qattiqroq turay, deyman. Taltayib ketmasin, begona uyga boradigan qizu…

- Baribir. Chiroyli, maqtov so‘zlarni eshitib yursa, birovlarning gapiga uchmaydi. Ko‘rgan-misiz, bodom daraxti erta bahorda sal kun ilisa gullab qoladi. Uyida shirin so‘z eshitmay o‘sgan qizlarni, o‘sha bodom daraxtiga o‘xshataman. Etilib kelayotgan qizlarga ota-onasi odob-axloqni urishib, qarg‘ab emas, chiroyli gaplar bilan o‘rgatsa, deyman. Qizlar shunda o‘z qadrini biladigan bo‘ladi. (Olmos. Bodom guli)

## 7- Amaliy mashg’lot

**Mustaqil ishlari uchun material.**

**Matnni o‘qing va o‘z mulohazalaringizni bildiring.**

### Zumrad

Bola uyg‘onib, onasini chaqirdi. Zumrad shoshib, zinadan tushdi-yu, ayvonga qarab chopti. Chopayotganida sochlarining to‘lqin urishi biram chiroyli, biram o‘ziga yarashiqli. Aziza piyoladagi choyni qo‘yib, uning ketidan bordi.

Bola ko‘zini ochgan, Zumrad tepasida mehr bilan unga qarab turardi. Aziza bolaning ko‘zini ko‘rdi. Ha, o‘sha Hakimjonning ko‘zlari.

- Ana, doktor opang dori beradilar, tuzalib ketasan, qo‘zim.

Aziza bolaning tomog‘iga choy qoshiqning orqasini tiqib, tanglayini qaradi, ko‘z milklarini ochib qaradi.

- Tashvish qilmang, shamollapti. Dori yozib beraman, tuzalib qoladi.

- Ertadan-kechgacha cho‘milgani-cho‘milgan. Bilasiz-ku, tog‘dan muzdek suv keladi, unga cho‘milib bo‘ladimi…

Agar Aziza o‘shanda muhabbatning aldamchi hislariga berilganda, o‘z irodasini qo‘liga ololmaganda, u ana shu aldangan ayoldan ham avval qurbon bo‘ladi… (Said Ahmad. Zumrad).

**Mavzuga oid testlar yordamida o‘qiganla-ringizni mustahkamlang.**

**Testlar:**

1. Ilmiy uslubga oid xususiyatlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblarni aniqlang.

A. Fikrning aniq va ob’ektiv ifodalanishi, mantiqiy bog‘liqligi, izchilligi, ifodaning sintaktik aniqligi.

V. Muallif o‘z fikrini majburan o‘tkazishi, mulohazalariga ko‘ndirishi.

S. Dalillarning mavhumligi, raqamlarning taxmi-niyligi, xulosalarning qisqaligi.

2. Stilistika sohasi deb hisoblanadi-

A. Nutqning turli stilistik qatlamlarida qo‘lla-nadigan vositalarni belgilab beradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi.

V. Faqat fan-texnikaning va ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog‘liq.

S. Ta’lim berish jarayonini takomillashtirish usullarini o‘rganadi.

D. Ijtimoiy, ruhiy va ma’naviy sohalarni o‘rga-tadi.

3. So‘zlashuv uslubining xususiyatlarini aniq-lang:

A. Betakalluflik, spontanlik, xayrixohlik, oddiylik, bemavridlik,

V. Majburiylik, tartiblilik, raqamlarni chal-kashtirmaslik.

S. Tanqidiylik, ifodalilik, izlanuvchanlik, ixchamlik, haqqoniylik.

## 8- Amaliy mashg’lot

**Quyidagi vaziyatli masalani mustaqil fikrlaringiz asosida hal qilishda qatnashing:**

### 1. Keng qiyofa texnikasi

Agar siz suhbatga yaxshigina tayyorlanib kelgan bo‘lsangiz va o‘z fikringizni miqdoriy ma’lumotlar yordamida asoslayotgan bo‘lsangiz-u,

suhbatdoshingiz sizni maydalikda hamda vaziyatni butun yaxlitligini ko‘rmayotgan-ligingizda ayblayotgan bo‘lsin.

Sizni xulqingiz harakatlari: undan aniq ma’lumotlarga qarshi nimanidir qo‘ya olishini so‘rang. O‘zingiz faqat ayni shu sonlar asosida aniq qilib umumiy chiziq aniqlanayotganini ta’kidlang.

**Dialogni o‘qing va unda ilgari surilgan fikrlarga o‘z mulohazalaringizni bildi-ring:**

**Ijodkor orzusi**

Bu voqea Samarqandda Registon ansambli yonida bo‘lgan edi. Oldinda G‘afur aka Hamid G‘ulom bilan, orqada S.Ahmad quloq solib borardi. G‘afur aka Samarqand tarixi, ayniqsa Alisher Navoiy hayoti bilan bog‘liq tomonlarini gaprib berardi, ba’zan to‘xtab ko‘zoynagini qo‘liga olib peshtoqla-ridagi arab va fors tillarida yozilgan xatlarni titkilab qolardi. Registon maydoniga kirganda G‘afur aka go‘yo ulug‘ bobolar bosgan tuproqni oyoq osti qilishni istamagandek avaylab yurayotganga o‘xshardi, u endi shivirlab gapirardi:

- Mana shu erdan necha marta Navoiy yurgan. Mana shu peshtoqlarga tikilib ne-ne hayollarga borgan ekan. Manavu to‘g‘ridagi eshikdan Ulug‘bek necha bor kirib chiqqan. Ajab!

G‘afur akaning bola tabiati bo‘lib, sal narsaga quvonib, sal narsaga mo‘lt-mo‘lt ko‘z yoshi to‘kardi. O‘ylaganimiz to‘g‘ri chiqdi, G‘afur akaning ikki ko‘zi jiqqa yosh edi. SHunday paytlarda uni chalg‘itish kerak.

- G‘afur aka, bunaqa qiladigan bo‘lsangiz, ertaga saylovchilar bilan bo‘ladigan uchrashuvda yig‘loqi deputat olib keldik, deb aytamiz.

G‘afur aka darrov hushini yig‘di.

- Ha, shayton sezib qolding-a. SHu topda hayol o‘lgur olib qochgan ekan. Navoiy bilan gaplashayotgan edim. Suhbat juda shirin joyiga kelganda xayolni bo‘lib qo‘yding. SHe’r tug‘ilayotgan edi-ya!

Daraxshon yulduzlar sari o‘kirgan.
Bo‘ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.
Insoniy muhabbat mehri-la vafo,
Erku baxt timsoli ulug‘ Alisher.

Albatta bita zo‘r she’r yozaman. YOzib qo‘y, keyin esimdan chiqib qolmasin.

Oradan bir yil o‘tib Navoiyning besh yuz yillik yubileyi kunlarida G‘afur aka Navoiyga bag‘ish-langan she’rini yozdi. (Said Ahmad).

## 9- Amaliy mashg’lot

Erazm Rotterdamskiyning yozishicha:«Xushmuomalalilik xushmuomalalilikni keltirib chiqaradi va chaqiradi». SHunday deganda u mutlaqo haq edi. U bilan boshqa ulug‘ insonlar ham qo‘shiladilar:

«Takt yordamida hatto kuch bilan ham hech narsa qilib bo‘lmaydigan holatda muvaffaqiyatga erishish mumkin». (D.Lebbok)

«Xushmuomalalilik hech qancha turmaydi, lekin ko‘p narsa beradi». (M.Montegyu)

Har bir madaniyatli inson etiketning asosiy me’yorlarini nafaqat bilishi va ularga amal qilishi, alohida qoida va o‘zaro munosabatlarning zaruriyligini tushunishi lozim. Maneralar ko‘pincha insonning ichki madaniyatini, uning axloqiy va intellektual sifatlarini aks ettiradi. Jamiyatda o‘zini to‘g‘ri tutishni bilish juda katta ahamiyatga ega: u kontaktlarni o‘rnatishni osonlashtiradi, o‘zaro tushunishga erishishni ta’minlaydi, yaxshi va barqaror o‘zaro tushunishni yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, jamiyatning haqiqiy a’zosi bo‘lish uchun xushmuomala bo‘lish zarur.

**Quyidagi vaziyatli masalani mustaqil fikrlaringiz asosida hal qilishda qatnashing:**

### 1. Keng qiyofa texnikasi

Agar siz suhbatga yaxshigina tayyorlanib kelgan bo‘lsangiz va o‘z fikringizni miqdoriy ma’lumotlar yordamida asoslayotgan bo‘lsangiz-u, suhbatdoshingiz sizni maydalikda hamda vaziyatni butun yaxlitligini ko‘rmayotgan-ligingizda ayblayotgan bo‘lsin.

Sizni xulqingiz harakatlari: undan aniq ma’lumotlarga qarshi nimanidir qo‘ya olishini so‘rang. O‘zingiz faqat ayni shu sonlar asosida aniq qilib umumiy chiziq aniqlanayotganini ta’kidlang.

**Dialogni o‘qing va unda ilgari surilgan fikrlarga o‘z mulohazalaringizni bildi-ring:**

### Donolar bisotidan

YOzuvchi Sent-Ekzyuperi fikricha- «Ba’zan kulgu eng asosiy narsa bo‘ladi. Jilmayish bilan minnatdorchilik bildiradilar. U bilan mukofotlaydilar. Kulgu bilan senga hayot bag‘ishlaydilar. SHunday jilmayish borki, sen uning orqasidan o‘limga ham borasan». Mehribonlarcha jilmayish Sent-Ekzyuperida insoniylik va rozilikning ramzi bo‘lib qoladi.

Xushmuomalalilik- bu odamlarga hurmat xulqining kundalik me’yori va atrofdagilarga murojaat qilishning odatdagi usulini yaxshi egallagan kishini tavsiflaydigan axloqiy sifatlardir. Xushmuomalalilikni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Aynan bu erda bolani insoniy muloqot san’atiga oʻrgatadilar. Xushmuomalalilik- bu boshqa odamlarga boʻlgan munosabatdagi ishlari miqdori orqali kishining ichki madaniyati ochilishidir.

Xushmuomalalilik asosida abadiy axloqiy qadriyatlar yotadi: kattalarga hurmat, insoniylik sha’nini tan olish, oxir-oqibat odamlarga xayrixoh munosabat. Xushmuomalalilik formulalari kishilarga birga yashashga, distansiya saqlashga va bir-birlarini huquqlarini hurmat qilishga yordam beradi.

Lekin aslida-chi, hayotda buning aksi boʻlib chiqsa-chi, ya’ni aytadigan boʻlsak, dilimizni yaralaydigan, muomala madaniyatini egallamagan, badiiy soʻzlash mahoratiga ega boʻlmagan kishilarning soʻzlari aksariyat hollarda ma’nosiz va xira boʻlib, ular zaboni bilan darz ketkazilgan koʻngilni qaytadan tiklash mushkul boʻladi.

Ta’kidalash kerakki, tartibli va odobli kishi nafaqat rasmiy tadbirlarda, balki uyda ham oʻzini etiket qoidalariga amal qilgan holda tutadi. Haqiqiy xushmuomalalilik u yoki bu sharoitda nima qilish va nima qilmaslik kerakligini bildirib turadigan xayrixohlik, me’yor hissi bilan shartlanadigan mezondir. Muloyimlik etiketlariga amal qiladigan odam hech qachon soʻzi bilan jamoat tartibini buzmaydi, xulqi bilan boshqa odamlarni hafa qilmaydi, ularning sha’nini haqorat qilmaydi

## 10- Amaliy mashg’lot

Mustaqil ishlari uchun material.

Matnni oʻqing va oʻz mulohazalaringizni bildiring.

### Erkin A’zam asarlarida koʻngil tasviri

Koʻngil – eng noyob tuygʻularning muqaddas qoʻrgʻoni, jismi jonimizga hadya etilgan eng ardoqli xazina. Nurday shaffof, gulday nozik, billurdek nafis. Odamzotni jamiki mavjudodlardan ulugʻ sifatlarining Vatani koʻngil. U cheksiz osmonga oʻxshaydi. Olamni yorqin ranglarda koʻrmoqlik imkonini beruvchi hayot ishqi bilan limmo-lim. Bu makonda faqat uning oʻzigagina tanish va ma’lum haqiqat timsoli yashaydi. Koʻngil uyimiz adolat va ezgulik istagi, komillik va oʻzlikni anglash orzusi bilan munavvardir.

“Koʻngilga yoʻl topish”, “koʻngil olish” zahmatli yumush. Axir “boʻyimday boʻy topdimu, koʻnglimday koʻngil topmadim” deya zorlanganlar qancha?..

"O'zim har joydaman, ko'nglim sandadir" deya nola chekkanlar kammi? Ko'ngil eng nozik yaralmish. Ko'ngilni asrash esa undan-da nozik ish...

YOzuvchining ko'nglida kechgan sir-asrorlar pinhoniy. Uning o'z tug'yonlari, o'z to'lqinlari, chaqmoqlari, yomg'irlari bor. Biroq qalamkash qalbining oftobi borliqqa eng yorug' nurlar tortiq etishga qodir. Uning yog'dulari yuraklarga yashash zavqini tortiq etadi. Hayot mohiyatini tushunishga, inson qadrini yuksak tutishga, yurtni sevish, haqiqatga tik boqish, yaxshilik umidi bilan yashash, oq va qorani anglashga o'rgatadi. Samimiy, ko'ngilning g'uborsiz manzillaridan qog'ozga to'kilgan tuyg'ular yuraklarga oson etadi. YOzuvchi Erkin A'zam bitiklarida ham mana shu samimiyat, beg'uborlik, xalqqa yaqinlik va albatta, biroz kinoyali qochirimlar ko'zga tashlanib turadi. YAna shuni ham ta'kidlash joizki, yozuvchi ko'ngil tasvirini o'z asarlarida nozik ifodalash asnosida, achchiq kinoyaviy so'zlar vositasida hayot falsafasidan bahs yuritadi.

Erkin A'zamning ilk hikoyasidayoq bo'rtib ko'ringan va uning ijodiy takomilida qudratli bir qanot bo'lib xizmat qilgan bu milliylik, o'zbek millatiga xos bo'lgan tuyg'ularni o'zida mujassamlashtira olgan sifatlarni mahorat bilan tasvirlaydi hamda kinoyaviy ifoda tarzi adibning indivudual uslubiga asoslanib ketganligining guvohi bo'lamiz. Erkin A'zam keyingi yillarda, xususan, mustaqillik yillarda barakali ijod qilib, nafaqat kitobxon balki adabiyotshunos olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

"Suv yoqalab" asarining bosh qahramoni Bolta Mardon – sobiq kolxoz raisi. SHo'ro davrida jamoa xo'jaligi raisi bo'lgan, asar personajlaridan biri aytgandek, "necha yil dovruq solib davron surgan odam", hozirda esa "davri o'tgan" oqsoqol. Adib asar voqealarini tasvirlash jarayonida bot-bot "davri o'tgan" iborasiga to'xtalib, qahramonlar nutqida ifodalaydi.

SHu o'rinda "davri o'tgan" iborasi ikki xil mazmun kasb etganligini anglash mumkin:

1. Ma'lumki, kinoya hosil qilishda intonatsiyaning roli muhimdir. Intonatsiya har qanday kinoyaviy so'z vositasining ta'sir kuchini ikki baravar oshirib ifodalash uchun xizmat qiladi. SHu bilan bir qatorda insonning tuyg'ulari, intilishlari, maqsadlari boshqalarga intonatsiya orqali tez etib boradi. Asarda obrazlar tilida keltirilgan "davri o'tgan" iborasi nim kinoya tarzida ifodalangan. Jumladan,

– Siyosat qiladimi, qilmaydimi, davri o'tdi-da endi[1].

– Bolta Mardonning davri o'tgan! (72)

–O'-o' rais, kattaligingni boshqaga qilasan, xo'pmi? Davring o'tdi sening! (88)

Asar qahramoni Bolta Mardon o'z mahalladoshlari tomonidan aytilgan ushbu so'zlardan ko'ngli ranjiydi, o'yga toladi. Umr bo'yi barcha sa'iy-harakatlari shu

xalqining farovonligi, ravnaqi, taraqqiy etishiga safarbar etildi. Ammo ba’zi yurtdoshlari bu kabi mehnatlarini unitib, uning “davri o‘tganligini” andishasizlarcha ta’kidlashadi. Bunda yozuvchi inson mehnatini qadrlash, e’zozlash singari tuyg‘ularni targ‘ib etadi va o‘quvchini mana shunday tuyg‘ularni unutmaslikka chaqiradi.

2. Kinoya zaminida o‘z navbatida tanqidiy fikr bilan bir qatorda achinish tuyg‘usi ham yotadi. Ushbu keltirilgan “davri o‘tgan” iborasida inson umrining o‘tkinchiligi, lavozimining omonatligiga ishora etiladi.

– Necha yil dovruq solib davron surgan odamning ahvolini ko‘ring – suv yoqalayman deb yuribdi bugun!

–Hali baquvvat-at. Siyosatini qarang!

–SHu, sizning davringiz ajab zo‘r davrlar ekanda, rais bobo!

SHundan anglashiladiki, bu dunyoning o‘tkinchi ekanligi, bir lahzada insonga berilgan umr poyoniga etishi va mana shu qisqa vaqt oralig‘ida inson ezgu ishlarni qilishga, el-koriga yarab, yaxshi nom qoldirishga da’vat etadi. Insonga bir marotaba beriladigan bu umr davomida ko‘ngil amriga quloq solishi, vaqt o‘tgach qilgan amallariga afsus, nadomat ko‘zi bilan emas shukronalik hissi bilan qarashga ishora etadi.

## AMALIY MASHG’ULOTLAR UCHUN KEYSLAR BANKI

**Amaliy mashq’ulot. Keys №1.**

Ushbu savollarga e’tibor bering:

**nima?**

**kim?**

**qachon?**

**nima uchun?**

**qanaqa?**

**Matn asosida yuqoridagi savollarga javob bering.**

Ibn Abdulbarr, al-Marhabiy va al-Xatib keltirgan rivoyatda Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anhu tolibi ilmga quyidagi nasihatni qiladilar: «Olimning senda bo‘lgan haqqi:

1. Unga ko‘p savol bermaslik.
2. Javobni qattiq talab qilib uni charchatmaslik.
3. U xohlamasa, mahkam yopishib olmasligingdir.
4. Agar tanballik qilsa, kiyimidan tutmasligingdir.

5. Ustozga qo‘l bilan ishora qilmaslik.
6. Unga ko‘z qisib ham ishora qilmaslik.
7. Odamlar bilan majlis qurib o‘tirganda so‘ramas-ligingdir.
8. Uning adashishining payidan bo‘lmaslik.
9. Uning ro‘baro‘sida o‘tirmoq.
10. Olim suhbatining uzunligidan malol olmaslik.
11. U bir xurmoga o‘xshaydi. Sen undan o‘zingga qachon manfaat tushishiga intizor bo‘lib turmog‘ing kerak.

3.3. O‘quv mashg‘uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

3.4. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish uchun topshiriq beradi

## Amaliy mashq’ulot. Keys №2.

1. Bir tup tut, tutning tagida bir tup turp. Tut turpni turtib turibdimi, turp tutni turtib turibdimi?
2. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tubsiz dedingizmi,
3. Oq choynakka ko’k qopqoq, ko’k choynakka oq qopqoq.

Ushbu tez aytishlar nutq madaniyatini ifodalaydimi? .

## Amaliy mashq’ulot. Keys №3.

Matnini ushbu jadval asosida taxlil qiling va yangi ma’lumotlar bilan to’ldiring.

### «INSERT» jadvali

| ***Javoblar varianti*** | ***V*** | **+** | **-** | ***?*** |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

V – bilaman.

+ - yangi ma’lumot.

- - bilganlarimga zid.

? – menda savol bor.

Ey farzand bilgilki, kishi to‘rt nav bo‘lur: Biri ulkim, bilur va bilg‘onin ham bilur. Ul olimdir, unga tobe bo‘lmoq kerakdir. Biri uldurkim, bilmas va bilmog‘onin bilur, ul qobildir, unga o‘rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg‘onin bilmas, ul uyqudadir. Uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag‘onin ham bilmas, u johildir, undan qochmoq kerakdur. So‘z ham to‘rt navdur: biri bilmayturg‘on va aytilmayturg‘on; ikkilanchi, aytiladturg‘on va bilinaturg‘on; uchlonchi ham bilinaturg‘on va ham bilishga zaruriyatsiz ammo aytsa bilinaturg‘on; to‘rtlonchi, bilinmayturg‘on va aytilmaturg‘on. Ammo aytilmayturg‘on va bilin-mayturg‘on undoq so‘zdurki … dunyoning saloxi unga bog‘liqdur. Ul so‘zdin aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko‘p naf etar. Ammo bilinaturg‘on, biroq aytilmayturg‘on undoq so‘zdurlarki, bir muhtashim odamning aybi senga ma’lum bo‘lur. Lekin aql tariqidin, uni aytmoq besharmlikdur. Chunki aytsang ul muhtashimning qahri, yo ul do‘stning ozori senda hosil bo‘lur yoxud o‘z boshingga ulug‘ sho‘rish va g‘avg‘o paydo qilursan.

**Amaliy mashq’ulot. Keys №4.**

**“Dorixonada**” mavzusida dialog tuzing. Nutq madaniyatiga e’tibor bering. Dialogda quyidagi savollarga javob bering:

**nima?**

**kim?**

**qachon?**

**nima uchun?**

**qanaqa?**

**Amaliy mashq'ulot. Keys №5.**

Topishmoqning javobini toping. Avval miqdor sonlarni, so'ng tartib sonlarni ko'chiring.

To'planib o'n o'g'il-qiz,

- Mezbon-mehmon o'ynaymiz

Deyishar: - Sobir, sana,

Adashib ketma yana.

Toq sonlar bo'lar mezbon,

Juft sonlar aziz mehmon

Nodir bo'ldi birinchi.

Ikki – singlim "Durdona",

Uchinchisan, Guldona.

To'rtsan, Dilshod, Lola – besh,

Dildor – olti, yetti – Esh.

Sakkizinchi sen, Gulqiz,

Ahmadullo-chi – to'qqiz.

Iya, o'n yo'q-ku, qarang!

Topmas Sobir, bosh – garang.

Sobir sanar: - Ko'ring-chi,

O'rtoqlari kulishar:

- Boshqa sana, - deyishar.
- Yordam bering siz endi,

Chiqmagan o'n kim edi!

**Topilgan sonlar ishtirokida mutaxassisligingizga goir so'z birikmalarini tuzing.**

**Amaliy mashq'ulot. Keys №6.**

**O'zbek maqollari.**

Maqol xalq og'zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo'lgani bilan ularda juda keng ma'no mujassam bo'lgan.

Tilimizning bu bebaho boyligini o'rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan shug'ullanib kelganlar.

Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg'ariy XI-asrdayoq turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasining o'zining uch jildlik lug'atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog'i shakl va mazmuniga ko'ra hozirgi o'zbek tilidagidan farq qilmaydi.

Mashhur masalchi Gulhaniy (XIX asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to'plab, ularni bir tizimga jamlab, "Zarbulmasal" asarini yaratgan.

Adabiyotshunos olimlarimiz "O'zbek xalq maqollari" kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflagan.

Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi taxminan 800 ga yaqin maqol va matallar haqida tushunchaga ega bo'lar ekan.

Siz-chi? Siz qancha maqolni bilasiz? Maqollar nutqimiz durdonasimi?

**Amaliy mashq'ulot. Keys №7.**

Matnni "SWOD-taxlil"metodi asosida taxlilqiling.

## INSON ODOBI BILAN

Bolajonlik – xalqimizga xos azaliy odat. Oilada farzand tug‘ilishi ota-onalarga ham, qarindosh-urug‘ va yaqin kishilarga ham zo‘r quvonch baxsh etadi. Yangi "mehmon" sharafiga boshlangan xursandchilik ancha kungacha davom etadi. Kelgan kishilar uy egalarini yangi "mehmon" bilan qutlab, "Katta bo‘lsin", "Baxtini ko‘ring", "Aqlli-xushlikkina bo‘lsin" degan yaxshi istaklar bilsdirishadi.

Ota-ona farzandiga yaxshi niyat bilan ism qo'yadi, shu kundan uning kelajagi baxtini o'ylaydi. Farzandni ahloq-odobga o‘rgatish, o‘qitish, kattaroq bo‘lganda biror kasb-hunar egasi bo‘lishga g'amxo‘rlik qilish ota-onaning burchidir.

Bolani kasb-hunarga o‘rgatishda qadimdan “ota kasb – ona rasm” naqliga qattiq rioya qilingan. Shunga ko‘ra o‘g‘il bola bolalik chog‘idanoq ota yonida dastyorlikka o‘rgatiladi, ota hunarini egallagan, qiz bola esa ona rasmini tutgan…




**Amaliy mashq’ulot. Keys №8.**

Do’stingiz yoki kursdoshingizning xususiyatlarini taqqoslang va jadvalni to’ldiring.

| Ijobiy xislatlar | Salbiy xislatlar |
|---|---|
| | |

**Amaliy mashq'ulot. Keys №9.**

Quyidagi sxema asosida mutaxassisligingiz doir gaplar yozib keling.

1. ______________ , shuning uchun _________.
2. ________ va ______ ____________________.
3. ______________, chunki ___________________.
4. _____, _______ hamda ____ ___________________.
5. ________ bilan ________ ____________________.

**Amaliy mashq'ulot. Keys №10.**

**Bilasizmi?**

Toshkent metrosi 1973- yilda qurila boshlandi. Uning birinchi yo'nalishining birinchi qismi (S.Rahimov bekatidan hozirgi Amir Temur bekatigacha 9 ta bekat) 1977- yil 6 noyabrda qurib bitkazilgan. Uning uzunligi 12,2 km. Bu yo'nalishning 3 bekatdan iborat ikkinchi qismi (Amir Temur bekatidan hozirgi Buyuk Ipak yo'li bekatigacha) 1980 yil 18 avgustda ishga tushdi. Bu qismning uzunligi 4,6 km. Shunday qilib, birinchi yo'nalish 12 ta bekatdan iborat.

Metroning har bir bekatining bezagi bekat nomining mazmunidan kelib chiqib bajarilgan.

1981 yilda ikkinchi yo'nalishning birinchi qismi: Toshkent bekatidan Navoiy bekatigacha 5 ta bekat qurilishi boshlandi. Uning uzunligi 5,5 km.

Hozirgi kunda metro qurilishi to'xtatilgani yo'q: endi metroning uchinchi yo'nalishidagi birinchi qismi ishga tushib, ikkinchi qismining qurilishi bo'yicha ish olib borilmoqda.

Ushbu matn asosida **Toshkent Farmasevtika istituti** haqida ma'lumotlar to'plang va yozing.

**Adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Toshkent, " O'zbekiston" NMIU, 2017.-47b

3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b

4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.

5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.

6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.

7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.

# III. Mustaqil ta’lim mavzulari va materiallar

## Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta’minlangan.

Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan mavzular yuzasidan ma’lumotlarni qayd qiladi. Yozma va og‘zaki nutqining shakllantirishga oid badiiy asarlar mutolaa qiladi hamda tahlil qiladi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar yechadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar

talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Nutq madaniyati” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning deyarli barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 4 mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

| | **Mustaqil ta’lim mavzulari** | **Berilgan topshiriqlar** | **Bajarish muddati** | **Hajmi (soatda)** |
|---|---|---|---|---|
| | Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 5 |
| | Antik davr notiqlari | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 5 |
| | Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 4 |
| | Til va nutq. Nutq odobi muammolari | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 4 |
| Jami | | | 4 hafta | 18 |

# GLOSSARIY

**Sadpora** – poet. Yuz pora, pora-pora, chil-chil. Yaxshi kunlar bo‘lib qora, Yuragim necha sadpora. “Alpomish”. (Navoiy) ajal ko‘ksini pora-pora qilmish. Achinmay bag’rini sadpora qilmish. Uyg’un va I. Sulton, Navoiy.

**Sajdagoh** – 1.din. Sajda, ibodat qilinadigan joy; qadamjo. 2. ko‘chma Muqaddas, aziz joy. Mana o‘sha uy, mana mening sajdagohim. T.Jalolov, Oltin qafas.

**Sazovor** – qilmishi, xizmati yoki belgilariga ko‘ra biror bahoga arziydigan; munosib, loyiq. Rohat qilsin, mayli haqli, u sazovor. G‘. G‘ulom. Otabekka bu yo‘lda ko‘makchi bo‘lib yurgan Marg‘ilon fuqarosi Mirzakarim qutidor ham shu jazoga sazovor tutiladi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. Sazovor bo‘lmoq 1) arzimoq, loyiq, munosib bo‘lmoq. Shokir otasidan shunday iltifotga, maqtovga sazovor bo‘lgan singlisini to‘yib ko‘rish uchun ko‘zlari hovlini aylandi. Oybek, Qutlug‘ qon. Janobning oldilarida sharmisor, g‘azabga sazovor bo‘ldim, A. Qodiriy, Mehrobdan chayon; 2) loyiq, munosib topilmoq, erishmoq. Respublikada xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi unvoniga sazovor bo‘lmoq.

**Sayil** – 1. etn. Bahorda o‘tkaziladigan katta xalq sayr-tomoshalari, sayr-tomosha. Ayni bahor kulgan chog’ edi, Sayil joyi so‘lim bog‘ edi. E. Vohidov. 2. Umuman katt va tantanali sayr-tomoshalar. Festival-yoshlik sayli, Qo‘shiqlar uchsin mayli, Shodiyona tinmasin, Qirq kecha-kunduz, mayli! Yo. Mirza. Suvda yulduzlar Barq urib turar, Go‘yoki qizlar Sayilda yurar. Shayxzoda. Vodakachkaning ochilish marosomi katta to‘yga, kattakon sayilga aylanib ketdi. A. Qahhor, Qo‘shchinor. Sayil bog‘ – xalq sayillari o‘tkaziladigan katta bog‘, park, sayilgoh. Qovun sayil – qovunxo‘rlik va sayr-tomosha maqsadida ko‘pchilik bo‘lib dalaga – qovun polizga chiqish. Bugun bizga qo‘nib boradilar-da. Qovun pishib qoldi, qovun sayli qilamiz. N. Safarov, Jangchi shoir. 3. Sayr-tomosha ,aqsadida kezib yurish; sayohat. Sayil ham Sayil, sargardon ham sayil. Maqol. – Bir yili shaharma-shahar sayil qilib, Batumiga borib qoldim, - dedi Bondar. Shuhrat, Shinelli yillar.

**Salom** – 1) Yuzma-yuz uchrashganda yoki g‘oyibona tabriklash so‘zi va shu so‘z bilan yoki imo-ishora orqali ifodalangan tabrikning o‘zi. Qizg‘in salom. Salom demoq (aytmoq). Salom bermoq. Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom. Maqol. Salom ham farz, alik ham farz. Maqol. Uchib o‘tgan qaldirg‘och, Ishqimga qilgin iloj, Intizordir chilvir soch, Yetkazgil salomimni. Yo. Mirza. Azizbek mudofe’larning salomlariga javob qaytarishni ham unutib, ko‘zini kesik boshlarga tikdi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. Elmurod “salom” deb harbiycha ko‘rishish uchun qo‘lini chekkasigacha olgan edi, u qo‘l uzatdi, ko‘rishdilar. Shuhrat, Shinelli yillar. G‘ulomjon egilib salom berdi, sog‘-salomatlik so‘radi. M. Ismoiliy, Farg‘ona t. o.

U supaga yaqinlashgach, Yo‘lchi o‘rnidan turib salom berdi va onasining salomini topshirdi. Oybek, Qutlug‘ qon. U kirgach, salom yo‘q, alik yo‘q, tomdan tarasha tushganday: “nimalar deb valdirayapsan”, - deb o‘shqirdi. “Mushtum”, 1959, № 9.Salom alaykum ayn. salom 1. Salom zat(i) – salom yo‘llab, sog‘-salomatlik tilab yozilgan xat, salomnoma. 2) tar. Amir, xon bilan uchrashuv va undagi salom-alik marosimi. Ertalab xonning xaramdan chiqish vaqti yaqinlashgan, salom va istiqbol uchun xoslardan sakkiz-to‘qqiz yig‘ilgan edilar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. Salom og‘asi – amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilgan va rasmiyatlarning to‘g‘ri bajarilishi ustidan nazorat qilib turgan lavozimli shaxs. Supachalar ustida udaychi, shig‘ovul, salom og‘asi, tunqotarva darbon kabi tashrifotxodimlari o‘tirardilar. Ayniy, Jallodlar. 3) etn. Kelinchakni to‘ydan keying kun erta bilan kuyov ota-onalariga ta’zimga olib chiqish marosimi va umuman kelinchaklarning ta’zimi; kelinsalom. O‘yindan keyin kechagi soqolli kampir kelinni “salomga” olib chiqdi. Oybek, Qutlug‘ qon. Jon qizim, eringni izzat qil! Qaynanangni izzat qil! Ertalab salomga chiqayotibsanmi? A. Qahhor, Og‘riq tishlar. Ra’no kelinlarcha Anvarga salom qildi va jazb qilinganday, Anvarning yaqiniga borib to‘xtadi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

**Salohiyat** – qobiliyat, iqtidor. Men unga Tursunoy, uning yuksak iste’dodi salohiyati, fojiali o‘limi to‘g‘risida so‘zlab berdim, - dedi Halima. H. Nosirova, Men o‘zbek qiziman.

**Samimiy** – sidqidillik bilan, chin qalbdan qilingan, aytilgan; yurakdan, dildan chiqqan; samimiyat, sidqidillik ifodalovchi. Samimiy salom. Samimiy do‘stlik. Samimiy iltifot. Samimiy muomala. Mening ushbu so‘zlarim eng samimiy, yurakdan. Z. Diyor. Anvar samimiy va riyo aralash tabriklardan ancha o‘ng‘aysizlangan edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. Ular bilan samimiy hayrlashgach.

**Taqvim** - vaqt o‘lchovlari-kun, hafta, oy, yilni xisoblash tizimi. Vaqt o‘lchovlarini belgilash tabiat xodisalarining samoviy yoritkichlar harakati bilan bog‘liq davriyligiga asoslanadi. Taqvim hisobining asosi yil bo‘lib, yilning fasl va oylarga bo‘linishiga va davomiyligiga qarab tuzilgan oy taqvimi, oy-quyosh taqvimi va quyosh taqvimi mavjud.

**Oy taqvimi**. Erning tabiiy yo‘ldoshi Oyning bir oylik aniq harakati - 29 kun 12 soat 44 daqiqa 2 soniya muddatga asoslanadi. Oyning g‘arbda o‘roq shaklida ko‘rinishi oy boshi hisoblanadi. Oyning yana shu xolatga qaytib kelishigacha o‘tgan muddat bir oyni tashkil qiladi. 29,5 kunning 12 soati xar ikki oyda bir kun qilib qo‘shib boriladi. SHuning uchun oy taqvimida toq oylar 30 kun, juft oylar 29 kundan qilib belgilangan. 12 soatning qo‘shimchalari (44 daqiqa 2 soniya) to‘rt yilda yig‘ilib bir kun bo‘ladi va u kabisa yilining o‘n ikkinchi oyi oxiriga 29 kunni

30 kun qilib qo‘shib qo‘yiladi. Oy taqvimida oddiy yil 354 kun, kabisa yili 355 kun bo‘ladi. Oy taqvimi musulmon olamining xijriy yil hisobiga asos qilib olingan.

**Oy-quyosh taqvimi**. Oy va quyoshning xarakatiga asoslangan murakkab taqvim. Bu taqvimda yil 12 oy (bir yili 353-355 kun)dan, ba’zan esa 13 oy (bir yili 383-385 kun)dan iborat bo‘ladi. Oy-quyosh taqvimining xar 19 yilidan 12 yili 12 oydan, 7 yili 13 oydan qilib hisoblanadi. Arablar johiliyat davrida-islomdan avval oy-quyosh taqvimiga amal qilganlar. Bu taqvimdan yahudiylar miloddan avvalgi IV asrdan boshlab xozirgacha foydalanib keladilar. O‘rta asrlarda xitoylar ham oy-quyosh taqvimini qo‘llaganlar.

**Quyosh taqvimi.** Bu taqvim Er quyosh atrofini bir marta aylanib chiqish muddati - 365 kun 5 soat 48 daqiqa 46 soniyaga asoslanadi. Bir yilni ana shu muddat bilan hisoblash qadimgi misrliklar, eroniylar, xorazmiylar va boshqa xalqlar taqvimlariga asos qilib olingan. Quyosh taqvimida yil 12 oydan iborat. Bir yil 365 kun 6 soatni tashkil qiladi (5 soat 48 daqiqa 46 soniya yaxlitlanib 6 soat qilib olinadi). Uch yil 365 kundan, oddiy yil, to‘rtinchi yil esa oddiy yillardan ortib qolgan soatlar 1 kun qo‘shilib 366 kun - kabisa yilidan iborat bo‘ladi. Hozirgi vaqtda dunyo xalqlari quyosh taqvimiga asoslangan yil hisobini qabul qilganlar. Er kurrasidagi xalqlarning barcha aloqa va munosabatlari quyosh taqvimi bo‘yicha olib boriladi.

YUqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, taqvimlar har xil bo‘lgan. Jahondagi turli xalqlar mazkur taqvimlarning biridan foydalanganlar. Ular taqvimni o‘z hayotlariga, turmushlariga tatbiq etishni o‘z tarixlarida chuqur iz qoldirgan voqealar davridan boshlaganlar. Ana shu voqea, ya’ni taqvim boshlangan davrni har bir xalq o‘z xayotida tarix boshi-boshlang‘ich tarix deb qabul qilgan. Boshlang‘ich tarix-taqvim boshlanishi (ruscha "era")ga turli xalqlar turli voqealarni asos qilib olganlar. Masalan: yahudiylar xilqat (dunyoning yaratilishi)ni, misrliklar Nil daryosining toshishini, yunonliklar ilk olimpiada o‘yinlarini, rimliklar Rim shahrining qurilishini, nasroniylar Iso alayxissalomning "tug‘ilishi" (milod)ni, musulmonlar Muhammad alayhissalomning Makkadan Madinaga xijratlarini asos qilib olganlar va hokazo.

Tarix boshi - taqvim boshi bo‘lgan yuqoridagi voqealarning ko‘pi unutilib ketgan. Ulardan bugungi kunda madaniyat dunyosida faqat milod va hijrat boshlang‘ichlari qolgan xolos.

Demak, tarixda turli xalqlar xar xil taqvimlardan foydalanganlar. Har bir taqvimni yuritishning o‘ziga xos qoidalari, taqvim boshining sababi va boshlanish vaqti, oylar soni va har bir oyning necha kundan iboratligi boshqa taqvimlarga solishtirilganda tafovutlar borligi ma’lum bo‘lgan. Bu tafovutlarni bartaraf etish,

mumkin qadar aniqlikka erishish maqsadida vaqti-vaqti bilan taqvim sohasida islohotlar oʻtkazib turishgan. Taqvimni tuzatib, toʻgʻrilab turish yoʻlidagi bu ishlar xukmdorlar, falakiyot va riyoziyot olimlari, hisobdonlarning birgalikdagi maslahat va takliflari asosida amalga oshirilgan. Markaziy Osiyoda qoʻllangan taqvimlar va Ovrupoda ilk oʻrta asrlardan boshlab qoʻllanib kelayotgan milodiy taqvim tarixida bir necha islohotlar boʻlib oʻtgani maʼlum.

Turkiston zaminida yashab kelayotgan xalqlar taqvim-yil hisobidan foydalanishda dunyoning eng madaniy xalqlaridan biri hisoblanadilar. Bu oʻlkada taqvimlarga amal kilish qariyb uch ming yildan buyon davom etib keladi. Shu davr mobaynida Turkiston xalqlari qadimgi turkiy, xorazmiy, sugʻd, avesto (qadimgi eron), yazdigir, Hijriy-shamsiy, Hijriy-qamariy, melodiy yil hisoblaridan foydalandilar. Biz quyida Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshgʻariy, Umar Xayyom, Mirzo Ulugʻbek va boshqa olimlarning asarlaridan hamda turli tarixiy ilmiy va adabiy manbalardan foydalangan holda yuqorida sanab oʻtilgan yil hisoblarining boshlanishi tuzilishi va amalda qoʻllanishi xaqida baxoli qudrat mulohaza yuritamiz.

**Qadimgi turkiy yil hisobi -** Turkiy xalqlarning eng qadimgi va ilk oʻrta asrlarda koʻllagan taqvimlari, yil hisoblari haqida juda oz maʼlumotlar saqlanib qolgan. Bu xaqda maʼlumot beruvchi manbalar Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va Mahmud Qoshgʻariyning "Devonu lugʻotut turk" asarlaridir.

Abu Rayxon Beruniy oʻz asarining uch joyida turkiy xalqlar taqvimini eslatib oʻtadi. Asarning 103-saxifasida qator sharq xalqlari taqvimlari haqida gapirib turk va hazarlarni xam tilga oladi: "Hind, xitoy, tibet, turk, hazar, xabash va zangi kabi boshqa millatlarning oylariga kelsak, garchi ulardan baʼzisining nomlari bizga aniq maʼlum boʻlsa xam, to ularning barchasini bilish vaqti kelguncha bayon etishdan toʻxtadik".

Beruniy ikkinchi marta oʻz asarining 104-saxifasida quyidagilarni yozadi: "Bular (yaʼni turkiy xalqlar taqvimi)ning miqdorlari, maʼnolari va kayfiyatlaridan voqif boʻlmadim". SHundan keyin olim turkiy xalqlar taqvimidagi oʻn ikki oy nomini beradi: 1. Ulugʻ oy. 2. Kichik oy. 3. Birinchi oy. 4. Ikkinchi oy. 5. Uchinchi oy. 6. Toʻrtinchi oy. 7. Beshinchi oy. 8. Oltinchi oy. 9. Ettinchi oy. 10. Sakkizinchi oy. 11. Toʻqqizinchi oy. 12. Oʻninchi oy.

Beruniy mazkur sahifada yana turk taqvimi haqida gapirib "Turk jadvali" degan sarlavha ostida oʻn ikki hayvon nomi bilan ataladigan oʻn ikki yillik muchal hisobining nomlarini ham keltiradi: 1. Sichqon. 2. Ud (sigir). 3. Bars. 4. Tovushqon (quyon). 5. Luy (baliq) 6. Yilon (ilon). 7. YUnt (ot). 8. Qoʻy. 9. Pichin (maymun). 10. Tovuq. 11. It. 12. Toʻngʻiz.

YUqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, turkiy xalqlarning asosiy taqvimi muchal hisobidan iborat bo‘lgan yilning o‘n ikki oyi Beruniy keltirgan nomlar bilan atalgan. Biroq Beruniy turkiy xalqlarda qadim zamonlardan buyon biror voqea asos qilib olingan "Tarix boshi" deb atalgan, raqam bilan hisoblab kelinadigan yil hisobi to‘g‘risida ma’lumot bermaydi. SHu bilan birga yuqorida aytilgan o‘n ikki oyning kunlar miqdori, oddiy va kabisa yili, yilning boshlanishi yangi kunning qachondan hisoblanishi qam aytilmaydi. Har holda qadimgi turkiy xalqlarda ham YAqin va o‘rta SHarqdagi boshqa taqvimlarda bo‘lgani kabi yil boshi bahorgi tengkunlikdan boshlangan. CHunki qadimgi turkiy xalqlar qo‘llagan muchal yilining birinchi kuni bahorgi tengkunlikdan hisoblanadi.
XI-asrning buyuk tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariy "Devonu lug‘otut turk" asarining birinchi jildida turkiy xalqlarning taqvimi haqida qisqacha to‘xtab o‘tadi. Mahmud Qoshg‘ariy ham Abu Rayhon Beruniy kabi qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan tarix boshi (era) haqida qech narsa demaydi. Olim faqat Beruniy keltirgani kabi yilning o‘n ikki oyini beradi. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy xalqlarda kunlarning nomi yo‘qligini, arablar kelgandan keyingina kunlar hafta ichidagi kun nomlari bilan aytilishi odat tusiga kirganligini qayd etadi. SHundan so‘ng tilshunos olim turkiy xalqlar azaldan muchal hisobidan foydalanib kelayotganliklarini yozadi. U muchal tarkibiga kirgan o‘n ikki hayvon nomini sichqondan boshlab to‘ng‘izgacha sanab o‘tadi. Ayrim olimlarning fikricha turkiy xalqlarda tarix boshi (era) bo‘lgan va u turk xoqonligining 571-yilda o‘rnatilishidan boshlanadi, deydilar. Bu fikrni isbotlash uchun Urxun-Enasoy yozuvlarida bitilgan qabr toshlaridagi bitiklarga murojaat qilaylik. Jumladan Kultegin yodnomasi shunday tugallanadi. "Kultegin qo‘y yilida o‘n ettinchi kunida o‘ldi. To‘qqizinchi oyning yigirma ettisida azasini o‘tkazdik. Binosini, naqshini, bitiktoshini Maymun yilida, ettinchi oyning yigirma ettisida butunlay tugatdik. Kul tegin qirq etti yoshida vafot etdi". YUqoridagi sanani Xitoy yilnomalari bilan qiyoslab hisoblanganda melodiy 731-yilning 27-fevrali kelib chiqadi.
Bilga xoqon yodnomasining xotimasi shunday: "Otam xoqon it yili o‘ninchi oyning yigirma oltisida vafot etdi. To‘ng‘iz yili beshinchi oyning yigirma ettisida dafn marosimini qildirdim". Ushbu sana 734-yilning 26-noyabrga muvofiq tushadi. Urxun-Enasoy yozuvidagi boshqa yirik yodnomalarda ham xotimada kitobat tarixi yuqoridagi tartibda beriladi. YA’ni oyning soni, uning kuni va muchaldagi hayvon nomi qayd etiladi. Azaldan davom etib kelayotgan tadrijiy yil hisobi-tarix boshi (era) bo‘lganda, Abu Rayhon Beruniydek sinchkov olim albatta ko‘rsatib o‘tgan bo‘lar edi.
Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy asarlarida va boshqa manbalarda turkiy xalqlarning asl yil hisobi 12 hayvon nomi bilan ataluvchi muchal hisobi bilan yuritilgan. Bu hisob turkiy xalqlardan tashqari mo‘g‘ul va xitoy xalqlarida ham

mavjud. Bu hisob keyinchalik Osiyoning boshqa xalqlariga ham tarqalgan.

**Xorazmiy yil hisobi -** qadimgi xorazmda yashagan xorazmiylarning quyosh taqvimiga asoslangan yil hisobidir. Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha xorazmiy yil hisobi O‘rta Osiyodagi eng qadimgi yil hisobi hisoblanadi. Bu taqvim Beruniyning ko‘rsatishicha Iskandar Zulqarnayndan 980 yil avval boshlangan ya’ni, meloddan avvalgi ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi. Abu Rayhon Beruniy yashagan davrda xorazmiy yil hisobi ikki ming yildan oshib ketgan bo‘ladi. Xorazmiy taqvimida bir yil 12 oyga bo‘lingan va har bir oy 30 kundan iborat bo‘lgan. Qo‘shimcha 5 kun yil oxirida 12-oyga qo‘shilgan va bir yil 365 kunni tashkil etgan. Har yili qoldiq sifatida ortib qoladigan chorak kunga xorazmiy taqvimida e’tibor berilmagan. YAngi yil bahorgi tengkunlikdan boshlangan. Oy nomlari Abu Rayhon Beruniy asarida ikki xil to‘liq va qisqartirilgan shakllarda keltiriladi. Oylarning to‘liq nomi juda uzun bo‘lib, ko‘pchilik tovushlarni undosh harflar tashkil qiladi. Beruniy xorazmiycha oy nomlarining qisqartirilgan shaklini quyidagicha keltiradi: 1. Novsorjiy. 2. Ardvst. 3. Xrvdod. 4. Jiriy. 5. Xmdod. b.Axshrivriy. 7. Avmriy. 8. Enoxi. 9. Arv. 10. Rimjd. 11. Arshmn. 12. Isfandorajiy. Beruniy oylarning to‘liq nomini bergan bo‘lsa-da, ammo kundalik ish yuritishda va ma’muriy hujjatlarda oylarning yuqorida keltirilgan qisqa shaklidan foydalanilgan. ^L/SH asr qadimgi xorazmiy yozuvi hujjatlarida va XP-X^ asr arab-xorazm yozuvi manbalarida oy nomlari yuqoridagi shakllarda qo‘llanadi. 12-oyga qo‘shiladigan 5 kunning maxsus nomi yo‘q. Qadimgi eron (avesto) va sug‘d taqvimida bo‘lgani kabi xorazmiy taqvimida ham oyning har bir kuni (30 kuni) alohida-alohida nom bilan yuritilgan. Beruniy 30 kunga qo‘yilgan 30 xil nomni ham beradi.
Xorazmiy taqvimi atamalari xorazmiy yozuvi va xorazmiy tili iste’moldan chiqishi bilan butunlay unutilib ketdi. Ayrim atamalar XIV asr xorazmiy tili yodnomasi "Kunyat ul-munyo"da uchraydi xolos.

**Sug‘d taqvimi.** Xorazmiy taqvimiga juda yaqin bo‘lgan sug‘d taqvimining vujudga kelishida xorazmiy taqvimi asos bo‘lgan bo‘lsa ajab emas, chunki xorazmiy tili bilan sug‘d tili ko‘p jihatdan bir-biriga yakin turadi. SHuni ham aytib o‘tish kerakki xorazmiy oylarining nomlari ham, sug‘d oylarining nomlari ham lug‘aviy jihatdan qanday ma’no berishi noma’lum. Bu haqda Abu Rayxon Beruniy ham to‘xtalmaydi. Xorazmiy tilidagi va sug‘d tilidagi hujjatlarda ham oylarning qanday ma’no anglatishi xususida ma’lumotlar yo‘q.

**Sug‘d yil hisobi -** Markaziy Osiyoda yashagan sug‘diylarning quyosh taqvimiga asoslangan yil hisobi. So‘g‘d taqvimi qadimgi eron (avesto) va xorazmiy

taqvimlariga juda yaqin bo‘lgan. Bir yil 12 oy va xar bir oy 30 kundan tashkil topgan. Ortiqcha besh kun yilning 12-oyi oxiriga qo‘shilgan. Bu besh kun alohida nom bilan aytilgan. Har yili qoldiq sifatida yig‘ilib boradigan chorak kunning to‘rt yilda to‘la bir kun bo‘lishiga e’tibor qilinmagan. YAngi yil bahorgi tengkunlikdan boshlagan. Sug‘d oylarining tartibi va nomlari quyidagicha: 1.Navsard. 2.Jarjin. Z.Naysanj. 4.Basokanj. 5.Ashnxanda. b.Majnda. 7.Farkon. 8.Obonj. 9.Fug‘. 10.Masfug‘. 11.Jamdanj. 12. Xashvim. Oylar nomlarining o‘qilishi va aytilishida ayrim tafovutlar bor. CHunki qo‘lyozma manbalarda (Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham) sug‘d oylarining nomi faqat undosh tovushlar bilan yozilgan. Undoshlar orasidagi unlilar yozilmagan. Sug‘diylar ham qadimgi eronliklar kabi oyning har bir kuniga (30 kunga) alohida-alohida nom berganlar. Sug‘d yil hisobi qachondan boshlanganligi va qaysi voqea asos qilib olinganligi to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha sug‘d taqvimi ancha qadimdan mavjud bo‘lsa-da rasmiy yil hisobi milodiy 413 yildan boshlangan. Sug‘d taqvimiga oid atamalar va yil hisobi sanalari ^-X asrlarga oid tangalar, bitiklar, maktublar va rasmiy davlat hujjatlarida tez-tez uchrab turadi. Sug‘d tili va yozuvining muomaladan qolishi bilan sug‘d taqvimi ham asta-sekin unutila boshladi.

**Avesto yil hisobi -** Eron va Markaziy Osiyo xalqlari qo‘llagan eng qadimgi yil hisobi, taqvim. Bu taqvim zardusht ta’limoti bilan birga vujudga kelganligi uchun zardusht taqvimi, oy nomlari va boshqa hamma atamalari "Avesto" kitobidan olinganligi uchun avesto taqvimi ham deyiladi. Eronda qo‘llangan eng qadimgi taqvim bo‘lganligi uchun hozirgi ilmiy adabiyotlarda qadimgi eron taqvimi nomi ham ishlatiladi.
Zardusht yil hisobi quyosh yiliga asoslangan bo‘lib, 12 oydan iborat. Har bir oy 30 kun, yana qo‘shimcha 5 kun bor. Bu 5 kun alohida oy hisoblanadi. Taqvimdagi 12 oyning nomi "Avesto"dagi ma’budalarning nomiga borib taqaladi. Oy nomlaridan tashqari oy tarkibiga kirgan kunlar (30 kun) ning ham alohida-alohida nomlari bor. "Avesto"ning milodiy VI asrda sosoniylar davrida tuzilgan matnida oylar va kunlarning to‘liq nomi ro‘yxati keltirilgan. Biroq ba’zi taqvim atamalari "Avesto"ning eng azaliy qismlari deb hisoblanuvchi miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tarkib topgan. "Gotlar"da ham uchraydi. Zardusht taqvimi qachon va qaerda tuzilganligi to‘g‘risida fanda hozircha aniq ma’lumot yo‘q. Olimlarning taxmin qilishicha bu taqvim SHarqiy Eron yoki Markaziy Osieda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida tuzilgan. Dastlab, g‘arbiy Eronda Ahmoniylar davrida rasmiy davlat taqvimi sifatida qabul qilingan (ilmiy adabiyotlarda qadimgi eron yil hisobi deb atalishining sababi ham shu). Bu holat Ahmoniylar davrida zardusht dinining keng yoyilishi bilan izohlanadi Zardusht taqvimi Hindistonda

hozirgi vaqtda istiqomat qilayotgan zardusht jamoalarining taqvimi bilan qiyoslab ko‘rilganda mazkur taqvim g‘arbiy Eronda Ahmoniylar davrida miloddan avvalgi 505,490,484,481, va 441 sanalarning biridan boshlangan deb hisoblash mumkin. Abu Rayhon Beruniy o‘zining "Xronologiya" asarida yuqoridagi yillarning eng oxirgisi-miloddan avvalgi 441 yilni eng to‘g‘ri sana deb oladi va zardusht taqvimi shu yildan boshlangan deb ko‘rsatadi. Zardusht taqvimi 365 kun, har biri 30 kundan tuzilgan 12 oy va yana 5 kundan iborat, to‘rt yilda yana 1 kun orttirilgan. Demak, har to‘rt yilda (kabisa yilida) 12-oyning oxiriga 5 kun emas, 6 kun qo‘shilgan. Zardusht yil hisobi qadimgi eron manbalarida - Behstun va Naqshi Rustam kitobalarida hamda boshqa yozma yodgorliklar va hujjatlarda tez-tez tilga olinadi. Shunday qilib zardusht taqvimi Ahmoniylar davridan boshlab davlatning ish yuritish bo‘yicha rasmiy taqvimi bo‘lib qoladi. SHu bilan birga bu taqvim zardusht dini bayramlari, rasm-rusumlarini olib borishda diniy taqvim ham bo‘lib qolaveradi.

**Norin** deganda avvalo, xayolimizga Namangan viloyatidagi tumanlardan birining nomi keladi. Tumanning bunday nomlanishiga o‘sha hududdagi Norin daryosi asos bo‘lgan. SHuningdek, bu so‘z asrlar davomida boshqa narsalarga nisbatan ham qo‘llanilib kelinganini qayd etish joiz. Masalan, Norin daryosi bo‘yida dastlab kapa (chayla) qurib yashagan odamlarning qishlog‘i Norinkapa deb atalgan. Qirg‘iziston Respublikasida ham Norin shahri, Norin viloyati hamda shu nom bilan ataluvchi soylik, Tyanshan tog‘ida esa Norintov tizmasi mavjud. Qirg‘iz tilida narin so‘zi o‘zbek tilidagi norin taomini va beshbarmoq nomli taom nomini bildiradi.

Umuman olganda norin so‘zi atoqli ot sifatida turkiy va mo‘g‘ul xalqlari yashaydigan katta hududlar, jumladan Volga bo‘yi, Ural, Tuva, Markaziy Osiyoda joy, suvli erlar, shuningdek, kishilar ismi ma’nosida ham uchraydi. O‘zbek xalqining, xususan, Toshkent shahri va viloyati aholisining eng tansiq — go‘sht va xamirdan tayyorlanadigan taomlaridan biri ham norin deb ataladi. Bundan tashqari, tilimizda Norinbek, Norinxon, Norinniso, Noringul kabi ismlar ham bor.

Ammo yuqoridagilarni bir-biriga bog‘laydigan ko‘zga ko‘rinmas zanjir mavjud. Bu — norin so‘zining hozirgi turkiy tillarda saqlanmagan, lekin qadimda mavjud bo‘lgan ma’nosidir. Hozirgi mo‘g‘ul tilida nariyn so‘zi bor. Qozoq tili geografik atamalarini tadqiq qilgan G.Konkashpaev ham mo‘g‘ul tilida narin, nariyn so‘zining mavjudligini e’tiborga olib, norin so‘zi mo‘g‘ulchadan olingan deb yozadi. Ammo o‘zbek, qirg‘iz, qozoq va boshqa turkiy xalqlar yashaydigan hududda mavjud bo‘lgan Norin daryosining nomini mo‘g‘ullar qo‘ygan yoki bu jumla mo‘g‘ul tilidan kirib kelgan deyish na ilmiy va na lisoniy jihatdan asosga ega emas. Nariyn — nozik, yupqa, ingichka, tor, siqiq, tang, laziz, go‘zal, latif, yaxshi

degan ma’nolarni bildiradi. Bu so‘z buryat, yoqut tilida ham uchraydi. Tungus-manjur tillaridagi narhun so‘zi nafis, ingichka tovush ma’nosini anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, daryo nomi bu so‘zning tor, siqiq ma’nosidan yuzaga kelgan. Xamir va go‘shtning yupqa qilib kesilishi taomga shu nomning berilishiga asos bo‘lgan deyilsa, laziz, go‘zal, latif ma’nolari kishi ismlarining yuzaga kelishiga omil bo‘lgan. Nariyn, narin, nar’n, narhun so‘zlarining turk, mo‘g‘ul va tungus-manjur tillarida uchrashi bu so‘zlarning yuqorida qayd etilgan tillar uchun asos hisoblangan oltoy bobotiliga mansub ekanini anglatadi. Demak, birgina o‘zbek tilida daryo, shahar, taom nomi va kishi ismi sifatida mavjud bo‘lgan norin jumlasi sof qadimgi turkiy so‘zdir.

**Xalq og‘zaki ijodi – so‘z san’ati -** Xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati ekanligini tushunishdan avval san’atning o‘zi nimaligini bilish lozim. 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (3-jild. 442-b): “San’at” [تعنصـ] - ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko‘rsatilgan. Agar izohdagi so‘zlarga e’tibor bersak, san’at deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni tushunish anglashiladi. San’atni mahoratsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ustozlarimiz “San’at – inson aqlu zakovatining buyuk kashfiyotidir” deyishdan toliqmasdilar. Ayni paytda, “San’at mahoratning eng oliy darajasida vujudga keladi” degan gapni ham ko‘p takrorlar edilar. Haqiqatan ham, san’atni tushunish san’atni yaratishdek murakkab ekanini bilishimiz kerak. Ayniqsa, filologiya, jurnalistika, tarix, falsafa kabi soha egalari san’atni tushunish, to‘g‘rirog‘i, his qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari alohida fazilatdir. Odatda maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan odamlar oddiy tasvirlarni san’at asari deb tushunadilar. Masalan, magazinlarning old qismidagi reklama maqsadida namoyish qilinadigan rasmlar: kostyum kiygan yigitlar, ko‘ylakli qizlar, nonlarning turli xillari, kiyim-kechaklar tasvirlari va hokazolar. Aslida bularning birontasi san’at asari hisoblanmaydi. Hatto buyuk rassomlar ishlagan tasviriy san’at asarlaridan olingan nusxalar – kopiyalar ham san’at asari bo‘lmaydi. Haddan tashqari chiroyli bezaklangan choynak, piyola, laganlar minglab nusxalarda sotiladi, ular san’at asari hisoblanmaydi. Chunki san’at asarlari san’atkor tomonidan mahorat bilan yaratilishi shart. Shuning uchun san’at asarlari faqat san’atkor  yaratgan yagona nushadabo‘ladi.

Ma’lumki, san’atning naqsh, musiqa, haykaltaroshlik, ganchkorlik, o‘ymakorlik, raqs, badiiy adabiyot kabi o‘nlab turlari bor. Ularning har biri o‘z quroliga ega. Ammo ayrim imoratlar oldidagi savlat to‘kib o‘tirgan sherlar, raqs guruhlarida chetda turgan rahbariga qarab harakat qilayotgan raqqosalar, ma’nosiz qofiyalangan she’rlarning san’atga hech qanday aloqasi yo‘q. Chunki qayd etilgan vaziyatlardagi “san’at” asarlari bizda hech qanday hayrat tuyg‘usini uyg‘otmaydi. Haqiqiy san’at asari bilan muomalada bo‘lganimizda esa ruhiyatimizda muayyan

hissiy o‘zgarishlarni sezamiz. San’at asari odamda inson iqtidori, mahorati, aqli, zakovati, o‘ziga xos kashfiyoti bilan mazkur asarga nisbatan hayrat, qoyil qolish tuyg‘usini uyg‘otishi kerak. Aynan shu fazilati bilan san’at namunasi ruhiyatimizni boshqaradi.

San’at asarining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning qadri, bahosi hech qachon hajm, son, miqdor bilan o‘lchanmaydi. O‘nlab tasviriy san’at namunasini yaratish, qo‘shiq aytish, badiiy asarlar yozish mumkin. Ammo ularning mualliflarini tanimasligimiz, yodimizda saqlamasligimiz ham mumkin. Biroq ba’zan bor yo‘g‘i bitta san’at asarini ijod qilish bilan xalq madaniyati xazinasidan munosib o‘ringa ega bo‘lingan, tarixda iz qoldirilgan. Chunki san’at o‘lchovi mahorat darajasining yuksakligi, badiiylikning mukammalligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, san’at haqidagi asosiy ma’lumotga ega bo‘ldik. Endi bevosita xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati namunasi ekanini bilishga urinamiz.

# ILOVALAR

# Ishchi dastur

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturidan kelib chiqqan holda magistrlarda zamon talablariga mos ravishdagi muloqot madaniyatini, muloqot madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan nutq madaniyatini yuksaltirish yuksak ma’naviyatli va yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Shu boisdan ularni adabiy og‘zaki va yozma nutq me’yorlari bilan tanishtirish, bu me’yor va qoidalardan amaliy foydalana bilish malakasini oshirish, fikr mahsulini nutq sharoitini va vaziyatiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalash, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri va aniq anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

### O‘quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishning maqsadi magistrlarda yuksak darajadagi nutqiy madaniyatni, muloqot sifatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifalari – notiqlik tarixi, buyuk mutafakkirlarning nutqiy madaniyatning ahamiyati haqidagi qarashlari, mashhur voizlarning notiqlik, taniqli

so‘z san’atkorlarining so‘z qo‘llash san’ati haqida, jahon zamonaviy intellektual olamida so‘z qo‘llash, notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga doir qarashlar, ilmiy va amaliy yo‘nalishlar haqida tasavvur hosil qilish; nutqning lisoniy va nolisoniy me’yor, qoidalari bilan tanishtirish; madaniy nutq ko‘nikmasini hosil qilish, malakalarini rivojlantirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasigagina qo‘yiladigan talablar

“Nutq madaniyati” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasiga magistr:

- nutq mantiqning uzviy aloqadorligi; notiqlik tarixi; antik davr notiqlari; ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Maxmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilarning nutq madaniyatiga doir qarashlari; Bahovuddin Valad, Jaloliddin Rumiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Mu’iniddin Voiz, Voiz Xoraviy, Zayniddin Vosifiy, Voiz Kazviniy, Mullo Kalon Voiz Samarqandiyning voizlik san’ati; Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabilarning tilning sofligi va nafosati, nutqning go‘zalligi to‘g‘risidagi fikrlari; Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning so‘z qo‘llash san’ati; jahon zamonaviy intellektual olamida so‘z qo‘llash, notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga daxldor sara qarashlar, amaliy yo‘nalishlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;
- nutqning shakllari va xususiyatlarini; madaniy nutqning talaffuz, leksik, morfologik, sintaktik, punktuatsion, uslubiy, pragmatik, sotsial, etnik, sohaviy me’yorlarini bilishi va foydalana olishi zarur;
- nutqning to‘g‘riligi va aniqligini ta’minlash; uni mantiqiy asosda tuza bilish va mantiqiy xatoliklarni aniqlay olish; nutqning sofligiga erishish; boyitib borish, nutqning jo‘yaligiga, ifodaviyligiga erishish; nutqiy strategiya va taktikani uyg‘un tashkil eta olish; nutqni pragmatik vaziyatga moslash; muammoli vaziyatlardan nutqiy malaka asosida chiqa olish; o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

## Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan

**uzviy ketma-ketligi**

“Nutq madaniyati” umummetodologik fan hisoblanib, 3-semestrda o‘qitiladi. “Nutq madaniyati” dasturidagi bilim va ko‘nikmalarni egallash “Psixologiya”, “Mantiq”, “Etika”, “Estetika” va “Madaniyatshunoslik” fanlarida o‘rganiladigan muammolar borasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

Magistrlarda nutq madaniyati bo‘yicha umumiy nazariy va amaliy bilimlarni oshirish, sohaviy nutqiy madaniyatni rivojlantirish ularning raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishlarida, jamiyatda o‘z professional o‘rnini topishlarida, jamiyatning iqtisodiy, madaniy salohiyatini oshirishda, fanning tegishli sohasi yoki ijtimoiy hayotning biror jabhasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

“Nutq madaniyati” fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari magistrlarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Klaster”, “Keys-stadi”, “Bumerang”, “Matbuot konferensiyasi” singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

**Asosiy qism**
**Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

“Nutq madaniyati” kursi predmeti, vazifalari. Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar. Kursnning boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabati. “Nutq madaniyati”ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyati haqida.

**Nutq va uning shakllari**

Nutq muloqotning bir ko‘rinishi sifatida. Nutqning og‘zaki va yozma, rasmiy va norasmiy turlari. Nutq va mantiq. *Madaniy nutq* tushunchasi. Nutq, notiqlik va voizlik.

**Notiqlik tarixi nutqiy amaliyot va madaniyat ko‘zgusida**

Antik davrda notiqlik va nutq madaniyati. Sharqda notiqlik va nutq madaniyati. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Maxmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilar nutq madaniyati haqida. Bahovuddin Valad, Jaloliddin Rumiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Mu’iniddin Voiz, Voiz Xoraviy, Zayniddin Vosifiy, Voiz Kazviniy, Mullo Kalon Voiz Samarqandiyning voizlik san’ati va mahorati. Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabilarning tilning sofligi va nafosati, nutqning go‘zalligi to‘g‘risidagi fikrlari. Cho‘lpon, Abdulla Qaxxor, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning so‘z qo‘llash san’ati. Jahon zamonaviy intellektual olamida so‘z qo‘llash, notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga daxldor sara qarashlar, amaliy yo‘nalishlar.

**Madaniy nutq me’yorlari va qoidalari**

Madaniy nutqning talaffuz me’yorlari. Madaniy nutqning leksik me’yorlari. Madaniy nutqning morfologik me’yorlari. Madaniy nutqning sintaktik me’yorlari. Madaniy nutqning punktuatsion me’yorlari. Madaniy nutqning uslubiy me’yorlari. Madaniy nutqning pragmatik me’yorlari. Madaniy nutqning etnik me’yorlari. Madaniy nutqning sohaviy me’yorlari.

**Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari**

Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning aniqligi. Nutqning mantiqiyligi. Nutqning sofligi. Nutqning boyligi. Nutqning jo‘yaligi. Nutqning ifodaliligi. Madaniy nutqning pragmatik xoslanganligi. Madaniy nutqning etnik sotsial xoslanganligi. Madaniy nutqning sohaviy xoslanganligi. Nutqiy texnologiya.

**Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Fanni o‘qitishda mantiqiylik, tarixiylik, sistemalilik tamoyillariga amal qilish, ta’limni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quv jarayonida samarali ta’lim usullarini qo‘llash, xususan, darslarda

“Aqliy xujum”, “Munozara”, “Bumerang”, “Klaster”, “Matbuot konferensiyasi” kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish. “Nutq madaniyati” loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha nutqiy qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash -** yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** talabalar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida talabalarning bilimlari baholanadi.

Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

## Dasturning informatsion – metodik ta’minoti

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Klaster”, “Matbuot konferensiyasi”, “Keys-stadi”, “Bumerang”, “Yelpig‘ich” hamda “Muammoli ta’lim” texnologiyasining “Munozarali dars” metodi, shuningdek, lingvistik strukturalar va sistem tilshunoslikka doir slaydlardan foydalanish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## “Nutq madaniyati” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:

| | Mavzular nomi | J | M | Ama | T | J |
|---|---|---|---|---|---|---|

| /r | | ami s oat | a’ruza | liy mashg‘ul ot | MI | ami |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | “Nutq madaniyati” fanining mazmuni, maqsad va vazifalari | 4 | 2 | 2 | 5 | 9 |
| | Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi | 4 | 2 | 2 | 5 | 9 |
| | Antik davr notiqlari | 4 | 2 | 2 | - | 4 |
| | Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari | 4 | 2 | 2 | - | 4 |
| | Nutq madaniyatini o‘stirish va notiqlik san’atining turlari. | 4 | 2 | 2 | 4 | 8 |
| | Nutqning ifoda-tasviriy vositalari va adabiy me’ros | 4 | 2 | 2 | 4 | 8 |
| | Tibbiyot xodimining nutqiy madaniyati va uslubshunoslik | 4 | 2 | 2 | - | 4 |
| | Nutqning kommunikativ va boshqa sifatlari | 4 | 2 | 2 | - | 4 |
| | Til va nutq. Nutq odobi muammolari. | 4 | 2 | 2 | - | 4 |
| 0 | Nutq madaniyatini oshirishning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati | 4 | 2 | 2 | - | 4 |
| | **Jami** | **4 0** | **20** | **20** | **18** | **5 8** |

**Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma’ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, nutq madaniyatini oshirishning samarali yo‘llari, sharq mutafakkirlarining notiqlik mahorati, Yevropa notiqlarining nutq va notiqlik haqidagi qarashlari, talabalarning og‘zaki va yozma nutqlarini shakllantirish, ularda notiqlik mahoratini oshirishning

samarali yo‘llari qamrab olinishi hamda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi

## Ma’ruza mashg‘ulotlari

### “Nutq madaniyati” fanining mazmuni, maqsad va vazifalari

Nutq madaniyati fanining maqsadi, vazifalari. Nutq madaniyati tushunchasi mazmunini tavsiflash. Nutq madaniyati kursining ahamiyatini ko‘rsatish. Nutq madaniyatiga dunyo miqyosida e’tibor berilayotgani ifodalash. Nutq madaniyatining asosiy mezonlarini ta’riflash. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasini ifodalash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida til va nutq madaniyatiga berilayotgan e’tiborni ifodalash. Notiqlikning lug‘aviy va istilohiy ta’rifi. Notiqlikning hozirgi davrdagi ahamiyati. Notiqlik fanining maqsadi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

### Nutk madaniyati va notiklik san’ati tarixi

Nutq madaniyati va uning so‘z san’atidagi o‘rnini tavsiflash. Nutq madaniyati haqida turli tushuncha va xulosalarni keltirish. Qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik tarixini tavsiflash. Sharqda va Markaziy Osiyoda notiqlik to‘g‘risida tushuncha berish. Yevropada notiqlik tarixidan namunalar keltirish.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

### Antik davr notiqlari

Yevropada nutq madaniyati haqida turli tushuncha va xulosalarni keltirish hamda notiqlik san’atining paydo bo‘lishi, tarixiy – madaniy shart-sharoitlari. Qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik tarixini tavsiflash. Yevropada notiqlik tarixidan namunalar keltirish. Notiqlik san’atining rivojlanishiga hissa qo‘shgan mutafakkirlar Lisiy, Demosfen, Sitsiron, Aristotel, Platonlarning til va nutq hamda notiqlik haqidagi qarashlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

### Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari

Markaziy Osiyoda nutq madaniyati va notiqlik san’atining rivojlanish bosqichlari. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn

Sino, Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilarning nutq madaniyatiga doir qarashlari; Bahovuddin Valad, Jaloliddin Rumiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Mu’iniddin Voiz, Voiz Xoraviy, Zayniddin Vosifiy, Voiz Kazviniy, Mullo Kalon Voiz Samarqandiyning voizlik san’ati; Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabilarning tilning sofligi va nafosati, nutqning go‘zalligi to‘g‘risidagi fikrlari; Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning so‘z qo‘llash san’ati; jahon zamonaviy intellektual olamida so‘z qo‘llash, notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga daxldor sara qarashlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutq madaniyatini o‘stirish va notiqlik san’atining turlari**

Nutq madaniyatini oshirish va uni rivojlantirish masalalarini yoritish. Voizlik madaniyatida notiqlik san’ati turlarining o‘rni va ahamiyatini tushuntirish. Notiqlik mahoratining turlari va ko‘rinishlari tavsifini berish. Nutq madaniyatini oshirish yo‘llari va uni rivojlantirish muammolari. Voizlik madaniyatida notiqlik san’ati turlarining o‘rni va ahamiyati. Notiqlik mahoratining turlari va ko‘rinishlari. Madhiya yoki yubiley-maqtov nutqlarining vazifalari. Tashviqot va tanqidiy nutqning xususiyatlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutqning ifoda-tasviriy vositalari va o‘zbek adabiy tili me’yori (normasi)**

Nutqning ifoda-tasviriy vositalarining ko‘rinishlari. Nutqning ifoda-tasviriy vositalarining nutqdagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr bildirish. O‘zbek adabiy tili me’yori (normasi) tushunchasi. Mutaxassislarga adabiy til me’yorlari ustida ishlash uchun tavsiyalar. Adabiy me’yorning buzilishiga oid kamchiliklar va ularning oldini qanday usullari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Tibbiyot xodimining nutqiy madaniyati va uslubshunoslik**

Tibbiyot xodimining nutqi va unga qo‘yiladigan talablar. Nutqni talaffuz

qilish texnikasi qismlari va ularning nutq madaniyatini oshirishdagi o‘rni. Nutqiy kamchiliklarning oldini olish yo‘llari. Tibbiyot xodimining talaffuz qilish texnikasi. O‘zbek adabiy tilida uslubshunoslik sohasi. Nutq uslublarining tasnifi va o‘zbek adabiy tilidagi o‘rni. Nutq uslublarining tasnifi va o‘zbek adabiy tilidagi o‘rni.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutqning kommunikativ va boshqa sifatlari.**

Nutq jarayonida uning kommunikativ va boshqa sifatlarining ahamiyatini tushuntirish. Nutqning aniqligi va to‘g‘riligi sifatlarini tavsiflash. Nutqning tozaligi va sofligi sifatlarini ko‘rsatish. Nutqning mantiqiyligi sifatini tavsiflash. Nutqning maqsadga muvofiqligi va ta’sirchanligi sifatlari haqida ma’lumot berish. Nutqning ifodaliligi va boyligi sifatlarini ta’riflash.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Til va nutq. Nutq odobi muammolari.**

Til va nutq hodisalari. Ularning bog‘liq jihatlari va farqli tomonlarining tavsifi. Nutq tushunchasi mazmuni haqida ma’lumot berish. Nutq madaniyatida nutq odobi muammolari haqidagi allomalarning g‘oyalarini berish. Alisher Navoiyning asarlaridagi nutq odobi, til madaniyati to‘g‘risidagi fikrlari. Kaykovuzning farzandiga so‘zlash va nutq odobi haqidagi nasihatlarini tahlil qilish. Shirinsuxanlik, xushmuomalalilik kabi nutqning fazilatlari to‘g‘risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutq madaniyatini oshirishning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati.**

Nutq madaniyatini oshirish jamiyatimiz taraqqiyotini belgilovchi bosh omil ekanligini ko‘rsatish. Nutq madaniyatini oshirishning muhimligi haqida buyuk so‘z san’atkorlarining fikrlarini keltirish. So‘z mahorati va lug‘at boyligini hamda nutq madaniyatini oshirish yo‘llari va usullari haqida ma’lumot berish. So‘zlashda kamtarinlik va o‘zini baland tutish haqida Sharq mutafakkirlarining qarashlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining kalendar tematik rejasi**

| t/r | **Ma’ruza mavzulari (barcha)** | **soat** |
|---|---|---|
| 1 | “Nutq madaniyati” fanining mazmuni, maqsad va vazifalari | 2 |
| 2 | Nutk madaniyati va notiqlik san’ati tarixi | 2 |
| 3 | Antik davr notiqlari | 2 |
| 4 | Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari | 2 |
| 5 | Nutq madaniyatini o‘stirish va notiqlik san’atining turlari | 2 |
| 6 | Nutqning ifoda-tasviriy vositalari va o‘zbek adabiy tili me’yori (normasi) | 2 |
| 7 | Tibbiyot xodimining nutqiy madaniyati va uslubshunoslik | 2 |
| 8 | Nutqning kommunikativ va boshqa sifat | 2 |
| 9 | Til va nutq. Nutq odobi muammolari | 2 |
| 10 | Nutq madaniyatini oshirishning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati. | 2 |
| Jami | | 20 |

**Amaliy mashg‘ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari**

**“Nutq madaniyati” fanining mazmuni, maqsad va vazifalari.** Nutq madaniyati fanining maqsadi, vazifalari. Nutq madaniyati tushunchasi mazmunini tavsiflash. Nutq madaniyati kursining ahamiyatini ko‘rsatish. Nutq madaniyatiga dunyo miqyosida e’tibor berilayotgani ifodalash. Nutq madaniyatining asosiy mezonlarini ta’riflash. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasini ifodalash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida til va nutq madaniyatiga berilayotgan e’tiborni ifodalash. Notiqlikning lug‘aviy va istilohiy ta’rifi. Notiqlikning hozirgi davrdagi ahamiyati. Notiqlik fanining maqsadi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutk madaniyati va  notiqlik san’ati tarixi.** Nutq madaniyati va uning so‘z san’atidagi o‘rnini tavsiflash. Nutq madaniyati haqida turli tushuncha va xulosalarni keltirish. Qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik tarixini tavsiflash.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim., aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Antik davr notiqlari.** Yevropada nutq madaniyati haqida turli tushuncha va xulosalarni keltirish hamda notiqlik san’atining paydo bo‘lishi, tarixiy – madaniy shart-sharoitlari. Qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik tarixini tavsiflash. Yevropada notiqlik tarixidan namunalar keltirish. Notiqlik san’atining rivojlanishiga hissa qo‘shgan mutafakkirlar Lisiy, Demosfen, Sitsiron, Aristotel, Platonlarning til va nutq hamda notiqlik haqidagi qarashlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari.** Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilarning nutq mdaniyatiga doir qarashlari; Xusayn Voiz Koshifiy, Mu’iniddin Voiz, Voiz Xoraviy, Zayniddin Vosifiyning voizlik san’ati; Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabilarning tilning sofligi va nafosati, nutqning go‘zalligi to‘g‘risidagi fikrlari; Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning so‘z qo‘llash san’ati.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutq madaniyatini o‘stirish  va notiqlik san’atining turlari.** Nutq madaniyatini oshirish va uni rivojlantirish masalalarini yoritish. Voizlik madaniyatida notiqlik san’ati turlarining o‘rni va ahamiyatini tushuntirish. Notiqlik mahoratining turlari va ko‘rinishlari tavsifini berish. Nutq madaniyatini oshirish yo‘llari va uni rivojlantirish muammolari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutqning ifoda-tasviriy vositalari va o‘zbek adabiy tili me’yori (normasi).** Nutqning ifoda-tasviriy vositalarining ko‘rinishlari. Nutqning ifoda-tasviriy vositalarining nutqdagi o‘rni va ahamiyati haqida  fikr bildirish. O‘zbek adabiy tili me’yori (normasi) tushunchasi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Tibbiyot xodimining nutqiy madaniyati va uslubshunoslik.** Tibbiyot xodimining nutqi va unga qo‘yiladigan talablar. Nutqni talaffuz qilish texnikasi qismlari va ularning nutq madaniyatini oshirishdagi o‘rni. Nutqiy kamchiliklarning oldini olish yo‘llari. Tibbiyot xodimining talaffuz qilish texnikasi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutqning kommunikativ va boshqa sifatlari.** Nutq jarayonida uning kommunikativ va boshqa sifatlarining ahamiyatini tushuntirish. Nutqning aniqligi va to‘g‘riligi sifatlarini tavsiflash. Nutqning tozaligi va sofligi sifatlarini ko‘rsatish. Nutqning maqsadga muvofiqligi va ta’sirchanligi sifatlari haqida ma’lumot berish.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Til va nutq. Nutq odobi muammolari.** Til va nutq hodisalari. Ularning bog‘liq jihatlari va farqli tomonlarining tavsifi. Nutq tushunchasi mazmuni haqida ma’lumot berish. Nutq madaniyatida nutq odobi muammolari haqidagi allomalarning g‘oyalarini berish. Shirinsuxanlik, xushmuomalalilik kabi nutqning fazilatlari to‘g‘risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**Nutq madaniyatini oshirishning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati.** Nutq madaniyatini oshirish jamiyatimiz taraqqiyotini belgilovchi bosh omil ekanligini ko‘rsatish. Nutq madaniyatini oshirishning muhimligi haqida buyuk so‘z san’atkorlarining fikrlarini keltirish. So‘z mahorati va lug‘at boyligini hamda nutq madaniyatini oshirish yo‘llari va usullari haqida ma’lumot berish.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy xujum, T-sxemasi, o‘z- o‘zini nazorat.*

**“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotining kalendar tematik rejasi**

| t/r | **Ma’ruza mavzulari(barcha)** | **soat** |
|---|---|---|
| 1 | “Nutq madaniyati” fanining mazmuni, maqsad va | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| | vazifalari | |
| 2 | Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi | 2 |
| 3 | Antik davr notiqlari | 2 |
| 4 | Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari | 2 |
| 5 | Nutq madaniyatini o‘stirish va notiqlik san’atining turlari | 2 |
| 6 | Nutqning ifoda-tasviriy vositalari va o‘zbek adabiy tili me’yori (normasi) | 2 |
| 7 | Tibbiyot xodimining nutqiy madaniyati va uslubshunoslik | 2 |
| 8 | Nutqning kommunikativ va boshqa sifat | 2 |
| 9 | Til va nutq. Nutq odobi muammolari | 2 |
| 10 | Nutq madaniyatini oshirishning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati. | 2 |
| Jami | | 20 |

**Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakli va mazmuni.**

“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta’minlangan.

Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan mavzular yuzasidan ma’lumotlarni qayd qiladi. Yozma va og‘zaki nutqining shakllantirishga oid badiiy asarlar mutolaa qiladi hamda tahlil qiladi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar yechadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash

amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Nutq madaniyati” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning deyarli barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 4 mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

| | **Mustaqil ta’lim mavzulari** | **Berilgan topshiriqlar** | **Bajarish muddati** | **Hajmi (soatda)** |
|---|---|---|---|---|
| | Nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixi | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 5 |
| | Antik davr notiqlari | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 5 |
| | Sharq mutafakkirlarining nutq madaniyatiga oid qarashlari | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 4 |
| | Til va nutq. Nutq odobi muammolari | Adabiyotlardan, internet ma’lumotlarida konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. | Har oyning oxirgi haftasi | 4 |
| Jami | | | 4 hafta | 18 |

## Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

## Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

**Adabiyotlar:**


1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-29b
2. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-47b

3. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “ O’zbekiston” NMIU, 2017.-485b

4. O’zbekistom respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017y.,6-son,70-modda.

5. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.

6. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O`zbekiston”, 2000.

7. N.Mahmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8. R.Qo`ng`urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., “O`qituvchi”, 1992.

9. A.G`ulomov, B.Qobilova. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. T., “O`qituvchi”, 1995.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1992.

2. Ziyomuhamedov B. - Komillikka eltuvchi kitob. – Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti. 2006.

3. Farzand aziz – ona mo’tabar. Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2001.

4. Abduraxmonov A.Saodatga eltuvchi bilim, I-II kitob. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2003.

5. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – Toshken

## “Nutq madaniyati” fani test savollari

**1.«Nutq madaniyati» tushunchasi qanday ma’nolarni o‘zida ifodalaydi?**

A. Kishilar faoliyatini so‘z orqali ifodalash qobiliyati.

V. Insonlarning tilidagi nuqson, kamchiliklarni bartaraf etish qobiliyati.

S. Ularni ma’naviy yuksaklikka intilishlari va fikrlarini tushuntirishlari.

**2. «Nutq madaniyati» fanining maqsadi to‘liq ifo-dalangan qatorni aniqlang.**

A. Rezidentlarda mantiqiy asoslangan og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish.

V. Fanning tili va uslubiga, uning terminologik tizimiga xos xususiyat va qonuniyatlar haqida keng ma’lumot berish.

S.Tibbiyotchi-pedagog nutqiga xos xususiyat va qonuniyatlar haqida keng ma’lumot berish.

**3. «Nutq san’ati» SHarqda qaysi atama bilan yuritilgan?**

A. So‘z xazinasi.

V. Nutq odobi.

S. Til madaniyati.

D.Nutq madaniyati.

**4. Tibbiyotchi-pedagog chin ma’nodagi notiq bo‘lishi uchun nimalar zarur:**

A. Nutqni tuzish, so‘zlash mahoratini egallash.

V. So‘z tanlash, qo‘llash mahoratini egallash puxta egallashi kerak.

S. Notiqlik san’ati va mahoratidan unumli foydalanish, nutqni tuzish, so‘zlash mahoratini egallash, so‘p tanlash.

**5. Har bir fan o‘qituvchisiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar:**

A. O‘zbek adabiy tili, adabiy so‘zlashuv nutqi me’yorlari (normalari)ga amal qilish.

V. Barcha uchun qiziqarli, ta’sirli bo‘lishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalana olish.

S. Ma’naviy yuksak g‘oyalarni ilgari surish, mavzu dolzarb va auditoriya saviyasiga mos kelishi, adabiy tili, adabiy so‘zlashuv nutqi me’yorlari (normalari)ga amal qilish, texnik va ko‘rgazmali qurollardan foydalana olish, aniq ma’lumot va dalillarga asoslanishi, mavzu qiziqarli, ta’sirli bo‘lishi kerak.

**6. “Juvonmardlik” so‘zining ma’nosi to‘g‘ri ko‘rsa-tilgan qatorni belgilang**.

A. Betarbiya va zolim kishini ifodalaydi.

V. To‘g‘ri so‘zli, insonparvarlik xususiyatlariga ega bo‘lgan kishilarni bildiradi.

S. Mehr –oqibatli yaxshi insonni ifodalaydi.

**7. “Suxandonlik” so‘zining izohini bering.**

A. Jurnalistlik, har qanday vaziyatda nutqni to‘g‘ri qo‘llay olish mahorati.

V. Madaniyatli, ma’naviyati boy odam ma’nosini bildiradi.

S. Haq so‘zlik, xalqparvarlik.

**8. Dastavval “Nutq madaniyati” qaysi mamlakatlarda vujudga keldi va notiqli ksan’at darajasiga ko‘tarildi?**

A.Hindiston, Yaponiya.

V.Qadimgi Yunoniston, Rim.

S.Rossiya, Movarounnahrda.

D. AQSH, Angliyada.

**9. Buyuk alloma Beruniy fikricha grammatika ilmi qanday ta’rifga ega?**

A. Jismlarga qo‘yilgan nomlarning qanday qanday tartibga solinishini o‘rganadi.

V. Narsalar va hodisalarning joylashishini o‘rganadi.

S. Jismlarga berilgan nomlarni tartibga solish, narsa va hodisalarning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlar va nutqni tuzishni o‘rgatadi.

**10.Lotin yozuvidagi o’zbek alifbosida nechta harf, nechta unli va undosh harflar mavjud.**

+29 harf, 6 unli va 23 ta undosh harflar mavjud bo’lib,shulardan: -3harfiy birikma - Ch ch, Sh sh, Ng ng;

-28 harf, 6 unli va 22 ta undosh harflar mavjud

-27 harf, 6 unli va 21 ta undosh harflar mavjud

-28 harf, 6 unli va 22 ta undosh harflar mavjud bo’lib, shulardan: - 3 harfiy birikma – Ch ch, Sh sh, Ng ng;

**11. Bir ma’noli so’zlar deganda nimani tushunasiz va unga berilgan to’g’ri ta’rifni toping?**

+ Bi r ma’noli so’zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni , shuningdek, yangi paydo bo’lgan so’zlarni o’z ichiga oladi.

- bir ma’noli so’zlar tilimizda ko’p uchraydi va barcha so’zlarni o’z ichiga oladi

- bir ma’noli so’zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy atamalarni o’z ichiga oladi.

- bir ma’noli so’zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va tibbiyot atamalarni o’z ichiga oladi.

**12. Leksika nima va nimani o’rganadi?**

+ so’z haqidagi ta’limotdir

- ko’chma so’zlar haqidagi ta’limotdir

- bir ma’noli so’zlar haqidagi ta’limotdir

- ko’p ma’noli so’zlar haqidagi ta’limotdir

**13. Quyidagi gapda *yo’l* so’zining qaysi ma’nosi ifodalangan? *Kechga borib,avtobuslar o’z yo’lini o’zgartiradigan bo’lib qolibdi.***

+ yo’nalish

- safar

- masofa

- usul

**14. Qaysi qatordagi ibora *mug’ombir* so’ziga sinonim bo’ladi?**

+ ilonning yog’ini yalagan

- oyog’ini tirab olmoq

- mehri tosh

- dilini og’ritdi

**15. - lar qo'shimchasi qaysi gapda  kesatiq, kinoya ma'nosini ifodalaydi?**
+ O'zlariyam qadam ranjida qilibdilar-da.
- u qanday azoblarni boshidan   kechirmadi.
- og'a sog' borsangiz avval dadamlarga salom ayting.
- bu yerlarda bir paytlar xaroba uylar bor edi

**16. Mustaqil so'z turkumlari to'g'ri ko'rsatib o'tilgan qatorni toping**
+ Ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish
- ot, sifat, son,  fe'l, modal va ravish
- ot, sifat,  olmosh, fe'l va ravish
- ot, sifat, son, olmosh, fe'l, yuklama, bog'lovchi va ravish

**17. Yordamchi so'zlar to'g'ri ko'rsatib o'tilgan qatorni toping**
+ Ko'makchi, bog'lovchi va yuklama
- ko'makchi,undov, bog'lovchi va yuklama
- ko'makchi, modal, bog'lovchi va yuklama
- bog'lovchi  va yuklama

**18. Oraliqdagi so'zlar to'g'ri ko'rsatib o'tilgan qatorni toping**
+ Modal, undov va taqlid so'zlar
- modal, ko'makchi, undov va taqlid so'zlar
- bog'lovchi, modal, undov va taqlid so'zlar
- modal va taqlid so'zlar

**19. Mustaqil so'z turkumlariga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping.**
+ Atash ma'nosiga ega bo'lgan, ma'lum bir so'roqqa javob bo'lgan so'zlar mustaqil so'z turkumlari deyiladi.
- atash ma'nosiga ega bo'lmagan, ma'lum bir so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zlar mustaqil so'z turkumlari deyiladi.
- ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar mustaqil so'z turkumlari deyiladi
- ish-harakatning belgisini bildirgan so'zlar mustaqil so'z turkumlari deyiladi.

**20. Yordamchi  so'z turkumi deb nimaga aytiladi**
+ Atash ma'nosiga ega bo'lmagan, ma'lum bir so'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi.
- atash ma'nosiga ega bo'lgan, ma'lum bir so'roqqa javob bo'lgan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi.
- ma'lum  bir so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi.
- ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi.

**21. Morfologiya qaysi so'zdan olingan va qanday ma'noni anglatadi.**

+ grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, morhfos “shakl”, logos “ta’limot” ya’ni, so‘z shakllari haqidagi ta’limotdir degan ma’noni ahglatadi.

- ispancha so‘zdan olingan bo‘lib, morhfos “gap”, logos “ta’limot” ya’ni, gap haqidagi ta’limotdir degan ma’noni ahglatadi.

- nemischa so‘zdan olingan bo‘lib, morhfos “gap qurulishi”, logos “ta’limot” ya’ni, gap qurulishi haqidagi ta’limotdir degan ma’noni ahglatadi.

- inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, morhfos “to’g’ri yozish”, logos “ta’limot” ya’ni, to’g’ri yozish haqidagi ta’limotdir degan ma’noni ahglatadi.

**22. Leksikologiya leksik so‘z (leksema)larni, ularning atash ma’nolarni o‘rgansa, morfologiya so‘zning qanday qurilishini o’rganadi.**

+ grammatik ma’nolarini o’rganadi.

- so‘z (leksema)larni o’rganadi.

- so‘z tartibini o’rganadi.

- nutq tovushlari o’rganadi.

**23. Ravish biror so’z bilan bog’lanib birikma hosil qilganda so’z o’zgartiruvchi qo’shimchalardan qaysi birini oladi?**

+ hech qanday so’z o’zgartiruvchi qo’shimchalarni olmaydi

- kelishik qo’shimchalarini

- egalik qo’shimchalarini

- shaxs-son qo’shimchalarini

**24. Qadimgi hindlar turkumlarni nechtaga ajratishgan va ular qanday.**

+ uchga ajratishgan: otlar, fe’llar, yordamchilar.

- ikkiga ajratishgan: otlar, yordamchilar.

- to’rtga ajratishgan: otlar, olmoshlar, fe’llar, yordamchilar.

- bittaga ajratishgan: yordamchilarga.

**25. Qadimgi arablar turkumlarni nechtaga ajratishgan va ular qanday.**

+uchta turkumni farqlashgan: ismlar, fe’llar, yordamchilar.

- to’rtga ajratishgan: otlar, olmoshlar, fe’llar, yordamchilar.

- bittaga ajratishgan: yordamchilarga.

- ikkiga ajratishgan: otlar, ravishlar.

**26. Turkiy tilshunoslikda turkumlarni nechtaga ajratishgan va ular qanday.**

+ Turkiy tilshunoslikda qadimdan (4 ta ) ot, sifat, son va olmoshlarni ajratishgan.

- ikkiga ajratishgan ot va olmoshlarni ajratishgan.

- to’rtga ajratishgan: otlar, olmoshlar, fe’llar, yordamchilar.

- bittaga ajratishgan: yordamchilarga.

**27. Narsa-buyum, shaxslarni yoki joy nomlarini bildiradigan so‘zlar turkumi nima deyiladi.**

+ ot

- olmosh

- fe’llar

son

**28.Ot so’z turkumi qanday so‘roqlariga javob bo‘ladi.**

+ kim?, nima?, qayer?

- qanday?, qanaqa?, qaysi?

- nechta?, qancha?, nechanchi?

- nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?

**29. Mavhum otlarga ta’rif bering**

+ Mavhum otlar ong yordamidagina idrok qilinadigan narsalarni ifodalaydi.

- mavhum otlar sezgi a’zolarimiz yordamidagina idrok qilinadigan narsalarni ifodalaydi.

- mavhum otlar ong va sezgi a’zolarimiz yordamidagina idrok qilinadigan narsalarni ifodalaydi.

- to’g’ri javob yo’q

**30. Mavhum ot yasovchi qo’shimchani toping?**

+ -lik

--chi

--gich

--k, -ak

**31. Otlar ma’no jihatdan qanday turga bo’linadi.**

+ atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi.

- ko’plik va turdosh otlarga bo‘linadi.

- atoqli va ko’plik otlarga bo‘linadi.

- atoqli va mavhum otlarga bo‘linadi.

**32. Otlarda ko‘plik shaxsni yasash uchun qanday qo‘shimcha qo‘shiladi.**

+ – lar qo‘shimcha qo‘shiladi

+ – chi qo‘shimcha qo‘shiladi

- – larcha qo‘shimcha qo‘shiladi

- – dir qo‘shimcha qo‘shiladi

**33. После уроков я пойду к бабушке. Ushbu gapni o’zbek tiliga tarjima qiling.**

+ Men darsdan so’ng buvimnikiga boraman.

- Men darsdan oldin buvimnikiga bormoqchiman.

- Men darsdan chiqib buvimnikiga bormoqchiman.

- Darsdan so’ng buvimnikiga bordim.

**34. В вашей группе учатся 12 студента. Ushbu gapni o’zbek tiliga tarjima qiling.**

+ Bizning guruhimizda 12 talaba o’qiydi.

- Bizning guruhimizda 12 talaba o’qidi.

- Bizning safimizimizda 12 talaba o’qiydi.

- Guruhimizda 12 talaba o’qiydi.

**35. Adabiyot san’atining quroli nima.**

+ so‘z

- bo’yoq

- qalam

- harakat

**36. Badiiy asarlarda sonlar qanday yoziladi**

+ So’zlar bilan

- sonlar bilan

- rim raqamlari bilan

- arab raqamlari bilan

**37. Nutqimizda *bir* so’zi sonni ifodalashdan tashqari yana qanday ma’nolarni anglatadi**

+1.noaniqlik;2.kuchaytirish;3.tenglikni;4.ketma-ketlik;5.chegaralash

-1.xurmatni;2.kuchaytirish;3.tenglikni;4.ketma-ketlik;5.chegaralash.6.navni.

-1.noaniqlik;2.kinoya;3.tenglikni;4.ketma-ketlik;5.chegaralash

-1.noaniqlik;2.kuchaytirish;3.jamlik;4.ketma-ketlik;5.chegaralash;6.xurmatni;7.navni.

**38. Sifat so’z turkumi qanday so’roqlarga javob bo’ladi**

+ Qanday?, qanaqa? va qaysi?

- qanday?, qaysi?, qanaqa? va qaysi?

- qanday?, kim?, nima?, qaer?, qanaqa? va qaysi?

- qachon?, qaer?, kim?, qaerdan?, qachon?

**39.Predmetning belgisini bildirib, Qanday ? Qaysi? Qanaqa? so’roqlariga javob bo’ladigan so’z turkumi deb nima ataladi?**

+ sifat

- ot

- fe’l

- ravish

**40.Sifat darajalari necha xil bo’ladi?**

+ 4

- 5

- 3

- 6

**41.Sifatning qaysi darajasi belgining ortiq-kamlik munosabatini ifodalaymaydi?**

+ oddiy

- orttirma
- ozaytirma
- qiyosiy

**42.Qaysi darajadagi sifatlarda 1-bo'g'inidagi oxirgi undoshining m yoki p undoshiga almashishi kuzatiladi?**

+ orttirma

- oddiy
- ozaytirma
- qiyosiy

**43.Qaysi darajada sifat oldiga juda,g'oyat,nihoyatda,behad singari so'zlarni qo'shish yordamida yoziladi?**

+ orttirma

- oddiy
- ozaytirma
- qiyosiy

**44.Qaysi darajani sifat oldidan sal,picha,ozgina kabi so'zlarni qo'shib yasash mumkun?**

+ ozaytirma

- orttirma
- qiyosiy
- oddiy

**45.Sifat oxiriga –roq,-ish,-imtir qo'shimchalarini qo'shib yozilishi qaysi darajada kuzatiladi?**

+ Ozaytirma

- orttirma
- qiyosiy
- oddiy

**46.Ozaytirma sifat darajani so'z tarkibidagi nechanchi bo'g'inlaridagi unlilarni cho'zish yo'li bilan yasash mumkin?**

+ 1-va 2- bo'g'inlardagi unlirlarni

- faqat 1- bo'g'indagi
- Faqat oxirgi bo'g'indagi unlarni
- to'g'ri javob yo'q

**47. Sifatning qaysi darajasi predmetdagi bir belgining boshqa predmetga belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi?**

+ qiyosiy

- orttirma
- ozaytirma

- oddiy

**48.Qiyosiy daraja qaysi qaysi qo’shimcha yordamida yasaladi?**

+ -roq
- -chi
- -cha
- - da

**49 Morfologiya nimani o’rganadi?**

+ So’z shakllarini o’rganadi
- So’zning leksik ma’nosini o’rganadi
- Gapning leksik ma’nosini o’rganadi
- To’g’ri javob yo’q

**50. Mustaqil so’z turkumlari nechaga bo’linadi?**

+ 6
- 5
- 4
- 7

**51. Mavhum otlar keltirilgan javobni aniqlang.**

+ Do’stlik, nafrat
- Qalam, Ruchka
- Kitob, Toshkent
- Buxoro,  poyezd

**52.Qanday otlarga turdosh otlar deyiladi?**

+ bir turdosh predmetining umumiy nomini bildirgan otlar
- ong yordamida idrok qilinadigan narsalarni ifogdalaydigan
- 5 ta sezgilar yordamida sezish mumkin bo’lgan predmetlarni ifodalaydi
- predmetlarning belgisini bildiradi

**53. Qanday otlarga aniq otlar deyiladi?**

+ 5 ta sezgilar yordamida sezish mumkin bo’lgan predmetlarni ifodalaydi
- bir turdosh predmetining umumiy nomini bildirgan otlar
- ong yordamida idrok qilinadigan narsalarni ifogdalaydigan
- Predmetlarning belgisini bildiradi

**54. Qanday otlarga mavhum otlar deyiladi?**

+  ong yordamida idrok qilinadigan narsalarni ifogdalaydigan
- Predmetlarning belgisini bildiradi
- 5 ta sezgilar yordamida sezish mumkin bo’lgan predmetlarni ifodalaydi
- bir turdosh predmetining umumiy nomini bildirgan otlar

**55. Turdosh otlar ko’rsatilgan javobni tanlang**

+  Shahar, odam, maktab
- Do’stlik, gul, qalam

- Mirzo-Ulug'bek tumani, ruchka, kompyuter
- Shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, parta

**56. Aniq otlar ko'rsatilgan javobni tanlang**

+ Tovush, daqiqa
- Go'zallik, g'azal
- Dushmanlik, shahar
- Madaniyat, Do'stlik

**57. Mavhum otlar ko'rsatilgan javobni tanlang**

+ Go'zallik, g'azab
- Dushmanlik, shahar
- Madaniyat, daqiqa
- Shahar, kitob

**58.Turdosh otlar birlik shaklda ko'plik ma'nosini ifodalash – ifodalamasligiga ko'ra necha xil bo'ladi?**

+ 2
- 3
- 4
- 5

**59. Qanday otlar atoqli otlar deyiladi?**

+ Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan otlar
- bir turdosh predmetining umumiy nomini bildirgan otlar
- ong yordamida idrok qilinadigan narsalarni ifogdalaydigan
- Predmetlarning belgisini bildiradi

**60. Otlarning birlikdagi uchinchi shaxs qo'shimchalarini ko'rsating**

+ –i, - si,
- –m, -im
- –ng, -ing
- –si, -lari

**61.** ***Yuring men o'sha tomonga boraman dedi Kamola.*** **Ushbu keltirilgan gapda to'g'ri ishlatilgan tinish belgilarni toping.**

+*"Yuring men o'sha tomonga boraman", - dedi Kamola.
- "Yuring men o'sha tomonga boraman" - dedi Kamola.
- "Yuring men o'sha tomonga boraman" – dedi Kamola".
- "Yuring men o'sha tomonga boraman" dedi Kamola".

**62.** ***Bizning qishlog'imizda dedi Fazliddin kishi zerikmaydi.*** **Ushbu keltirilgan gapda to'g'ri ishlatilgan tinish belgilarni toping**

+"Bizning qishlog'imizda, - dedi Fazliddin, - kishi zerikmaydi".
- "Bizning qishlog'imizda, - dedi Fazliddin, - kishi zerikmaydi.
- "Bizning qishlog'imizda", - dedi Fazliddin, - "kishi zerikmaydi".

- “Bizning qishlog’imizda, - dedi Fazliddin, - “kishi zerikmaydi”.

**63. Ommabop uslubiga misol keltirilgan qatorni aniqlang.**

+“Kamolot” yetakchilari o’zlarining navbatdagi majlisiga yig’ilishdi

- yomg’ir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog’ini.

- vazirlikning buyrug’i ijro uchun qabul qilinsin.

- obbo, hamma ishni do’ndiribsiz-da

**64. Ilmiy uslubning o’ziga xos belgilarini aniqlang.**

+ Mantiqlilik, aniqlik

- dialogik shaklda bo’lishi

- soddalik, ta’sirchanlik

- tushunarli bo’lishi, adabiy til me’yorlariga rioya qilishi

65. **Tashviqot-targ’ibot ishlarini olib borishda qo’llanadigan uslub qanday uslub deb ataladi?**

+ ommabop uslub

- badiiy uslub

- nutq uslubi

- ilmiy uslub

**66. So’zlashuv uslubiga ta’rif qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?**

+ Uyda, ko’chada, insonlarnning o’zaro so’zlashuvida qo’llanadigan uslub so’zlashuv uslubi deyiladi

- voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirib, tinglovchiga estetik jihatdan ta’sir qiluvchi uslub so’zlashuv uslubi deyiladi

- davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar so’zlashuv uslubida yoziladi.

- tashviqot-targ’ibot ishlarini olib borishda qo’llanadigan uslub so’zlashuv uslubi deyiladi

**67. Roman, qissa, hikoya kabi janrlar qaysi uslub asosida yuzaga keladi?**

+ badiiy uslub

- ilmiy uslub

- publitsistik uslub

- so’zlashuv uslubi

**68. Gazeta, jurnal maqolalarining uslubi ko’proq qanday uslubga tegishli bo’ladi?**

+ publitsistik uslub

- so’zlashuv uslubi

- badiiy uslub

-ilmiy uslub

**69.** ***Yaxshi, yomon, aqlli, sergak*****. Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ xususiyat bildiruvchi

- rang-tus bildiruvchi

- maza ta'm bildiruvchi

- shakl-ko'rinish bildiruvchi

**70.** ***Oq, qora, sariq, kul rang*****. Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ rang-tus bildiruvchi

- xususiyat bildiruvchi

- maza ta'm bildiruvchi

- shakl-ko'rinish bildiruvchi

**71.** ***Achchiq, nordon, Shirin*****; Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ maza ta'm bildiruvchi

- rang-tus bildiruvchi

- vazn-og'irlik bildiruvchi

- hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi

**72.** ***Keng, tor, katta, kichik*****; Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi

- rang-tus bildiruvchi

- vazn-og'irlik bildiruvchi

- maza ta'm bildiruvchi

**73. X*****ushbo'y, muattar, badbo'y;*** **Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ hid bildiruvchi

- o'rin va paytga munosabat bildiruvchi

- shakl-ko'rinish bildiruvchi

- hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi

**74.** ***Og'ir, yengil, vazmin*****; Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ vazn-og'irlik bildiruvchi

- rang-tus bildiruvchi

- maza ta'm bildiruvchi

- hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi

**75.** ***Yozgi, qishki, dastlabki, uydagi*****; Ushbu keltirilgan so'zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ o'rin va paytga munosabat bildiruvchi

- shakl-ko‘rinish bildiruvchi
- rang-tus bildiruvchi
- maza ta’m bildiruvchi

**76. *Yapaloq, tekis, dumaloq*; Ushbu keltirilgan so’zlar sifatning qaysi turiga mansub.**

+ shakl-ko‘rinish bildiruvchi
- o‘rin va paytga munosabat bildiruvchi
- hajm-o‘lchov, masofa bildiruvchi
- rang-tus bildiruvchi

**77. *Rejali ish buzilmas.* Ushbu keltirilgan gapda sifatni aniqlang.**

+ Rejali ish
- buzilmas
- ish
- Rejali ish buzilmas

**78. *Bizning armiyamiz qanday armiya?* Savolga javob bering. Javobingizda berilgan sifatlardan foydalaning.**

+ qudratli
- quvnoq
- chiroyli
- chaqqon

**79. *Bizning hayotimiz qanday?* Savolga javob bering. Javobingizda berilgan sifatlardan foydalaning.**

+, go’zal
- quvnoq
- chaqqon
- qudratli

**80. *Qanday shamol esyapti?* Savolga javob bering. Javobingizda berilgan sifatlardan foydalaning.**

+ mayin
- quvnoq
- chaqqon
- qudratli

## Fanni o’qitishda pedaqoqik texnologiyalardan foydalanish

Ta’lim va tarbiya jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish asosiy o‘ringa ko‘tarilishi zamon talabidir. Pedagogika texnologiya ta’lim jarayonida mustaqil ishlashga o‘rgatishni va mustaqillik ta’lim jarayonining asosini tashkil etishining an’anaviy og‘zaki bayon etish ustunlik qiladigan usuldan voz kechib, talabalarni ko’proq mustaqil ta’lim olishga undashdan iboratdir. Darsda rejalashtirilgan bilimni o‘zlashtirishga intilish talabaning shaxsiy vazifasiga aylanishi, ta’limda talaba faol ishlaydigan usullarni yaratish pedagogic texnologiyaning asosiy vazifasidir. Pedagogik texnologiyani yaratishni va amaliyotga joriy etishni pedagogic amaliyot talab etmoqda. Chunki bugungi kunda keng qamrovli fikr yurita oladigan, mustaqil ilm olish yo‘llarini egallagan va o‘z bilimini hayotda mustaqil qo‘llay oladigan shaxs talab etiladi.

Ta’lim jarayoniga texnologik yondashish talabalarni yanada keng qamrovli fikrlashga, mustaqil bilim olishga, o‘qituvchi bilan hamkorlikda faol ishlashga da’vat etadi.Bu muammolarni echishda ta’limning interraktiv usullaridan samarali foydalanish mumkin. Ingliz tilidan mavzularni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarida: “Oxford platinum”, “Encarta encyclopedia” va boshqa dasturlardan hamda pedagogik texnologiyaning “aqliy hujum”, klaster, muammoli mashqlar asosida dars o‘tilganda talabalarning darsda faol ishtirok etishi, qiziqib ishlashi, bilimini yaxshi o’zlashtirib olishi, o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullaridan foydalanilganda talabalar asosli va puxta bilim oladi, bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatadi va ta’limda aniq kafolatlangan bilimlarga ega bo‘ladi.

**«INSERT» jadvali**

| ***Javoblar varianti*** | ***V*** | **+** | **-** | ***?*** |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|

V – bilaman.

\+ - yangi ma’lumot.

\- - bilganlarimga zid.

? – menda savol bor.

**«Nima uchun» organayzeri**




**“SWOD-tahlil”**


• to'siqlar
T – (threat)
S (strength)
• Kuchli tomonlar
O – (opportunity)
W – (weakness)
• imkoniyatlar
• kuchsiz tomonlar


CASE
- qiziqarli, sodda va tushunarli tilda yozilgan bo'lishi;
- dramatizm va muammolikdan farqlanishi;
- muammoning o'zagini ravshan aniqlash.

## CASE uslubining texnologiyasi quyidagidan iborat:

- Aniq qoidalarga asosan real hayotda namoyon bo'lishi;
- O'qituvchi etakchi rolda bo'lishi;
- O'qituvchi savollarni tayyorlovchi;
- O'qituvchi javoblarni belgilovchi;
- Munozaralarni qo'llab-quvvatlovchi;
- Jarayonni boshqaruvchi.

## Case-study uslubining o'qitilish maqsadi

- o'quvchilarni mustaqil axborot izlashga;
- axborotlar bilan ishlashga;
- axborotlarni to'plashga;
- axborotlarni tizimlashtirishga;
- axborotlarni tahlil qilishga o'qitishdir.